

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

**DILDORA ISLAMOVA
NILUFAR MAMADIYEVA**

FALSAFA

(O'quv-uslubiy qo'llanma)

TOSHKENT-2020

UDK 161\16

Islamova D. X, Mamadiyeva N. X. O'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: TDTU., 2020. 103 6.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma nomutaxassislik oliy o'quv yurtlari bakalavriyat ta'lim (iqtisodiyot, texnika, tibbiyot, madaniyat, san'at, ekologiya va boshqa yo'nalishlar) talabalari va professor - o'qituvchilar uchun "Falsafa" fani ishchi dasturi bo'yicha tayyorlangan.

Unda Falsafa fani bo'yicha ma'ruza matnlari, mavzuga doir dars o'tish texnologiyalari, ulardan darsda foydalanish usullari berilgan. Shu bilan birga, fan yuzasidan tayanch so'zlar va iboralar, nazorat savollari, mustaqil ta'lim mavzulari va adabiyotlar ro'yxati ham taqdim etilgan.

O'quv-uslubiy qo'llanma "Falsafa" fanidan dars beruvchi professor-o'qituvchilar va talabalar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: Samarov. R. O'z. QKA professori

F. Primova. ToshDTU dotsenti

Toshkent davlat texnika universiteti

Islamova D.X, Mamadiyeva N.X.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma ToshDTU ilmiy-uslubiy Kengashi tomonidan nashirga ruhsat etilgan.

KIRISH

Falsafa fanining dolzarbligi bugungi globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolarni hal etish, xalqimiz ma'naviy merosini asrash va yanada yuksaltirish, yoshlarning falsafiy tafakkurini shakllantirish, ongini turli zararli g'oyalardan saqlash, ularni falsafiy bilimlar bilan

Eng qadimiy rivojlanish tarixiga ega bo'lgan falsafa o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, nafaqat anglash, balki ularga munosabat bildirishni shakllantiradi. Modomiki shunday ekan, bugungi kunda falsafani yanada rivojlantirish, yosh avlodni falsafiy dunyoqarash, zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarimizni falsafiy tafakkur bilan qurollantirish - davr talabi. Nega deganda, bugungi zamonda har qanday raqib va muxolif bilan baxsga kirishish uchun uning qarashlari va g'oyasi, falsafasini ko'proq bilishimiz, kerak bo'lsa, uning o'zidan ham puxtarok egallashimiz lozim.

Falsafa fanini o'qitishdan maqsad yoshlarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash mahorati, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Fanning vazifalari tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'rnini va ahamiyatini ochib berish, falsafa rivojlanishining asosiy bosqichlari va yo'nalishlari, dinning kelib chiqishi va uning funksiyalari, tabiat va jamiyat borligi to'g'risida tasavvurlarni shakllantirish, jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarga falsafiy tafakkur va shaxsiy-tahliliy tanqid nuqtai nazaridan yondashish, o'z-o'zini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tuyg'ularini hosil qilish, yoshlarda jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish hissini tarbiyalash va o'zining eng oliy maqsadini topish va unga erishish yo'lida maqsadli faoliyat olib borishdan iboratdir.

Fanning o'qitish shakllari bo'yicha mavzular rejasi

№	Mavzular	O'qitish shakllari bo'yicha Ajratilgan soat				
		Umumiy uklama	Auditoriya mashg'ulotlari (soatlarda)			Mustaqil ish
			Jami	Ma'ru- za	Seminar	
1.	Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli.	6	4	2	2	2
2.	Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq falsafasi.	8	4	2	2	4
3.	Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari G'arb falsafasi.	6	2	2	-	4
4.	Sharq va g'arb mutafakkirlari ijodida olam va odam muammosi.	6	2	-	2	4
5.	Borliq – falsafaning fundamental kategoriyasi	8	4	2	2	4
6.	Olamning universal aloqalari va rivojlanish. Falsafaning qonun va kategoriyalari	6	4	2	2	2
7.	Bilish nazariyasi: asosiy muammolari vayo'nalishlari	8	4	2	2	4
8.	Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma'naviy qadriyatlari. Jamiyat va tarix falsafasi	6	4	2	2	2
9.	Til va kommunikatsiya – tushunish vositasi	4	2	-	2	2
10.	Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi)	6	4	2	2	2
11.	Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlar	6	4	2	2	2

1-MAVZU:FALSAFA FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA JAMIYATDAGI ROLI.

Reja:

- 1. “Falsafa” atamasining mazmun-mohiyati va falsafaning asosiy masalalari.**
- 2. Falsafiy dunyoqarash. Dunyoqarashning tarixiy shakllari.**
- 3. Falsafaning asosiy funksiyalari. Falsafiy bilimlar tizimi.**
- 4. Falsafada milliylik va umuminsoniylik. Hozirgi davrda milliy falsafani rivojlantirish muammolari.**

1.“Falsafa” atamasining mazmun-mohiyati va falsafaning asosiy masalalari.

Qadimgi yunon tilidan fanga kirib kelgan atama – “Falsafa”ning aynan soʻzma-soʻz maʼnosi“ **phileo-sevaman va sophia-donolik, yaʼni “donolikka muhabbat”** demakdir. Ayni vaqtda qadimgi yunonlarda bu soʻz “tushunishga intilish”, “bilimga intilish” degan maʼnolarni ham anglatgan. Falsafaning mohiyati - bu “olam-odam” tizimidagi umumiy muammolar ustida fikr-mulohaza yuritishdan iboratdir.

“Donolik” deganda biz hayotiy tajribaga tayanadigan teran aql-idrokni, haqiqat va yaxshilik birligini, oliy haqiqatni, sevgi va rostgoʻylik mushtarakligini, aqliy va axloqiy kamolotning oliy darajaga yetgan holatini, qadriyatlarni qadrlash, his-tuygʻularning hayotga singib ketishini, har qanday narsaga va hodisaga mehr bilan qarash, har qanday masalaga, tashvishli murakkab holatlarda ham aql koʻzi bilan qarashni tushunamiz.

Dastlabki falsafiy taʼlimotlar bundan 2500 yillar ilgari Hindistonda, Xitoyda, Misrda paydo boʻlib, qadimgi Gretsiya – Yunonistonda oʻzining mumtoz shakliga erishgan.

Falsafaning asosiy masalalariga olam va odam munosabatlari, dunyoning mavjudligi, borliq muammosi, olamdagi oʻzaro aloqadorlik va taraqqiy etish, dunyoning asosi, negizi masalasi, inson muammosi, hayot va oʻlim, dunyoni bilish, insoniyat hayotidagi adolat va haqiqat, yaxshilik va yomonlik, urush va

tinchlik, umrning mazmuni, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy tamoyillari bilan bog'liq ko'pdan-ko'p masalalar kiradi.

Falsafada olamning asosida nima yotadi degan masalada quyidagi oqimlar vujudga kelgan:

Monizm (yunoncha – “monos” so'zi yakka ma'nosini anglatadi) olamning asosi bitta deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limot. **Dualizm**(lot. “dua” so'zi ikki ma'nosini anglatadi) olamning asosi ikkita, ya'ni modda va ruhdan iborat deb qarovchi ta'limot. **Plyuralizm** (lot. “plural” so'zi ko'plik ma'nosini anglatadi) olamning asosi hilma-xil deb ta'lim beruvchi ta'limot. **Materializm** (lot. “materialis” so'zi moddiy degan ma'noni anglatadi) olamning asosida moddiy narsalar yotishini e'tirof etuvchi ta'limot. **Idealizm**(yun. “idea” so'zi g'oya, ruh ma'nolarini anglatadi) moddiylikni inkor qilib olamning asosida g'oya va ruh yotadi deb ta'kidlovchi falsafiy ta'limot.

Dunyoni bilish masalasini hal qilishda ham falsafada bir qancha oqimlar yuzaga kelgan:

Gnostizm (yunoncha “gnosis” – bilish) – dunyoni bilish mumkin deb hisoblovchi ta'limot. **Agnostizm** (yun. “a” – inkor) – dunyoni bilish mumkin emas deb hisoblovchi ta'limot. **Ratsionalizm** (lot. “ratio” – aql) – bilishda aqlning rolini ustivor deb hisoblovchi ta'limot. **Irratsionalizm** (lot. “irratio” – aqlgazid) – bilishda insonning aqldan tashqari tomonlarini, ya'ni iroda, hissiyot, intuitsiya, hayol, instinktlarni birinchi o'ringa qo'yuvchi ta'limot. **Sensualizm** (lot. “sensus” – sezgi, his) – sezgilarni bilishning asosiy manbai deb e'tirof etuvchi ta'limot. **Skeptizm** (yun. “skeptikos” – shubha) – bilishga shubha bilan qarovchi ta'limot. Uning o'ta shakli agnostizmdir. **Empirizm**(yun. “empeiria” – tajriba) – hissiy tajribani bilishning birdan bir manbai deb hisoblovchi falsafiy oqim. Empirizm sensualizmga yaqin.

2. Falsafiy dunyoqarash. Dunyoqarashning tarixiy shakllari

Dunyoqarash tushunchasi. Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa

odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. Shu ma'noda, dunyoqarash insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir.

Dunyo qarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Guruh, partiya, millat yoki butun jamiyatga xos dunyoqarashlar majmuasi esa, ijtimoiy dunyoqarash deb yuritiladi. Har bir davrda ijtimoiy guruh, jamiyat va avlodning o'z dunyoqarashi mavjudligi ham bu tushunchaning tarixiy mohiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Falsafiy dunyoqarash. Bu tushunchaning mazmuni insonning olamga, voqea va hodisalarga, o'zgalarga va ularning faoliyatiga, o'z umri va uning mazmuni kabi ko'pdan-ko'p tushunchalarga munosabati, ularni anglashi, tushunishi, qadrlashida namoyon bo'ladi.

Falsafiy dunyoqarashning shakllanishida bilim g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bilimda dunyoqarashning barcha belgilari mavjud.

Falsafiy dunyoqarashning tarixiy shakllari. *Mifologik dunyoqarash* qadimgi zamon kishilarining o'zlariga munosib hayot sharoitlarini yaratish ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Dunyo qarashning mifologik mohiyati bugungi fan-texnika taraqqiyoti, insonning aqliy salohiyati bag'oyat yuksalib ketgan davrda juda jo'n va ibtidoiy bo'lib ko'rinadi. Ammo afsona va rivoyatlar o'zining kuchli jozibasi, insonparvarlik g'oyalari bilan hozirgi kunda ham kishilarni ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalashning ta'sirchan va samarali omili bo'lib qolmoqda.

Diniy dunyoqarashda diniy-ilohiy qarashlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ular insonning ilohga bo'lgan e'tiqodi bilan bog'liq bo'lib, vujudga kelishiga ko'ra, boshqa dunyo qarash shakllari kabi, muayyan asoslarga ega. Mifologik dunyoqarash afsonaviy kuchlarni e'tirof etish bilan bog'liq bo'lsa, diniy dunyoqarash ilohiy qudratlarga e'tiqod qo'yish bilan bog'liq.

Diniy dunyo qarashni teologiya deb ataladigan falsafiy fan o'rganadi. **Teologiya** olam va odam munosabati, umrning mazmuni, hayot va o'lim muammosi

kabi masalalarni ilohiyot, diniy e'tiqod tushunchalari bilan bog'lab tahlil qilish hamda o'ziga xos mukammal tizimini yaratgan.

3. Falsafaning asosiy funksiyalari. Falsafiy bilimlar tizimi.

Dunyoqarash, avvalo insoniy munosabatlar ifodasidir. Shu nuqtai nazardan, u insonning borliqqa munosabatida, dastlab uning bahosi tarzida ko'zga tashlanadi.

Bu — falsafiy dunyoqarashning *baholash* vazifasini anglatadi. Ya'ni, inson, o'z ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib, narsa-hodisalarni: yaxshi-yomon, foydali-zararli, savob-gunoh, oriyat-benomuslik kabi qarama-qarshi mezonlarga ajratadi.

Dunyoqarash inson faoliyatini axloqiy me'yor, diniy qadriyat, xuquqiy hujjat va siyosiy mexanizmlar kabi usul-vositalar orqali *boshqarish* vazifasini ham ado etadi. Bunda falsafiy dunyoqarashning o'zicha nisbatan mustaqil bo'lgan har bir yo'nalishi o'ziga xos boshqarish usuliga ega bo'ladi.

Falsafiy dunyoqarashning inson faoliyatini *nazorat qilish* vazifasi ham bor. Bunda dunyoqarashning jamoatchilik fikri tarzidagi ko'rinishi nazarda tutiladi.

Falsafiy dunyoqarashning *birlashtirish* (kommunikativ) vazifasi turli dunyoqarash yo'nalishlarini milliy va umuminsoniy g'oyalar atrofida uyg'unlashtirishi bilan xarakterlanadi.

Falsafiy dunyoqarashning *tarbiyaviy* vazifasini yuqorida zikr etilgan boshqa vazifalarning asosi sifatida qarash kerak. Bu — kishilarda keng va teran fikrlash qobiliyatini vujudga keltirish asosida bag'rikenglik, murosa, har qanday ziddiyatlarni madaniy yo'l bilan hal qilish, kelajakka umid va ishonch ruhini shakllantirishdan iborat.

Falsafaning yuqorida qarab chiqilgan funksiyalari bilan bir qatorda yana uning bayon etish, axborot berish funksiyasi ham mavjuddir.

Falsafiy bilimlar tizimi. Hozirgi zamon falsafasi doirasida ko'pincha quyidagi mustaqil sohalarni ajratishadi: falsafa tarixi, ontologiya – borliq to'g'risidagi ta'limot, gnoseologiya (epistemologiya) – bilish to'g'risidagi ta'limot, aksiologiya – qadriyatlar to'g'risidagi ta'limot, falsafiy antropologiya –

inson to'g'risidagi ta'limot, ijtimoiy falsafa – jamiyat to'g'risidagi ta'limot, mantiq – tafakkur qonunlari va shakllari to'g'risidagi ta'limot, etika – axloq to'g'risidagi ta'limot, estetika – go'zallik to'g'risidagi ta'limot.

Shuningdek tabiatshunoslik falsafasi, din falsafasi, huquq falsafasi, fan falsafasi, texnika falsafasi, tarix falsafasi, madaniyat falsafasi, siyosat falsafasi, global muammolar falsafasi kabi bugungi kunda mustaqil fan maqomini olish bilan bir butun yo'nalishlarga ajralgan.

4. Falsafada milliylik va umuminsoniylik. Hozirgi davrda milliy falsafani rivojlantirish muammolari.

Falsafa ilmi milliy, ayni vaqtda umum insoniy qadriyatdir. Mazkur qadriyat inson o'zini o'zi inson sifatida tanigan kunidan boshlab takomillashib, rivojlanib, chuqurlashib, murakkablashib, ilmiylashib va tobora insoniylashib boradi.

Albatta, falsafa umuminsoniy fan sifatida bashariyatga doir umumiy muammolarni qamrab oladi. Ma'lumki, olam va odam munosabatlari, jamiyat va tabiatni asrash, umrni mazmunli o'tkazish, yaxshilik va yomonlik kabi qadriyatlar bilan bog'liq masalalarning barchasi insoniyat uchun umumiy. Ammo falsafada muayyan milliy xususiyat, maqsad va intilishlar ham o'z ifodasini topadi. Aslida, yuqorida zikr etilgan umuminsoniy mavzu, masala va muammolarning barchasi avval-boshda xususiy, milliy, mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar tarzida namoyon bo'ladi. O'z yurti, millati, ota-onasi va yor-birodarlarini sevgan vatanparvar inson, avvalo, ana shularning kamoli uchun qayg'uradi, ularni o'ylaydi, ularga xizmat qilishni oliy saodat deb biladi. Bunday shaxs dunyoqarashida ana shu jihat va xususiyatlar albatta aks etadi. Bu esa, o'z navbatida, umuminsoniy fan bo'lgan falsafada milliylikning aks etishiga asos bo'ladi.

Falsafa tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ayrim milliy falsafalarning umuminsoniy ma'naviyat xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shilganini ko'ramiz.

Bugungi o'zbek falsafasining rivojini ta'minlashda xalqimizning o'z milliy an'analariga, qadriyatlarimizga sodiqligi, mamlakatimizning kelajagiga ishonchi, mehnatsevarligi, intellektual salohiyati alohida o'rin tutadi.

Tayanch so'zlar:

Falsafa, faylasuf, monizm, dualizm, plyuralizm, materializm, idealizm, gnostizm, agnostizm, sensualizm, skeptizm, empirizm, mifologiya, teologiya, substansiya, dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, ontologiya, gnoseologiya, aksiologiya, metodologiya, praksiologiya, falsafaning milliyliigi, falsafaning umuminsoniyligi

1-Mavzu bo'yicha qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar.

1-topshiriq: "Aqliy xujum" savollari

1. Falsafa o'zi nima?
2. Faylasuf qanday xususiyatlarga ega bo'lmog'i lozim?
3. Falsafaning insoniyat va jamiyat hayotidagi o'rni qanday?
4. Falsafa fani qanday muammolar bilan shug'ullanadi?
5. Dunyoqarash deganda nimani tushunasiz?
6. Diniy dunyoqarashning mohiyati nima?


2-topshiriq:

Konseptual jadvalni to'ldiring

Falsafiy oqimlar	Lug'aviy ma'nosi	Xususiyati	Namoyondalari
MONIZM			
DUALIZM			
PLYURALIZM			
MATERIALIZM			
IDEALIZM			

3-topshiriq:

“VENN” diagrammasidan foydalanib tushunchalarni taqqoslang.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. «Falsafa» tushunchasining mohiyatini siz qanday tushunasiz?
2. Falsafaning bahs mavzulari, asosiy muammolari nimadan iborat?
3. Dunyoqarash nima?
4. Falsafiy dunyoqarashning g‘oyaviy ildizlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
5. Dinning dunyoqarash tizimidagi o‘rni va ahamiyati qanday?
6. Falsafiy dunyoqarashning vazifalari haqida nimalarni bilasiz?

Mavzu bo‘yicha testlar:

1. “Filosofiya” atamasining ma’nosi nima?

- A) Dunyoni bilish
- V) Dunyoni sevish
- S) Xikmatli so‘z
- D) Donishmandlikni sevish

2. «Dunyoning ibtidosi ham, intihosi ham - suvdir» degan ta’limot qayerda vujudga kelgan?

- A) Misrda;
- V) Mesopotamiyada;
- S) Qadimgi Rimda;

D) Qadimgi Xitoyda

3. Dunyoqarash nima?

A) Olam to'g'risidagi bilimlar yig'indisi

V) Olam va unda insonning o'zini to'g'risidagi qarash

S) Olam haqidagi tabiiy ilmiy qarashlar tizimi

D) dunyo to'g'risidagi mifologik tasavvurlar

4. "Filosofiya so'zini birinchi bo'lib qo'llagan yunon faylasufi kim?"

A) Arastu

V) Aflotun

S) Pifagor

D) Suqrot

5. Agnostitsizm nima?

A) dunyoni bilishni inkor etuvchi ta'limot;

V) insonning kelib chiqishida tabiiy omilning hal qiluvchi ahamiyatini inkor etuvchi ta'limot;

S) insonning kelib chiqishida ijtimoiy omilning hal etuvchi ahamiyatini e'tirof etuvchi ta'limot;

D) dunyoni bilish mumkinligini e'tirof etuvchi ta'limot

6. Falsafa qanday fan?

A) Falsafa fanlarning otasi

V) Tabiat va jamiyat qonunlari haqidagi fan

S) Olam va unda insonning o'zini haqidagi fan

D) Fanlar tilini ilmiy ta'riflaydigan fan

7. Monistik ta'limotning tub mohiyati nimada?

A) olamning birligi to'g'risidagi qarashlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilishda;

V) olamning birligini inkor etishda;

S) olamning birligini bir substansiyadan tarkib topadi degan qarashlarda;

D) olam ikki yoki ko'p substansiyalardan tarkib topadi degan qarashlarda

8. Falsafada moddiylikni ustuvor deb biluvchi ta'limot

- A) Materializm
- V) Idealizm
- S) Monizm
- D) Dogmatizm

9. Olamning asosida ko'p narsa va ideyalar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limot:

- A) Dualizm
- V) Materializm
- S) Idealizm
- D) Plyuralizm

10. Filosofiya so'zini "xikmatni qadrlash" deb atagan faylasuf kim?

- A) Farobiy
- V) Xorazmiy
- S) IbnSino
- D) Navoiy

**2-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI:
SHARQ FALSAFASI.**

Reja:

- 1. Qadimgi Sharq falsafasi (Qadimgi Bobil, Misr, Markaziy Osiyo, Hindiston, Xitoy)**
- 2. Islom va tasavvuf. Ilk o'rta asrlar Sharq falsafasi**
- 3. Temur va temuriylar davri falsafasi**
- 4. XVI asrdan XX asr boshlarigacha Markaziy Osiyoda ilg'or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar. XX-XXI asr o'zbek falsafasi.**

1. Qadimgi Sharq falsafasi (Qadimgi Bobil, Misr, Markaziy Osiyo, Hindiston, Xitoy)

Qadimgi Bobilva Misrda falsafaning paydo bo'lishi. Eramizdan oldingi IV ming yillikning oxiri III-ming yillikning boshida qadimgi Bobil va qadimgi Misr madaniyati o'z taraqqiyotining yuqori nuqtasiga erishadi. Bu davlatlarda falsafiy

fikrlarning paydo bo'lishi, bir tomondan, dunyo haqidagi fanlar bo'lgan - Astronomiya, kosmologiya, matematika birinchi odimlari bilan yaqindan bog'liq bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, afsonalar bilan bog'liq edi. Qadimgi Babil va Misr olimlari oy va kun tutilishi davriligini aniqlashga muvofiq bo'ldilarki, bu ularga bu hodisani oldindan aytish imkonini berdi. Misrliklar yulduzlar turkumi vaziyatida ko'rinadigan Yerning Quyosh atrofidagi yo'li joylashgan tekislikni (ekliptika) aniqladilar – va uni burjlarni (osmonda sayyoralar harakat qiladigan chambar yo'l) tashkil etgan 12 qismga bo'ldilar; har biri 30 kundan iborat bo'lgan, 12 oydan tashkil topgan taqvimni vujudga keltirdilar. Bir kecha va kunduzning vaqti suv va Quyosh soatlari bilan o'lchanar edi.

Zardo'shtiylik. Eramizdan oldingi VI asrdan boshlab Markaziy Osiyoda zardushtiylik dini paydo bo'lib, eramizning III asrigacha hukmronlik qiladi. Zardushtiylikning vatani sifatida Markaziy Osiyo (Baqriya, Xorazm) va Eronni (Midiya) ko'rsatadilar. Zardushtiylikda eng qadimgi davrlardan boshlab (eramizdan oldingi 3-2-nci ming yilliklar) eramizdan oldingi 1-ming yillik o'rtalarigacha bo'lgan Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq xalqlarining diniy tasavvurlari aks etgan.

«Avesto» kitobiga binoan, Koinot, yer, okean, osmon, nurli doira va jannatdan iborat. Yer dumaloq bo'lib, atrofi okean bilan o'ralgan. Osmon to'rt doiradan tashkil topgan: yulduzlar doirasi, oy doirasi, quyosh doirasi va jannat doirasi yoki nur makoni. Avesto bo'yicha birinchi odam Yimadir, barcha odamlar undan kelib chiqqan.

Markaziy Osiyoda diniy-falsafiy qarashlar. Eramizdan oldingi II asrda Kushon davlati tashkil topdi. Kushon hukmdorlari tomonidan zarb etilgan tangalarda biz hind, eron va ellinistik xudolar dastasi bilan bog'liq bo'lgan ilohlarning ismlari va siymolari aksini uchratamiz. Mitra va hosildorlik xudosi Orloxsho bilan bir qatorda urush xudosi Veretragna, hind xudolari Shivava Budda turganligining guvohi bo'lamiz. Kushon imperiyasida dunyo sivilizatsiyasi tarixida kamdan-kam uchraydigan hodisalardan biri sifatida buddaviylik, jaynizm, zardushtiylik, maxalliy va qabilaviy diniy e'tiqodlarning

bir-birlari bilan tinch yashaganliklarini qayd etish lozim. Aynan ana shu Kushonlar davrida Markaziy Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlariga yoyilgan Mohayana shaklidagi buddaviylikning alohida rivojlanganligini kuzatish mumkin.

Monixeylik. Eramizning II-III asrlarida quldorlik tuzumi o'zining inqiroz va buzilish bosqichiga kirdi. Inqirozning g'oyaviy ifodasi sifatida yangi oqim bo'lgan monixiylik (Bobilda 216 yoki 217-inchi yilda tug'ilgan asoschisi Moniynomidan olingan) paydo bo'ldi. Moniy bir necha diniy-axloqiy risolalar yozgan. U «monixiylik xati» deb nom olgan alifboni kashf etdi. Monixeylik zardushtiylik ta'limotining yaxshilik va yomonlik to'g'risidagi aqidasiga, ya'ni dualizmga tayanar edi. Xristianlik va gnostitsizm (lazzat talablik) unga sezilarli ta'sir o'tkazgan edi. Moniylik ta'limoti o'z ifodasini soddacha ruhda dehqonlar ozodligini targ'ib qilishda topgan edi.

Mazdakiylik. Markaziy Osiyo va Eronda feodalizmning rivojlanib borishi va dehqonlar hayotining og'irlashishi tabaqalar o'rtasidagi qarama-qarshilikni kuchaytirib yubordi. Bunday qarama – qarshiliklarning ifodasi sifatida yangi diniy- falsafiy oqim bo'lgan mazdakiylik paydo bo'ldi. V-VI asrlar davomida mazdakiylik feodallarga qarshi qaratilgan harakatlarning mafkurasi bo'lib xizmat qildi.

Mazdakiylikning falsafiy ta'limoti zardushtiylikning ikki ibtido, ya'ni xayr va sharr, yorug'lik va bilan qorong'ulik o'rtasidagi kurash haqidagi tasavvurlarga borib taqaladi. Tabiat uchun sur: suv, olov va tuproqdan tashkil topgan bo'lib, ularning ko'shilishidan ijobiy va salbiy hodisalar kelib chiqadi. Yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash ezgulikning g'alabasi va yomonlik kuch ishlatish orqali yo'q qilish bilan xotima topadi. Mazdakchilarning ijtimoiy dasturi keskin talablar qo'ydi: barcha odamlarning teng huquqligi, iste'molda tenglik, barcha mulklarning va avvalo yerning umum ixtiyorida bo'lishi. Bu narsa oddiy xalq o'rtasida Mazdakning dong chiqarishiga olib keldi.

Vedalar. Qadimgi hind jamiyati hayoti haqida xabar beruvchi birinchi manba Vedalar bo'lib, taxminan eramizdan oldingi 1500 va 600 yillar orasida tarkib

topgandirlar. Ular garchi jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy tarkibi haqida, atrofni, o'rab turgan dunyoni bilish darajalari va boshqa ko'p narsalar haqida ma'lumot bersalar ham, ustun darajada diniy mazmunga ega edilar. Aslini olganda Vedalar - *samxitlar* – to'rt xilda mavjuddirlar. *Rigvada* (xudolarga madhiya), *Samaveda* (kuylar, ashulalar, hamdu sano), *Yadjurveda* (qurbonlik qilish paytida aytiladigan ifodalar va hikmatli so'zlar) va *Atxarveda* (afsunlar). Vedalar oriy qabilalarining ibtidoiy dunyoqarashlari, diniy-afsonaviy majmua va jodugarlikni aks ettirganlar.

Qadimgi Xitoy falsafasi. Xitoy falsafasi o'zining gullab-yashnagan vaqtiga «oltin davr» deb atalgan er.av. VI-III asrlarda erishdi.. Asosiy falsafiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat edi: in-yan, konfutsiychilik, daosizm, ismlar maktabi, moizm, legizm.

Konfutsiychilik axloqiy qoidalar va ijtimoiy boshqaruv masalalariga diqqat-e'tiborni qaratdi. Konfutsiychilik axloqi insonni uning ijtimoiy vazifasi bilan bog'liq ravishda tushunadi, ta'lim va tarbiyani esa, insonni ana shu vazifasini bajarishga olib keladigan narsa sifatida idrok qiladi.

Konfutsiychilik Sharq xalqlari ongida shunday axloqiy me'yorlarni shakllantirdiki, o'zining omma ongiga ta'sir kuchi jihatidan uni Injildagi 10 diniy buyruq bilan gina solishtirish mumkin. Bu avvalo *besht muqimlik* yoki *besht fazilat* - insonparvarlik, burchga sodiqlik, tavfiqlilik, aqlga muvofiqlik, haqiqatgo'ylikdir.

Daosizmning diqqat markazida tabiat, koinot va inson turadi. Ammo bu ibtidolar mantiqiy – aqliy yo'l bilan emas, balki mavjudlik tabiatiga to'g'ridan-to'g'ri kirib borish yordamida bilib olinadi. Dunyo hech qanday sabablarsiz doimiy harakat va o'zgarishda bo'lib, rivojlanadi, yashaydi va sirtqi ta'sir natijasida emas, balki ichki sabab natijasida vujudga kelgan. Borliq haqidagi ta'limotda yo'l tushunchasi – dao – markaziy maqomdadir.

2. Islom va tasavvuf. Ilk o'rta asrlar Sharq falsafasi.

Islom Arabistonda arablarning sinfiy jamiyatga o'tish va Arab davlatining tashkil topishi davrida paydo bo'ldi. Ilk islomning bosh yodgorligi bo'lgan

Qur'onda mutlaq yakka xudolik asosiy aqida bo'lib, arab qabilalarining yagona davlat hokimiyatiga birlashishini ifodalar edi.

Qur'on (arabcha qara'a – o'qimoq) musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi bo'lib, ular uni eramizning VII asrida Muhammad payg'ambar tomonidan yetqazilgan ilohiy vahiy, deb tan oladilar. Bizgacha yetib kelgan ko'rinishda Qur'on 114 suraga (boblar) bo'lingan bo'lib, suralarning uzunidan qisqa tomonga borishi tartibida tuzilgan.

Qur'on va Muhammad (s.a.v.) payg'ambar hadisleri amriga ko'ra, insonlar o'rtasida haqiqiy va adolatli munosabatlar o'rnatishning asosiy va zaruriy sharti tinchlikdir. Bundan tashqari, haqiqiy musulmon – bu hamma vaqt adolat uchun murosasiz ravishda dadil kurashadigan kurashchidir.

Qur'onga qo'shimcha sifatida Muhammad (s.a.v) payg'ambarga nisbat beriladigan, u kishining hatti-harakatlari va hukmlarini hikoya qiluvchi juda ko'p xadislardan iborat *sunna* (musulmoncha muqaddas rivoyatlar) vujudga keltirildi. Ma'lumki, Qur'on islom qonunchiligining asosidir. Hadislar esa, uning murakkab joylarini qisqacha tushuntirib, yangi qirralarini ochib, umumiy joylarini muayyanlashtirib, uni to'ldiradi. Hadislar – Muhammad (s.a.v.) nasihatleri ham bo'lib, musulmonlarni hayotning barcha sohalariga yo'naltiradi. Hadislar to'plamining eng ishonchlisini bizning vatandoshimiz imom va *al-Buxoriy* yozgan.

"Kalom" (arabcha-«ta'limot») nomini olgan ilk islom falsafasi ishlab chiqildi. Bu ta'limot tarafdorlarni *mutakallimlar* deb atadilar. Mutakallimlar an'anadan ko'ra, aqlga tayanishning afzalligini ta'kidlar, «taqlid» ni rad etar va biror-bir nuqtai nazar va ta'limotni qabul qilishdan oldin ehtiyotkorlik jihatidan unga shubha bilan qarashni nasihat qilar edilar.

Ilgarigi ilohiyotchilardan farqli o'laroq, Ashariy va uning izdoshleri ilk islomni mantik va falsafani, ya'ni aqliy usulni qo'llash yo'li bilan himoya qilishga urindilar. Ashariy taqdirga ishonish va iroda erkinli haqidagi ta'limotning ichki qarama-qarshiligini murosas yo'li bilan hal qilishga urindi.

Ko'pchilik mualliflarning fikricha, tasavvuf, arabcha «*suf*» so'zidan sufiy so'zi yasalgan. *Sufiylar* – aksar qo'y junidan to'qilgan chakmon yoki po'stin kiyib yuruvchi darveshlardir.

Tasavvuf– bu islom doirasidagi alohida sirli, diniy-falsafiy dunyoqarash bo'lib, uning vakillarining fikricha, inson o'zining shaxsiy ruhiy tajribasi vositasida xudo bilan bevosita ruhiy aloqa (mushohada yoki qo'shilish) o'rnatiladi.

Sufiy-panteist (xudo bilan tabiatni birday deb hisoblovchi) lar Qur'onni so'zma-so'z sharhlashni rad qilib, Xudoni bilishda ilmni o'zi yaxshirok yordam beradi deb hisoblar edilar. Bu qarash ilk islom tarafdorlari tomonidan dushmanlik bilan kutib olindi. Tasavvuf Markaziy Osiyoda keng tarqalgan edi. U ayniqsa G'azzoliy, Ahmad Yassaviy (XI asr), Najmiddin Kubro, Sulaymon Boqirg'oni (XII asr), Bahouddin Naqshband va boshqalar nomi bilan bog'langan.

VIII asrning oxiri va IX asrning boshlariga kelganda, Arab xalifalarining markaziy Bag'dodda madaniy-ma'rifiy hayot ancha yuksalib, unda ilm-fan kuchli rivojlana boshladi. Bu shaharda tashkil topgan "Dorul-hikma" – "Donolar uyi" da yahudiy, xristian va islom olimlari o'rtasida ham korlik ishlari, xususan, Qadimgi Sharq mutafakkirlari, yunon va rim olimlar asarlari arab tiliga tarjima qilinib, ularga sharhlar yozila boshlandi.

Muhammad al -Xorazmiy (780-850) IX asrning eng yirik ensiklopedik olimi bo'lib, Xorazmda tug'ilgan. Al-Xorazmiyning eng yirik asari uning astronomiyaga oid «Zij» idir. 7-22-boblarda Quyosh, oy va 5 ta sayyoralarning harakatlari bayon qilingan. 23-bob esa trigonometriyaga bag'ishlanib, unda al-Xorazmiy «tekislik» va «akslangan sinus» tushunchalarini kiritadi va ularga oid funksiyalar jadvalarini keltiradi. Al-Xorazmiyning bu asari butun Sharq va Yevropa tabiatshunoslik bilimlarining taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Hatto u keyingi davr geografik kashfiyotlarning ochilishida ham muhim rol o'ynaydi.

Ahmad Ibn Muhammad al- Farg'oni (798-865) o'rta asrlarda yashagan Markaziy Osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik, geograf sifatida

asosiy o‘rinni egallaydi. U asli Farg‘onaning Qubo (hozirgi Quva) shahrida tug‘ilib o‘tib, o‘zining dastlabki ma’lumotini shu yerda oladi. Ahmad Farg‘oniy Bag‘dodda «Baytul-hikma» ning yetakchi olimlaridan biri sifatida tanilib, shu yerda yashab, ijod etadi. 1998 yilda Mustaqil O‘zbekiston ahli va butun jahon jamoatchiligi Ahmad al - Farg‘oniyning 1200 yilligini keng nishonladi. Hozirgi kunda Ahmad al- Farg‘oniyning 8 ta asari bizga ma’lum bo‘lib, ularning hammasi astronomiyaga oiddir.

O‘rta asrlar Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy fikrining rivojlanishda, ayniqsa, Abu Nasr Ibn Muhammad **al- Forobiy** (870-950) faxrli o‘rin tutadi.

Forobiy falsafiy qarashlarining asosini uning dunyosining tuzilishi haqidagi panteistik ta’limoti tashkil qiladi. Bu ta’limotga ko‘ra, butun mavjudot-borliq emanatsiya asosida yagona boshlang‘ichdan bosqichma-bosqich vujudga kelgan. Bu oltita bosqichdan iborat bo‘lish, ular o‘zaro sababiyat orqali bog‘langan. Bundagi birinchi bosqich-birinchi sabab – bu «vujudi vojib» - o‘z-o‘zidan zaruriy mavjud bo‘lgan yagona Olloh (as-sababal-avval); ikkinchi bosqich-bu birinchi «vujudi mumkin» bo‘lib, ular osmon jismlari, ikkinchi sababdir (as-sababas-soniy); uchinchi bosqich-bu ikkinchi «vujudi mumkin», ya’ni faol aql (al-aql al faol); to‘rtinchi bosqich - to‘rtinchi sabab-bu tirik mavjudotlarga xos jonxir (an-nafas), ya’ni uchinchi «vujudi mumkin» dir; beshinchi bosqich-beshinchi sabab-bu narsa va hodisalarning ko‘rinishi, ya’ni shakli (as-surat) dir, ya’ni turtinchi «vujudgi mumkin» dir; nihoyat, oltinchi bosqich-oltinchi sabab-bu narsa va hodisalarning jismi, tanasi, ya’ni moddadir, bu beshinchi «vujuddi mumkin» dir. Bu bosqichlar bir-birlari bilan sababiy bog‘langandir.

O‘rta asr Sharqining, xususan, Markaziy Osiyoilk uyg‘onish davrining qomusiy olimlaridan yana biri Abu Rayxon Muhammad Ibn Ahmad **Beruniy** (973-1048) dir.

Beruniy o‘zining «Hindiston» nomli asarida Hindistonning iqlimi, uning geografik tuzilishi, xalqlari, ularning urf-odatlari, ilm-fani, adabiyot va san’ati, falsafasi, diniy qarashlarini bayon qilib beradi.

Beruniy asarlarida, uning tabiiy-ilmiy qarashlari bilan bog'liq chuqur ijtimoiy-falsafiy mulohazalar, umumlashmalar ham o'z ifodasini topgan. Uf orobiy falsafiy ta'limotiga asoslanib ollohni hamma narsaning birinchi sababi, deb hisoblaydi. Uning tushunishicha ham xudo hamma narsaning yaratuvchisi ekanligi e'tirof qilinadi. Lekin Beruniy shu birinchi sababdan kelib chiqqan hamma narsaning rivojlanish va o'zgarish huquqini tabiatga beradi. Uning ta'limoticha, tabiatda hamma narsa tabiiy qonunlar asosida yaratiladi, tabiat o'zining tabiiy kuchiga ega bo'lib, shu kuch ta'sirida tabiatda to'xtovsiz harakat, o'zgarish, o'sish, rivojlanish, vujudga kelish, yemirilish, halok bo'lish jarayonlari sodir bo'ladi. Bulardan shunday xulosaga kelish mumkinki Beruniy o'z falsafiy qarashlarida deizmga yaqin pozitsiyada turgan.

IX-XII asrlar musulmon Sharqi, xususan Markaziy Osiyo xalqlari tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlarining rivojiga o'zining buyuk hissasini qo'shgan qomusiy olimlardan yana biri Abu Ali Husayn Ibn Abdulloh **Ibn Sino** (980-1037) dir.

Abu Ali Ibn Sino o'z davrining barcha ilg'or ta'limotlarini, xususan, qadimgi Hind, Yunon, Turon, nihoyat, O'rta asr arab, Uyg'onish davri Markaziy Osiyo ilmiy merosi bilan chuqur tanishadi, ularni o'z dunyoqarashida umumlashtiradi. Ibn Sino asarida umumiy falsafiy masalalarni 2 ga bo'ladi. Ular: 1) nazariy va 2) amaliy masalalardan iborat bo'lib, o'z navbatida, ularning har biri qator ilm sohalarni o'z ichiga oladi. Uning vujud, mavjudot, borliq haqidagi ontologik ta'limotida u vujudniikkiga: vujudivojib, ya'ni zaruriy vujud hamda vujudi mumkinga ajratadi. Bunda vujudi vojib, ya'ni zaruriy vujud hamma narsalarning boshlang'ich – birinchi sababi, ya'ni tangridir. Vujudi mumkin esa shu vujudi vojibdan kelib chiquvchi boshqa barcha borliqdagi narsalardir. Vujudi vojib yakkalikni, vujudi mumkin ko'plikni ifodalaydi. Vujudi vojib o'z-o'zicha mavjud bo'lib, u azaliy; vujudi mumkin esa vujudi vojibdan paydo bo'ladi. Lekin bu paydo bo'lish birdaniga bo'lmay, balki asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich sabab-oqibat bog'lanish asosida kelib chiqadi. Bu kelib chiqish ematsiya asosida amalga oshadi.

Ibn Sinoning bu qarashlari panteistik ta'limot bo'lib, u O'rta asr Sharq mutafakkirlari falsafiy qarashlarining ko'pchiligiga xos bo'lgan ilg'or ta'limot hisoblanadi.

Yusuf Xos Hojib XI asrning ko'zga qo'ringan shoiri va mutafakkiri edi. U 1017 yilda Bolasog'un (hozirgi Qirg'izistonning To'qmoq) shahrida tug'ilgan. Yusuf Xos Hojib o'zining birdan bir dostoni bo'lgan turkiy tilda yozilgan «Qutadg'u bilig» ("Baxtga eltuvchi bilig") bilan mashhur bo'lgan. "Qutadg'u bilig" axloqiy-nasixatomuz asar sifatida Sharq o'rta asrining dunyoviy adabiyotiga mansub turk tilidagi eng yirik yodgorliklaridan biri edi.

Yusufning fikricha, hukmdor va uning tevaragidagi kishilar «davlat ilmi» qoidalariga binoan boshqarishga o'rganib olishlari hususida ana shu kitobdan barcha zarur bilimlarni topishlari zarur edi. Yusuf Xos Hojib o'z zamonasining juda bilimdon kishisi edi. «Qutadg'u bilig» dostoni uning adabiyot, tarix, falsafa, axloqshunoslik va nafosatshunoslik sohasida juda keng bilimlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Abu Homid ibn Muhammad G'azzoliy (1058-1111) Xurosonning Tus shahrida 1058 yili tavallud topdi.

G'azzoliy falsafa, axloq, din va tasavvufga doir bir qancha asarlarning muallifidirki, ulardan eng muhimlari quyidagilardan iborat: «Ihyoi ulum ad-din» («Diniy ilmlarning jonlanishi»), «Tahofutul-falosifa» («Faylasuflarni rad etish»), «Kimyoi saodat» («Baxt – saodat yoki hikmat kaliti»), «Munqiz minal zilol» («Adashishlardan saqllovchi»).

G'azzoliy Forobiy va Ibn Sinolarning asarlarini yaxshi bilar edi. Ularning falsafiy ta'limotlari islomni mustahkamlash uchun xizmat qilmasligiga ishonch hosil qilgach, ularga qarshi turdi.

Umar Xayyom (1048-1130) Saljuqiylar davlati ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va ilmiy tafakkurining eng atoqli namoyandalaridan biridir. U Xurosonning Nishopur shahrida tug'ildi va o'sha yerda tabiatshunoslik va falsafa ilmlaridan ta'lim oldi.

Xayyom riyoziyot, astronomiya va falsafa sohalari bilan shug'ullangan qomusiy olim bo'lishi bilan birga mashhur shoir ham edi. «Borliq va majburiyat haqida risola» da Xudo bormi yoki yo'qmi, uning payg'ambariga ergashish lozimmi yoki yo'qmi, degan masalalar muhokama qilingan. Javoblar ijobiy berilgan, ammo islom aqidalari asosida emas, balki Ibn Sinoning aqliy tamoyildagi falsafasi asosida. «Uch savolga javob» asarida dunyoda qabohat va yomonlikning borligi, determinizm va umri uzoqlik haqida muhokama yuritilgan. Bunda Umar Xayyom Ibn Sino falsafasining eng muhim unsurlaridan biri bo'lgan determinizmdan yuz o'giradi.

3. Temur va temuriylar davri falsafasi.

Mavoraunnahr mo'g'ullardan ozod bo'lgandan keyin, 1370 yildan boshlab mamlakatda Amir Temur (1336-1405) hukmron bo'ladi. Buyuk Temur kuchli markazlashgan davlat barpo qildi. Feodal tarqoqlikka chek qo'yildi, ishlab chiqarish kuchlari, qo'shni mamlakatlar bilan tashqi savdo aloqalari rivojlandi, yer ishlari va shahar hunarmandchiligida yuqoriga ko'tarilish kuzatildi. Qadimgi dunyo madaniyati, Mavoraunnahr, Hindiston, arab mamlakatlari xalqlarining ilk o'rta asrdagi falsafiy merosiga qiziqish ortib bordi. Bu davrning falsafiy fikri uchun xos narsa dunyoviy va diniy fanlarga murojaat, tabiatni o'rganishga intilish, inson aqli va qobiliyatlarining ko'tarilishi, insonning axloqiy sifatlarini qadrlash, insonparvalik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish edi.

Sa'duddin Ma'sud binni Umar **Taftazoniy** (1322-1392) islom falsafasi bo'lgan kalomning yirik vakili edi. U Niso (Ashxobod) shahri yaqinidagi Taftazon qishlog'ida tug'ildi.

Taftazoniy dunyoqarashidagi diqqatga sazovor masalalardan biri *qazo* va *qadar* hamda *iroda* erkinligidir. Ma'lumki, iroda erkinligi masalasida ko'plab faylasuflar har xil fikrlar bayon etishgan va inson o'z xulq-atvorida erkinmi, ya'ni ixtiyori o'z qo'lidami, degan savolga javob topishga intilganlar.

Sa'duddin Taftazoniy o'zining «Tahzibal-mantiqvaal-kalom» asarida insonning xulq-atvoridagi iroda erkinligi masalasiga kengroq to'xtaladi. Uning

fikricha, yomon xulqlar, gunohlar insonga xos narsalar bo'lmagan, ular faqat kishilarni sinash uchun yaratilgan.

Mir Sayyid Sharif **Jurjoni** (1339-1413) Samarqandning mashhur madrasalarida falsafa, mantiq, falakiyot, fiqh, til va adabiyot, munozara ilmi va boshqa fanlardan dars berib o'zidan yaxshi nom qoldirdi.

Jurjoniyning falsafiy qarashlari Forobiy, «Sof birodarlar» anjumani, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy va Qutbiddin ar - Roziyati Taxtoniylar dunyoqarashi ta'siri ostida shakllandi. Ular kabi, Jurjoniy ham ob'ektiv borliqning mavjudligiga shubha qilmagan edi, ammo uning kelib chiqishini aqliy yo'sinda talqin qilib, *emanatsiya* nazariyasi nuqtai nazarida turar edi.

Jurjoniy o'zining «Risala fi tahqiqe vujud» («Borliqni tekshirish risolasi») asarida yozadiki, borliqning haqiqiyliги o'z mohiyatiga ko'ra mavjuddir va uning yo'q bo'lishining o'zi mumkin emas.

Jurjoniy *javhari* (substansiya) besh turga bo'ladi: *aql*, *ruh*, *birlamchi javxar*, *shakl* va *jism*, javxarlar vositasida narsalar sifatida qarab chiqadi.

XV olimlaridan biri Amir Temurning nevarasi *Muhammad Tarag'ay Ulug'bek* (1394-1449) edi. Movaraunnahr hukmdori bo'lgan sulton Ulug'bek, Fan va madaniyat taraqqiyotiga katta e'tibor qaratdi. Ulug'bekning tadqiqotlari *astronomiya* taraqqiyotida muhim davr ochdi. U Yeryuzining har qanday nuqtasining koordinatlarini aniqlaydigan vosita ishlab chiqishga intildi, quyosh va oy tutilishlarini oldindan aytib berish usuli, yil hisoblarining biridan ikkinchisiga o'tish qoidalari, yil fasllari o'zgarishlarining qonuniyligini ochib berish, osmoniy jismlar harakatining qonunlarini tushuntirishga harakat qildi. Asosiy kuzatish vositasi sifatida sekstant (burchak o'lchash asboblariidan biri) xizmat qildi.

Ulug' o'zbek shoiri, davlat arbobi, buyuk mutafakkir **Alisher Navoiy** (1441-1501) Hirotida tavallud topadi. Navoiy falsafiy qarashlari *vahdati-vujud* va *tasavvuf* ta'limotiga asoslangan. Mutafakkir o'zining dunyo qarashida Olloh, tabiat va inson birligidan kelib chiqadi. Uning e'tiqodiga ko'ra, inson baxt-saodatiga bu dunyoda erishishi mumkin. Buning uchun u tinmay mehnat qilishi, kasb-hunar

egallashi, tabiatning siru asrorini idrok qilishi, uning noz-ne'matlaridan foydalanishi darkor. Xudo, allomaning fikricha, borliqning, shu jumladan insonning yaratuvchisidir. Mavjudotlarning eng yaxshisi, a'losi va gultojisi insondir.

4. XVI asrdan XX asr boshlarigacha Markaziy Osiyoda ilg'or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar. XX-XXI asr o'zbek falsafasi.

XVI asrdan boshlab Mavoraunnahr falsafiy fikr ikki asosiy yo'nalishda rivojlanadi.

Birinchi yo'nalish – Mirzajon Sheroziy, Yusuf Qorabog'iy, Muxammad Sharif Buxoriy kabi mutafakkirlar va boshqalar ijodida o'z ifodasini topgan Mavoraunnahrning o'zidagi ijtimoiy-falsafiy fikr rivoji. *Ikkinchi yo'nalish* - Markaziy osiyodan chiqib, Hindistonda ijod qilgan mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilgan falsafa.

Ibn Muxammadjon Yusuf al - Qorabog'iy Muhammad Shahiy (1563-1647) kelib chiqishi jihatidan Ozarbayjonlik edi. **Muhammad Sharif ibn Muhmamad al-Husayniy al-Alaviy al-Buxoriy** (vaf. 1697) Buxoroda tavallud topgan.

Yusuf Qorabog'iy va Muhammad Sharif Buxoriylarning ijodi falsafaning ko'pgina muammolarini qamrab olgan. Barcha Sharq peripatetiklari kabi Qorabog'iy ham barcha mavjud narsalarni ikki turga bo'ladi: vojibulvujud va mumkinul vujud yoki oddiygina zaruriy va imkoniy narsaga. Zaruriy narsa tushunchasi shundan iboratki, uning mohiyatiga nisbatan tashqida yotgan narsa hech qanday holatda ham yo'q bo'lishi mumkin emas. Imkoniy narsa – bu shundayki, uning mohiyati uchun tashqarida bo'lgan narsa har tomonlama borliq va yuqlik ham bo'lishi mumkin.

Qorabog'iy va Buxoriylarning e'tiborini jalb etgan boshqa muhim muammo jismlar bo'linishining chekli va cheksizligini aniqlash edi. Bu masala ularning qarashlarida makon va zamon haqidagi ta'limot bilan mustahkam ravishda aralashib ketgan.

Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1721) Hindistonning Azim obod shahrida tugʻildi. Uning hayoti va ijodi Boburiylar sulolasi hukmronligi davriga tugʻri keldi. Bedil koʻp asarlar yozib qoldirdi: «Chor unsur» («Toʻrt unsur»), «Nukot» («Askiya»), «Irfon» («maʼrifat»), «Ruboiyot» («Ruboiylar») va boshqalar.

Bedil Sharq mashoiyunlari (Arastu izidan boruvchilar) anʼanasini davom ettirdi. Uning fikricha, moddaning ibtidosi ham, intihosi ham (boshi va oxiri) yoʻq. U panteistik aqidaga ega boʻlib, «*Vahdati mavjud*» - borliqning yagonaligi nuqtai nazarida turar edi. Barcha narsalar zaruriyat yuzasidan vujudga keladi. Dunyo oʻzgarishda va doimiy harakatdadir. Dunyoni asosi sifatida Bedil *havoni* oladi.

Bilishning birinchi bosqichi tashqi his-tuygʻu yordamida amalga oshadi. Aql, tafakkur bilishning mukammalroq bosqichidir. Faylasuf hissiy va aqliy bilishni yagonalikda va oʻzaro aloqadorlikda qaraydi. U aqlga katta ahamiyat beradi.

Boborahim Mashrab (1657-1711) yirik oʻzbek shoiri va mutafakkiri edi. Boborahim Mashrab qoldirgan ijodiy merosda diniy va tasavvufiy gʻoyalar ham, oʻsha zamonda keng tarqalgan qalandarlik tariqatining ayrim ohanglari ham sezilarli oʻrin egallaydi. Mutafakkir islomning asosiy nazariy qoidalarini shubhasiz qabul etadi. Ammo, ayni zamonda, islom taʼlimotining bir qator zohiriy belgilarini, birlamchi deb hisoblagan qonun-qoidalarini, shariatning ayrim koʻrsatma-talablarini, farz-sunnatlarini tan olmaslik va past nazar bilan qarash ham koʻzga tashlanadi, ayrim diniy rukn-tushuncha va muqaddas deb bilingan marosim va odatlarga, talqin va aqidalarga shubha bilan qarash, hatto, ochiqdan-ochiq mensimaslik va masxaraomuz munosabat ancha-muncha uchraydi.

Islahotchilik va maʼrifatparvarlik yangi falsafasining shakllanishida qomusiy bilim sohibi, tabiiy va aniq fanlarni chuqur bilishi tufayli muhandis deb ulugʻlangan **Ahmad Donish**(1827-1897) (Toʻliq ismi – Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf al – Hanafiyas – Siddiqiy al - Buxoriy) alohida oʻrin tutadi. U astronomiya va kosmologiya sohalaridagi na tadqiqotlar olib borib qolmay, falsafa, tarix, adabiyot, musiqa sanʼati va xattotlik fanlarida ham yetuk edi.

Ahmad Donish ma'rifatparvarlik yo'nalishidagi islohotlar tarafdorigina emas edi. Amaldorlarning shaxsiy manfaati yo'lida o'z mansabini suiiste'mol qilishi, hukmdorlarning ochko'zligi va shariat qonunlarini o'z foydasiga xizmat qildirishi, sxolastikaga asoslangan ta'limning ahvoli, davlat mustaqilligini saqlashga yo'naltirilgan tashqi siyosat tizimining mavjud emasligi, umumiy dushmanga qarshi kuchlarni birlashtirish o'rniga, mintaqadagi yangi yerlarni bosib olishga qaratilgan nihoyatda cheklangan bir yoqlama intilishlar – bularning barchasini ko'rib, u nafaqat tanqidchi faylasuf bo'lib yetishdi, balki Vatanining qashshoq ahvolini idrok etishday zalvorli yukuning chekiga tushdi.

Muhammad Aminxo'ja Muqimiy (1850-1903) va **Zokirjon Furqat** (1859-1909) kabi shoirlar turkistonliklarning og'ir iqtisodiy ahvolidan qayg'uradilar va o'z ijodlari orqali mustamlakachilikka qarshi kayfiyatning kuchayishiga yordam berdilar. Lirik va satirik bo'lgan Muqimiy insof, adolat va odamiylik hukmronlik qiladigan erkin jamiyat to'g'risida orzu qiladi, ayni paytda, o'zining idealidan uzoq bo'lgan tuzum, mutaassib din namoyandalarini hajv tig'i bilan fosh etadi.

Zokirjon Furqatning ma'rifatparvarlik qarashlari uning «Ilm xosiyati», «Aql majlisi xususida», «Vistavka xususida» va boshqa mashhur she'rlarida o'z ifodasini topgan. U madaniyatning otashin targ'ibotchisi edi. Yevropa madaniyatiga katta ahamiyat berib, ilg'or xalqlar safidan joy olish uchun yoshlarni bilim egallashga chaqiradi.

Xullas, XIX-XX asr boshlarida ilg'or shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar va jamoat arboblarning ijodi komil inson, erkin jamiyat haqidagi g'oyalarni rivojlantirdi va mustamlakachilikka qarshi kurash g'oyasi yo'lidagi ilg'or milliy tafakkurning shakllanishida falsafiy asos bo'lib xizmat qildi.

Jadidchilik - XIX asr oxiri – XX asr boshidagi ko'plab Sharq mamlakatlaridagi milliy-taraqqiyparvar ziyolilarning islohotchilik harakati. Bu harakat O'rta Osiyo xalqlarining madaniy, milliy-siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo'ldi. "*Jadidlar*" degan nomning o'zi "*usuli jadid*" ("Yangi usullar") tushunchasi asosida kelib chiqqan. Bu atama ostida o'qitishning yangi usullari tushunilar, yangi usuldagi maktablar shu asosda

qurilgan edi. Jadidchilik harakatining vazifalari kengayishiga muvofiq ravishda keyinchalik mazkur atamaning mazmuni ham kengaydi. Ma'rifatparvarlik bilan bir qatorda, jadidlar ijtimoiy va siyosiy huquqiy holatlarning eski tizimini taraqqiyotning ilg'or usullari bilan almashtirmoqchi bo'ldilar. Jadidlar harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi siyosiy kuchlar murakkab bir tarzda chigallashib ketgan Turkiston jamiyatining eng ilg'or yo'nalishi qarashlarini o'zida aks ettirdi.

Ma'rifatparvar, adabiyotshunos, dramaturg, faylasuf, siyosiy arbob madaniyatshunoslik nazariyotchisi va amaliyotchisi **Mahmudxo'ja Behbudiy** (1874-1919) jadidchilik harakatining yirik rahnamo va nazariyotchilaridan biri edi. Behbudiy falsafada faqat islomiy an'analarning bilimdoni emas edi. U o'z asarlarida tez-tez O.Kant merosiga murojaat qiladi, pozitivizm, neokantchilik, neoxegelchilik, maxizm kabi Yevropa falsafasining yangi oqimlari bilan jiddiy qiziqadi.

Islomiy bilim berishga yo'naltirilgan an'anaviy ta'lim tizimi sharoitida Behbudiy o'zi «aqli ilmlar» («intellektual ilmlar») tushunchasi ostida birlashtirgan tabiiy va ijtimoiy fanlarning keng majmuini o'zlashtirishni ham o'quv dasturiga kiritishni qattiq turib talab qiladi. Bu bilan u ratsionalizm an'anasini qayta tiklashga intiladi. Mutaфakkir, xususan, tarix va geografiyani o'rganish zarurligiga katta e'tibor qaratadi. Behbudiy o'z xalqining ravnaqini nafaqat ta'lim-tarbiya, ayni paytda, mustaqillik tufayli uning siyosiy maqomidagi tub o'zgarishlar bilan bog'laydi.

Jadidchilikning yana bir yorqin namoyandasi Behbudiyning kichik zamondoshi **Abdurauf Fitrat** (1886-1937) edi. Falsafa fanining predmeti haqida fikr yuritarkan, Fitrat ong, axloq, ilohiyot va tafakkurni bilishni uning asosiy vazifasi sifatida qayd etadi.

Fitrat ilk ijodining markaziy g'oyalaridan biri bu – «hayot» g'oyasi. Hayot – butun Koinotning asosi. Hayot bo'lmasa, hech narsa bo'lmas edi. Xo'sh, hayot nima? Fitrat uni Alloh tomonidan yaratilganligini ta'riflash bilan birga uni sezgi va harakatlarning namoyon bo'lishi tarzida baholaydi. Hayot oddiy, hayvoniy

shakllardan to oliy, insoniy hayotgacha tadrijiy ravishda o'sib boradi. Mukammal «hayot g'oyasi» dinda mujassam. Fitrat nuqtai nazaricha, jamiyat evolyutsiyasi Xudo tomonidan rejalashtirilgan. Har bir muayyan jamiyat uchun Xudo payg'ambar va din yuboradi. Shu tariqa, to islomga qadar buyurilgan diniy ta'limotga binoan jamiyatlarning belgilab qo'yilgan holatida o'zgarish sodir bo'ladi.

Odob-axloq masalalari Sharq falsafasida hamisha asosiy o'rin tutib kelgan. Ular jadidchilik doirasida ishlab chiqilgan shaklda *Abdulla Avloniy* (1878-1934) ijodi, birinchi navbatda, uning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida ¹o'z aksini topdi.

Avloniy uchun axloq hammadan avval amaliy-pedagogik yo'nalishni kasb etadi. U «Insonlarni yaxshilikga chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi birilmdur». Bu ilm «Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar» yordamida ifodalashga asoslanishi kerak².

Avloniy yorqin kelajakni yaxshi xulqli insonni tarbiyalab yetishtirishdan ayri holda tasavvur qilolmasdi. Ilm «bizga yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, joizni nojoizdan, pokni nopokdan xatosizf arqlashim konini beradi, ayni paytda, nodonlik – yomon xulqlar, xudbinlik va yovuzlikning ibtidosi»³.

Avloniy bu xulosalarga qadimgi yunon falsafasi (Suqrot, Arastu va Aflotun), shuningdek, Ibn Sino, Rumi, Bedil asarlariga tayangan holda keladi.

Tayanch so'zlar:

Asotir, mif, falsafiy maktablar, vedalar, upanishadalar, daosizm, konfutsiychilik, Avesto, zardushtiylik, Moniy ta'limoti, Mazdak ta'limoti, kalom falsafasi, tasavvuf, panteizm, peripatetizm, ilohiyotshunoslik, ma'rifatparvarlik, jadidchilik, o'zbek falsafasi.

2-Mavzu bo'yicha foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar:


¹ Авлоний А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ // Танланган асарлар. Тошкент, 1998. 34-бет.

² Ўша ерда. 34-бет.

³ Ўша ерда. 184-185-бетлар.

1-topshiriq

“So‘zlab bering”



2-topshiriq

“BBB” texnikasi qoidasi

1. “Insert” texnikasidan foydalanilgan holda matnni o‘qib chiqing.
2. Olingan ma’lumotlarni individual sohalarga ajrating.
3. Qalam bilan qo‘yilgan belgilar asosida BBB jadvalini to‘ldiring.

BBB jadvali

<i>№</i>	<i>Mavzu savollari</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni istayman</i>	<i>Bilib oldim</i>
1	2	3	4	5
1.	Jadidchilik va ma’rifatparvarlik tushunchalarining farqi nimada?			
2.	Jadidchilik harakatining namoyondalari kimlar va ularning asl maqsadlari nimadan iborat edi?			
3.	O‘zbek falsafasining o‘ziga xosligi nimada?			

Mavzuni mustahkamlash uchun savollari:

1. Qadimgi Misr va Bobil falsafasining o‘ziga xos xususiyatini ayting.
2. “Avesto” da qanday falsafiy g‘oyalar bor?
3. Qadimgi Hindistonda qanday falsafiy maktablar vujudga kelgan?
4. Daosizm ta’limotining mohiyatini aytib bering.
5. Islom dini va kalom falsafasi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
6. Tasavvufda komil inson qanday namoyon bo‘ladi?
7. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va falsafat araqqiyotiga kimlar hissa qo‘shgan?
8. IX-XII asrlar Markaziy Osiyoda tabiiy-ilmiy bilimlar qaysi ensiklopedik olimlar tomonidan rivojlantirildi?
9. Ma’rifatparvarlardan kimlarni bilasiz?
10. Jadid mutafakkirlari qanday yo‘nalishlarda faoliyat yuritishgan?

Mavzu bo‘yicha testlar:

1. «Dunyoning ibtidosi ham, intihosi ham - suvdir» degan ta’limot qayerda vujudga kelgan?

- A) Misrda; V) Mesopotamiyada;
S) Qadimgi Xitoyda D) Qadimgi Hindistonda

2. Islom dunyosida shakllangan ikkita falsafiy oqim nomlarini aniqlang?

- A) mo‘taziliylar va mutakallimlar; V) sufiylik va tasavvuf;
S) hurfikrlilik va mutaassibchilik; D) jadidchilik va qadimchilar

3. Ibn Sinoning falsafiy asarlarini ko‘rsating?

- A) «Kitobat-Shifo», «Kitobat-Tavorix», «Tib qonunlari»;
V) «Najot», «Donishnoma», «Kitobal-Insof»;
S) «Donishnoma», «Kitobash-shifo», «Saydana»;
D) «Quvvatul-tabia», «Risolafil-ishk», «Osoral-Boqiya».

4. Kalom falsafasining asoschisi kim?

- A) Abu Ali al – Jubbiy V) Ismoilal - Ash’ariy
S) Ismoil al – Buxoriy D) Abu Mansur Muhammad

5.Farobiy asarlarini ko'rsating:

- A) "Falsafiy savollar va ularga javoblar", "Aql to'g'risida", "Logikaga kirish"
- V) "Falsafani o'rganishda nimalarni bilish kerak", "Davlat haqida", "Donishnoma"
- S) "Fozil odamlar shahri", "Qonuni Mas'udiy", "She'r san'ati"
- D) "Inson a'zolari haqida risola", "Poetika", "Fozil odamlar shahri"

6.Tasavvuf ta'limotining Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tariqatlari:

- A) Xamadoniya, Kubroviya, Axroriya; V) Yassaviya, Qodiriya, Malomatiya
- S) Naqshbandiya, Yassaviya, Kubroviya; D) Naqshbandiya, Nuriya, Mavlaviya.

7. "Panteizm"ning mohiyati nimada?

- A) Xudo olamdan tashqarida mavjud va u doimiy faol
- V) Xudo tabiat bilan aynan birdir
- S) Xudo tabiatni yaratgan, lekin uning keyingi harakatiga aralashmaydi
- D) Xudo uchlangan qiyofada mavjud

9. Qadimgi Hindistonda "Veda" lar muqaddasligini tan olmaydigan falsafiy maktablar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) chorvaklar, jaynizm, buddizm V) chorvaklar, buddizm, yoga
- S) sankhya, jaynizm, buddizm D) vedanta, vaysheshika, nyaya

10. Jadidlar falsafasining negizida qanday g'oya yotadi?

- A) fan va dini kelishtirish;
- V) xudoni inkor etish;
- S) islom va shariat qoidalarini rad etish
- D) yangi usuldagi maktablar joriy qilish

3-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI:

G'ARB FALSAFASI.

Reja:

- 1. Qadimgi Yunon va Rim falsafasi**
- 2. O'rta asrlar g'arb falsafasi.**
- 3. Uyg'onish davri va yangi davr falsafasi**
- 4. Eng yangi davr falsafasi**

1. Qadimgi Yunon va Rim falsafasi.

Qadimgi davr falsafasining yana bir silsilasi Yunoniston va Rimga tegishlidir. Bu davrdagi falsafiy qarashlar — antik davr falsafasi deb yuritiladi. Unda Milet falsafiy maktabi, Eley falsafiy maktabi, Suqrot, Pifagor, Aflotun, Arastu va boshqalarning falsafiy, tabiiy — ilmiy, ijtimoiy — ahloqiy ta'limotlari o'rganiladi.

Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limotlar eramizdan avvalgi VII-VI asrlar o'rtasida Milet shahrida yuzaga kelgan va rivojlangan. **Milet maktabi** vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksimenlardir. Uning asoschisi Fales (eramizdan avvalgi 624 — 547 yillarda yashagan). U Yunon fani va falsafasining asoschisi bo'lib, o'z davrining yetuk siyosiy arbobi, jo'g'rofi, faylasufi bo'lgan. Fales ta'limotiga ko'ra, tabiatdagi turli – tuman jism va hodisalar dastlabki ibtido — suvdan paydo bo'lgan va yana suvga aylanadi va bu moddiy birlik doimo o'zgarishda bo'ladi. Anaksimandr (Falesning shogirdi) eramizdan avvalgi VII asr oxiri va VI o'rtalarida yashab ijod etgan. U dunyo — cheksiz, gazsimon apeyrondan iborat, issiqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik apeyrondan ajralib chiqib, moddaning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ta'minlaydi, deb hisoblagan. Uning ta'limotini zamondoshi, shogirdi Anaksimen davom ettirdi. Anaksimen (eramizdan avvalgi 588-525 yillar) havo — olamning asosi, deb bilgan. Uningcha, havoning quyuqlashishidan suv, yer, tosh kabi moddalar tashkil topgan, siyraklashishidan esa olov paydo bo'lgan.

Yana bir yunon faylasufi **Geraklit** (eramizdan avvalgi 520-460 yillar) Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'idagi Efes shahrida zargar oilasida dunyoga kelgan. U stixiyali dialektikaga asos solgan, olov — olamning asosi, deb bilgan. Uning fikricha, olamda hamma narsa harakatda. «Oqar suvga bir soniyada ikki marta tushish mumkin emas, chunki suv har daqiqada yangilanib turadi». Olamda turg'unlik yo'q. Harakat qarama-qarshilik asosida sodir bo'ladi. «Kurash hamma narsaning otasi, hamma narsaning podshosidir», degan ekan Geraklit. Geraklitning fikricha, doimiy o'zgarish, harakat va o'zaro qarama-qarshi tomonlarga o'tish — jismlar sifatining nisbiyligi bilan bog'liq. Masalan, dengiz suvi inson iste'moli

uchun yaroqsiz bo'lsa, baliqlar uchun ayni muddaodir. Geraklitning qarashlari falsafiy tafakkur rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Pifagor (eramizdan avvalgi 580-500 yillar) Yunonistonning Samos orolida yashab o'tgan. U qadimgi Yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Uningcha, dunyoni bilish jarayoni, avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta'limotiga ko'ra, olamning asosida modda ham, tabiat ham emas, balki ideallashgan raqamlar yotadi.

Eley falsafiy maktabi namoyandasi Ksenofan (eramizdan avvalgi VI — V asr) shoir va faylasuf bo'lgan. U Kichik Osiyoda dunyoga kelgan. U ko'pxudolikka hamda insonlarga xos sifatlarni hayvonlarga, o'simlik dunyosiga daxldor deb biluvchi ta'limotga qarshi chiqib, mifologiyani rad etishga harakat qilgan. Uning falsafiy ta'limotiga ko'ra, tabiat - o'zgarmas va harakatsizdir, «Hamma narsa yerdan unib chiqadi va pirovardida yana yerga qaytadi». Ksenofant ilgari surgan g'oyalar uning shogirdi Eley falsafiy maktabining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri, eramizdan avvalgi 504 yili tug'ilgan Parmenid tomonidan rivojlantirilgan. Eley falsafiy maktabining namoyandalaridan biri Parmenidning shogirdi va do'sti Zenon (490-430 yillar) o'z ustozining ta'limotini himoya qildi va uni rivojlantirdi.

Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoseologiya (bilish to'g'risidagi fan) muammolari bilan shug'ullangan. Sofistlar yangi kasblarning mohir ustalari, ya'ni o'qituvchilar, diplomatlar, notiqalar, sud mahkamalarida ishlovchi mutaxassislardan iborat bo'lib, haqiqat, osoyishtalik, adolat o'rnatishga xizmat qilgan. Ularning ta'limoti Suqrot falsafasiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Suqrot (eramizdan oldingi 469-399 yillar.) (asli — Sokrat) — qadimgi Yunon faylasufi. Suqrot va uning tarafdorlari jamiyat qonunlariga, ular qanday bo'lishidan qat'i nazar, so'zsiz itoat etishni targ'ib etganlari g'oyatda ibratlidir. Holbuki, Suqrot va uning shogirdlari Afinada amal qilgan qonunlarni noto'g'ri va adolatsiz deb hisoblagan hamda ularni qattiq tanqid qilgan, ammo, shunday

bo'lsa-da, ularga bo'ysungan. Shu ma'noda, Suqrot o'zini aybdor deb topgan sud hukmiga itoat etgan va o'zini uning ixtiyoriga topshirgan. «Aflotun mening do'stim, ammo qonun do'stlikdan ustun turadi» degan hikmatli ibora o'shadavr ma'naviyatining yaqqol ifodasidir.

Suqrotning shogirdi **Aflotun** (asli — Platon) jahon falsafasi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomadir. U nafaqat faylasuf olim, balki san'atkor, shoir va dramaturg bo'lgan, o'z g'oyalarini dialoglar tarzida bayon qilgan. Aflotun 428 yil 21 mayda Delos orolida tug'ilgan. O'zidan keyin 35 dan ziyod dialog shaklidagi asarlar yozib qoldirgan. Aflotun «G'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi» ta'limotining asoschisidir. Uningcha, g'oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo esa uning soyasidir. Haqiqiy o'zgarish va taraqqiyot g'oyalar dunyosiga xos, soyalar dunyosidagi harakat esa uning aksidir. Foyalar dunyosining qonuniyatlarini hamma ham bilolmaydi.

Aflotunning shogirdi va safdoshi **Arastu** (384 — 322 yillar) (asli — Aristotel) qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi, o'zining betakror, jahonni lol qoldirgan ilmiy merosi bilan mashhurdir. Arastu zabardast olim bo'lib, mantiq, psixologiya, falsafa, axloq, notiqlik san'ati, tabiiy fanlar bo'yicha o'lmas, bebaho asarlar yozib qoldirgan. Uning barcha asarlari borliqni o'rganishga qartilgan. Faylasuf olamdagi narsa va hodisalar to'rtta sababga ega. Bular — moddiy sabab, ya'ni modda (materiya); shakily sabab yoki shakl; yaratuvchi sabab; pirovard sabab yoki maqsad sabablardir. Yaratuvchi sabab, Arastu talqinicha, harakat manbaidir.

Yunon falsafasida **Demokrit** ning qarashlari ham muhim o'rin tutadi. U haqiqiy borliq — moddiy dunyo, abadiy va poyonsiz, cheksiz-chegarasiz reallikdir, olam maydamoddiy zarrachalardan, ya'ni atomlardan va bo'shliqdan iborat deya ta'lim beradi. Atomlar va bo'shliq o'zaro yaxlit abadiy ibtidodir. Atomlar — bo'linmas va o'zgarmas, sifat jihatdan bir xil, uning miqdori shakli singari behisobdir. Harakat, degan edi Demokrit, atomlardan iborat moddaning abadiy, tabiiy holatidir. Demokrit tasodifiyatni inkor etgan. U «na tabiatda na jamiyatda xech bir narsa tasodifan paydo bo'lmaydi», deb yozgan.

Qadimgi dunyo tarixida eramizdan oldingi IV asrining oxiridan eramizning I asrining oxirgi o'n yilliklarigacha bo'lgan davrni **ellinizm** davri deb atash qabul qilingan. Bu davrning falsafiy-siyosiy qarashlari polis mafkurasidan yiroqlashib ketgan edi. Mumtoz shahar-davlatlar fuqarolari jamoasining dunyoqarashlarini aks ettirgan Aflotun maktabi, polislarning tushkunligi sababli o'zining ilgarigi yetakchilik mavqeini yo'qotadi.

Epikur (341-270 yillar) — qadimgi Yunon mutafakkiri. Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotini yanada takomillashtirib, uni yuqori pog'onaga ko'targan va tegishli qarashlar bilan boyitgan faylasuf. Epikur ta'limoticha, olam — moddiy, abadiy va cheksiz. Atomlar — bo'linmas, olam — jism va bo'shliqdan iborat, deb yozgan edi u.

Epikur ta'limotini rimlik **Lukretsiy Kar** (eramizdan avvalgi 99-55 yillar) davom ettirgan. U «Narsalarning tabiati to'g'risida» nomli asari bilan mashhur bo'lgan. Yashashdan maqsad, deb yozgan Lukretsiy, baxtli hayot kechirishdan iboratdir. Jamiyat ham, xuddi tabiat singari, o'z qonunlariga ega hamda tabiat qonuniyatlariga tayangan holda rivoj topadi, deydi u. Uning falsafiy qarashlari o'z davri va o'rta asr falsafasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Uning fikricha, modda (materiya) — abadiy, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib, shaklini o'zgartirib yashash — uning xossasi. Olamdagi barcha narsalarikkiga — oddiy va murakkab turga bo'linadi.

2. O'rta asrlar g'arb falsafasi.

Yevropa tarixida o'rta asrlar davri deyarli to'la ming yilni (Rim imperiyasining parchalanish lahzasidan Uyg'onish davrigacha) o'z ichiga oladi. O'rta asrlar Yevropasi feodalizmning qaror topishi bilan belgilanadiki, u xristian dunyoqarashidan foydalandi. Xristian dini jamiyatda asosiy mafkuraga aylanib, cherkovning esa siyosiy va mafkuraviy ta'siri ko'pchilik G'arbiy Yevropa mamlakatlarida haddan ziyod kuchayib, insoniyat fikrining barcha sohalari — falsafa, huquqshunoslik, sana'at va madaniyat sohalari, tabiatshunoslik sohalarida ham diniy dogmatik aqidalar hukmronlik qiladi. Ayniqsa, bu davrda falsafa

tajribaviy bilimlardan, amaliyotdan ajralib, dinning hizmatkoriga, sxolastikaga, ilohiyotga aylantiriladi.

Ma'jusiyluk dini va falsafasi, hamda bid'atchilarning adashishlariga qarshi kurashiga **apologetlar** (yunoncha apologiya-himoya) deb atalgan qadimgi antik davrning keyingi xristian yozuvchilari bel bog'ladilar. Apologetlarning eng ko'zga ko'ringan vakili **Kvint Tertullian** (160-220) edi. Falsafa va xristianlikni bir biriga to'g'ri kelmasligiga dalillar keltirib, u shundan kelib chiqdiki, xristianlik falsafiy asosga ehtiyoji yoq. Iso dan keyin hech qanday bilimga qiziqishning keragi yo'q, Injildan keyin esa hech qanday tadqiqotning zaruriyati yo'q. E'tiqodni oliy haqiqat sifatida tushunish falsafani ilohiyotga bo'ysundirish uchun asos bo'ldi.

Apolog etika orqasidan xristian mafkurachilarining asarlari bo'lgan **patristik** **apaydo** bo'ldiki, uning mualliflari bid'atchilarga qarshi kurashga katta hissa qo'shganliklari uchun avliyolik darajasiga ko'tarildilar va cherkov otalari deb ataldilar. «Cherkov otalari» ning eng yirigi **Avreliy Avgustin** (354-430) edi. Avgustin falsafasining markazida Xudo turadi. Xudo oliy mohiyat bo'lib, eng oliy ezgulikdir. Inson esa o'zida tabiatning moddiy jismlarini –o'simliklar va hayvonlarni birlashtiradi va aqliy ruh, hamda ozod irodaga egadir.

O'rta asrlardagi falsafiy tizimlarining ko'pchiligi idealistik yo'nalishga ega ediki, falsafa o'zining butun qudratli dastgohi bilan xristianlikning diniy aqidalarini tasdiqlash uchun xizmat qilishi lozim edi. Ana shunday falsafa «**sxolastika**» (lotincha-maktab yoki olim) nomini oldi.

Nominalizm o'sha davr shahar savdogarlari va hunarmandlari manfaatlarini ifodalovchi, ularning cherkovning mutlaq hokimiyatiga qarshi kurashini aks ettiruvchi, o'z davrining progressiv falsafiy oqimidir.

Realizm esa cherkov va yirik feodallar manfaatini ifoda etuvchi, ular dunyo qarashi bo'lgan sxolastik, reaksiy falsafiy oqim hisoblanadi. Bu ikki oqim o'rtasidagi kurash umumiy tushunchalar, «universallar» ning mohiyatini aniqlashdan kelib chiqadi. Realistlarning fikricha, umumiy tushunchalar, ya'ni «universallar» - real mavjud bo'lib, ular mustaqil g'oyaviy mohiyat sifatida

predmetlarga, kishilarga nisbatan birlamchidir. Moddiy olamning predmetlari esa shu umumiy tushunchalarning shakliy ifodasi, ikkilamchidir. Umumiy tushunchalar mangu bo'lib, predmet va hodisalar vaqtincha va o'tkinchidir.

3. Uyg'onish davri va yangi davr falsafasi

XIV va XVI asrlar G'arbiy Yevropada Uyg'onish davri, deb yuritiladi. Bu uyg'onish dastlab Italiyada, so'ngra Yevropadagi boshqa mamlakatlarda vujudga keladi. Bu davrda dinga qarshi fanning, sxolastik falsafaga qarshi yangi uyg'onish davri falsafasining kurashi yuzaga keldi. Ana shu tarixiy sharoitda o'z asarlari va yangi kashfiyotlari bilan bir qancha ijodkorlar, olimlar va faylasuflar yetishib chiqadi.

Ana shunday kishilardan biri polyak olimi **Nikolay Kopernik**dir. U o'zining 25 yil osmon jismlari ustida olib borgan kuzatishlarining natijasi sifatida 1543 yilda e'lon qilgan «Osmon jismlarining gir aylanishi» nomli kitobida Aristotel va Ptolomeyning cherkov rasmiy ravishda qabul qilgan geotsentrik nazariyasini o'zining ilgari surgan geliotsentrik gipotezasi bilan rad etadi.

Ma'lumki, geotsentrik nazariyaga ko'ra, olamning markazi Yer, u harakatsiz, boshqa barcha planetalar, yulduzlar, hatto Quyosh ham uning atrofida harakat qiladi va aylanib turadi. N.Kopernikning yaratgan geliotsentrik gipotezasiga ko'ra, Yer olamning markazi emas, uning harakatsizligi noto'g'ri. Aksincha, Yer, avvalo, o'z o'qi atrofida harakat qiladi, bu harakat tufayli kun bilan tun yuzaga keladi; ikkinchidan, olamning markazida Yer emas, Quyosh turadi, uning atrofida boshqa sayyoralar bilan birga, Yer ham aylanadi, natijada, Yerda to'rt fasl sodir bo'ladi. Kopernikning bu kashfiyoti tabiatshunoslik fanlarida juda katta voqea bo'lib, bu tabiatshunoslik fanlari rivoji uchun, dunyoviy ilmlarning rivojlanishi uchun tabiiy ona zamin rolini bajaradi.

Uyg'onish davri vakillaridan yana biri **Jordano Brunodir**. Uning ta'limoticha, moddiy olam birlamchi bo'lib, ong ikkilamchidir; moddiy olam mangu va abadiydir, uni hech kim yaratgan emas, moddiy olam mangu, u so'ngsiz va cheksiz, u cheksiz turlarda ifoda etiladi, undagi barcha predmet va hodisalar bir-birlari bilan bog'liq va aloqadorlikda. Olamda Quyosh sistemasidan

tashqari yana sonsiz-sanoqsiz dunyolar mavjud. Olam bepoyon. Yer esa ana shu bepoyon olamning zarrasidir. Brunoning bu qarashlari uchun uni Rim katolik cherkovi dahriylikda ayblab, Rimda olovda yondirib o'ldiradi.

Nikolay Kuzanskiy (1401-1464) ta'limotida inson bilimining kuch-qudrati ta'kidlandi; insonning o'zi ijodiy aqliy faoliyatining («inson uning aqlidir») vositasida qandaydir xudoga o'xshash ekanligiga ishora qilindi. Kuzanskiyning faoliyatida dialektika unsurlarini ham topish mumkin.

Uyg'onish davrida N.Kopernik J.Bruno izdoshi sifatida maydonga chiqqan buyuk olim, matematik, mexanik, fizik, astronom **Galileo Galiley** ning falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlari ham muhim rol o'ynaydi. U N.Kopernik gipotezasi, ya'ni Yer o'z o'qi atrofida va Quyosh atrofida aylanishi g'oyasini qizg'in targ'ib qilib, u haqda o'zining «Dunyoning ikki sistemasi haqida suhbat» asarini yozadi. Bu asarda dinning va cherkovning diniy-sxolastik aqidalarini keskin tanqid qilib chiqadi.

Shunday qilib, Uyg'onish davrida tabiatni, olamni bilishning o'sishi, fanning din hukumronligidan ozod bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

XVII –XVIII asrlar G'arbiy Yevropa taraqqiyotida yangi davr hisoblanadi. Bu davr Yevropa mamlakatlarida O'rta asrchilik feodal munosabatlari tugatilib, kapitalistik munosabatlar to'liq qaror topadi va rivojlana boshlaydi. Yangi geografik kashfiyotlar qilinadi. Natijada, tabiatshunoslik bilimlari, mexanika, matematika, fizika, kimyo, astronomiya sohalarida yangi-yangi tadqiqotlar olib borilib, O'rta asr sxolastikasi va diniy aqidalarni uloqtirib tashlanadi. Yangi ilmiy dunyoqarash shakllana boshlaydi.

Yangi zamon moddiy unchiligining otasi ingliz faylasufi **Frensis Bekon** (1551-1626) edi. Uning fikricha, falsafa avvalo amaliy xususiyatga ega bo'lmog'I lozim: agar u sxolastikachiligida qolsa, u haqiqiy bo'la olmaydi. Shuning uchun ham yangi fan bo'lgan tabiatshunoslikning tajribaviy usulini ishlab chiqish Bekongagina nasib etdiki, u unda insonning tabiat ustidan kelajakdagi kuch-qudrati va hokimiyatining garovini ko'rdi. Ammo bunday hokimiyatga faqat

uning qonunlari ketidan boribgina erishish mumkin. Fanlarning xulosalari aniq dalillarga tayanishi va undan keng umumlashmalarga ko'tarilishi lozim.

Yangi zamon ratsionalizmining asoschisi bo'lgan **Rene Dekart** barcha fanlar uchun umumiy bo'lgan usulni ishlab chiqish vazifasini qo'ydi, u ko'p hollarda bilimlar natijasini belgilab beruvchi inson aqlida borligi taxmin qilingan «tug'ma g'oyalar» yoki aksiomalar deb atalgan narsalarni taqozo etar edi. Tug'ma aksiomalar qatoriga u matematika va mantiqning ko'pchilik qoidalarini qo'ydi, masalan, «to'g'ri to'rtburchak to'rtidan ko'proq tomonlarga ega emas». Dekartning tabiatga qarashlari mexanistik xususiyatga ega.

Nemis mumtoz falsafasining asoschisi XVIII asr nemis burjuaziyasining mafkurachisi – bu **Immanuel Kant** (1724-1804) dir.

Kantning falsafiy qarashlarining rivoji, asosan ikki davrga bo'linadi: birinchi davri – tanqidiy davrgacha bo'lgan falsafiy qarashlari (1770 yilgacha); ikkinchisi - «tanqidiy davr» yoki «transendental davr» falsafiy qarashlari. Tanqidiy davrgacha bo'lgan davrda Kant yozgan eng yirik asar – bu «Butun umumiy tabiiy tarix va osmon mexanikasi nazariyasi» asari bo'lib, u asosan tabiatshunoslik fanlarining falsafiy muammolariga bag'ishlangan. Uning qarashicha, Quyosh sistemasi (Quyoshning o'zi ham) dagi planetalar dastlabki «tumanliklar»ning quyuqlashuvidan evolyutsion yo'l bilan tabiiy ravishda kelib chiqadi. Kant o'z falsafiy qarashlarining ikkinchi davri-tanqidiy falsafa davrida u tabiatshunoslik fanlari falsafasidan falsafaning bilish nazariyasiga o'tadi. Kant o'zining bu davrida «Sof aqlni tanqid» (1781 y) «Amaliy aqlni tanqid» (1788 y) «Muhokama qobiliyatini tanqid» (1790) «Prolegamenlar» (1783y) asarlarini yozadi.

Nemis mumtoz falsafasining eng yirik vakili **Georg Vilgelm Fridrix Hegel** (1770-1831) dir. U falsafada ob'ektiv idealistdir. Hegelcha birlamchi narsa – budunyoruhi, insondan va olamdan tashqarida alohida mavjud bo'lgan mutlaq g'oyadir. Moddiy olam esa uning mahsuli, ikkilamchi, ya'ni u dunyo ruhining namoyon bo'lishidir, uning gavdalanishidir. Uningcha bu dunyo ruhi, ya'ni mutlaq g'oya yaratuvchi bosh sabab bo'lib, tabiatdagi va jamiyatdagi har bir

buyum yoki hodisa uning hosilasi, ya'ni shakllardan iborat, ularning mazmunlari esa ana shu dunyo ruhi yoki dunyo aqlidir.

Nemis mumtoz falsafasi taraqqiyotida **Lyudvig Feyerbax** (1804-1872y.) falsafiy qarashlari muhim o'rin tutadi. L.Feyerbax nemis mumtoz falsafasining so'nggi vakilidir. U nemis mumtoz falsafasida I. Kant va V. Gegellardan farqli boshqa falsafiy yo'nalishda ijod qildi. Uning fikricha, tabiatni hech kim yaratmagan, u azaliy bor va abadiy mavjud bo'ladi. Inson esa tabiatning mahsuli, tabiat rivojlanish bilan paydo bo'lgan oliy mavjudot. Olam tabiatdangina iborat, tabiat esa materiya sifatida hech qanday mistik yoki ilohiy kuchga bog'liq emas.

4. Eng yangi davr falsafasi

Ma'lumki, hamma zamonlarda ham falsafa o'z davrining dolzarb muammolarini hal etish yo'llarini topishga harakat qilgan. XX asrga kelib insoniyat fan va texnika taraqqiyoti sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Lekin shu bilan birga, aynan ushbu asr ijtimoiy silsilalar, ikkita jahon urushi, ekologik inqiroz, og'ir yo'qotishlar davri ham bo'ldi. Bu esa falsafiy fikrning taraqqiyotida o'z aksini topdi, uning turli yo'nalish va oqimlari shug'ullangan muammolarning salmog'i, maqsad-muddaosini aniq belgiladi.

Bugungi kunga kelib ko'pgina falsafiy oqimlar o'zlarining an'anaviy falsafaga aloqador ekanliklarini hamda ulardan farq qilishlarini ta'kidlash maqsadida, nomlariga «**neo**», ya'ni yangi, zamonaviylashgan degan ma'noni anglatuvchi qo'shimchani qo'shganlar. Masalan, neopozitivizm, neotomizm va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Fanning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilash va unga nisbatan munosabatga qarab, zamonaviy falsafiy ta'limotlarni asosan ikki yo'nalishga ajratish mumkin. Ulardan biri — **ssiyentizm** (lotsciyentia — fan) ya'ni fan mavjud barcha ijtimoiy muammolarni hal etishi mumkinligini ilm-fan taraqqiyotining doimiy ijobiyligini asoslovchi falsafiy dunyoqarash.

Ikkinchisi — **antissiyentizm**, ya'ni fan taraqqiyoti jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. **Neotomizm** — XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo'lib, u o'rta asrlardagi (XIII asr) Foma

Akvinskiyning ta'limotini qaytadan tikladi. U (neo — yangi, tomizm — «foma», transkripsiyada «toma» bo'lib o'zgargan) Foma Akvinskiyning yangi, zamonaviy ta'limoti demakdir. Bu ta'limotga ko'ra, ilm va e'tiqod o'rtasida to'la muvofiqlik, uyg'unlik bor. Ular bir-birini to'ldirib turadi, har ikkisi ham xudo tomonidan berilgan xaqiqat.

Neokantchilik XIX asr o'rtalarida shakllangan va XX asr boshlarida rivojlangan edi. Uning vakillari I. Kant o'z davrida qo'ygan ilmiy bilishning umumiyliigi va zaruriyati haqidagi hamda tajribaviy aql haqidagi muammolarni tahlil etadilar. Bu ta'limotga ko'ra, inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun har bir insonning hayoti o'zi uchun eng oliy maqsaddir. Shunday ekan, inson hayotidan kimdir o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita sifatida foydalanishi mumkin emas.

Neopozitivizm oqimining yirik namoyandalari Karnap, Ayer, Rassel, Vitgenshteyn va boshqalardir. Neo — yangi; pozitiv — ijobiy degan ma'noni anglatadi. Nepozitivizm Farbda XIX asrning 20 — yillarida paydo bo'lgan, asoschisi XIX asrda yashagan Ogyust Kontdir. Uning fikricha, falsafa aniq fanlar taraqqiyotisiz mavjud bo'la olmaydi. Falsafa — ob'ektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilayotgan ilmiy, ya'ni ijobiy (pozitiv) xulosalarni o'rganib, tahlil qilib ularni mantiqan bir tartibga, sistemaga solishi kerak.

Strukturalizm (asosiy vakillari Levi — Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va hodisaning strukturasini bilish uning ob'ektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblaydilar. **Germenevtika** — qadimgi yunon afsonalaridagi xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun yerga yuborilgan elchisi — Germes nomi bilan ataladi. Demak, germenevtika — tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalariga asosiy diqqatini qaratadi.

Jamiyat, bu ta'limotga ko'ra, kishilar o'rtasidagi muloqotga asoslanadi. Muloqot jarayonida madaniy, tarixiy va ilmiy qadriyatlar yaratiladi. Shuning uchun falsafaning asosiy vazifasi hayotning ma'nosini, mohiyatini kishilar o'rtasidagi muloqotdan qidirishdan iborat.

XX asrning 30 — yillariga kelib **«ekzistensial falsafa»** rivojlandi. Ekzistensiya — tom ma'noda mavjud bo'lmoq demakdir. Ekzistensializm nihoyatda xilma-xil yo'nalishdagi ta'limotlarni insonning ma'naviy dunyosi, inson taqdiri, erkinligi g'oyalari asosida umumlashtirdi. Ekzistensializm vakillari asosan ikki yo'nalishga bo'linadilar. Biri — dunyoviy (Xaydeger, Sartr, Kamyu) va ikkinchisi diniy (Yaspers, Marsel) bo'lib bunday bo'linish nisbiydir. Xaydeger, Sartr, Kamyularning ta'limotiga ko'ra, inson o'zining yaratish jarayonini o'zi erkin amalga oshiradi. Insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan qaysi birini tanlashda u erkindir.

Diniy ekzistensializm vakillari Yaspers va Marsel fikricha, inson o'z erkin faoliyati davomida xudoga qarab unga yetishish uchun, kamolot tomon harakat qiladi.

Yangi zamon falsafasining yana bir oqimi **pragmatizm** AQSh dakeng tarqalgan. Umuman olganda, «pragmatizm» foydali faoliyatga undovchi, «foydaga» qanday qilib erishish yo'llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta'limotdir. Bunda «foйда» tushunchasi «tajriba», «haqiqat» tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.

Pragmatizm falsafasining maqsadi insonga olamda o'z o'rnini topishga yordam berishdan iborat. Dyui tajriba natijasining «foydali» tomoniga e'tiborini qaratadi. Djems fikricha, haqiqat foydali bo'lgan narsa yoki hodisadir.

Tayanch so'zlar:

Antik falsafa, ellinizm, xristianlik, appologetika, patristika, sxolastika, sofistlar, nominalizm, realizm, empirizm, ratsionalizm, ssiyentizm, antissiyentizm, renessans, empriokrititsizm, hayotfalsafasi, psixoanaliz, neotomizm, ekzistensializm, neokantizm, neopozitivizm, germenevtika, pragmatizm, strukturalizm

3-Mavzu bo'yicha qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar:

1-topshiriq

“Empirizm” ta’limoti. SWOT – tahlil


S	Kuchli tomoni	
W	Ojiz tomoni	
O	Imkoniyatlari	
T	Xavflar	

“Ratsionalizm” ta’limotiga SWOT – tahlil

S	Kuchli tomoni	
W	Ojizt omoni	
O	Imkoniyatlari	
T	Xavflar	

2-topshiriq

“Nima uchun” texnologiyasi asosida muammoning sabablarini aniqlang



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Milet va Eley falsafiy maktablari haqida nimalarni bilasiz?
2. Xristian g'oyalarini targ'ib qiluvchi va himoyalovchi ta'limotlarni ayting.
3. Nominalizm va realizm o'rtasidagi kurash haqida so'zlab bering.
4. G'arb uyg'onish davri falsafasining o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati haqida gapirib bering.

5. Empirizm va ratsionalizm ta'limotlarining mohiyati nima?
6. Nemis klassik falsafasi haqida nimalarni bilasiz?
7. Ssiyentizm va antissiyentizm ta'limotlari fan-texnika taraqqiyoti to'g'risida qanday fikrlar bildirmoqda?
8. Hozirgi zamon falsafiy ta'limotlarida inson muammosiga yondashuv qanday?

Mavzu bo'yicha testlar:

1. Milet maktabining asoschisi:

- A) Fales V) Ksenofan
S) Anaksagor D) Diogen

2. Qadimgi Yunon falsafasida atomlar nazariyasining asoschisi kim?

- A) Levkipp; V) Lukretsiy Kar;
S) Epikur; D) Geraklit

3. Sofizm falsafasining asosiy mohiyati nimada?

- A) Ilohiyotga erishish va u bilan qo'shilish V) Ma'naviy erkinlikka erishish
S) Oliy haqiqatni izlab topish D) Tarki dunyochilik

4. Dunyoning asosini olovdan iborat deb biluvchi faylasuf kim?

- A) Farobiy V) Xorazmiy
S) Geraklit D) Demokrit

5. Inson irodasi, ruhiyati, xis-tuyg'ulariga asosiy e'tibor qaratuvchi falsafiy ta'limot:

- A) irratsionalizm V) volyuntarizm
S) nigilizm D) antissiyentizm

6. "G'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi" ta'limotining asoschisi:

- A) Arastu V) Aflotun
S) Anaksagor D) Antisfen

7. Falsafa aniq fanlar bergan ijobiy hulosalarni o'rganib tartibga , sistemaga solish kerak deb qarovchi ta'limot

- A) neoplatonizm; V) neotomizm;
S) neopozitivizm; D) neokantizm.

8. Markaziy tushunchasi inson mavjudligi hisoblangan falsafiy yo‘nalish:

- A) strukturalizm; V) ekzistensializm;
S) neopozitivizm; D) neokantizm.

9. Empirizm ta’limotining mohiyati nima?

- A) Hissiy tajribani bilishning birdan bir manbai deb hisoblaydi
V) Aqlni bilishning birdan bir manbai deb hisoblaydi
S) Bilishda sezgilar va aqlning rolini mutlaqlashtirmaydi
D) Bilishda tajriba usullarini rad etadi

10. Yevropa uyg‘onish davri mutafakkirlarini ko‘rsating

- A) Mirandolla, Kuzanskiy, Bruno; V) Kopernik, Kepler, Geraklit
S) Bruno, Fales, Zenon; D) Galiley, Parmenid, Kamyu

**4 – MAVZU: BORLIQ – FALSAFANING FUNDAMENTAL
KATEGORIYASI.**

Reja:

- 1. Borliq tushunchasi va uning shakllari.**
- 2. Falsafada substansiya va materiya muammosi.**
- 3. Harakat, rivojlanish, makon va vaqt tushunchalari va ularning o‘zaro aloqadorligi**
- 4. Tabiat falsafasi**

1. Borliq tushunchasi va uning shakllari.

Falsafa fanining borliq haqidagi masalalarni o‘rganuvchi qismi **ontologiya** deb ataladi. Ontologiya so‘zi yunoncha *ontos* (mavjudlik) *valogos* (ta’limot) so‘zlarining birikmasidan tashkil topgan bo‘lib, «mavjudlik haqidagi ta’limot», ya’ni borliq haqidagi fan ma’nosini ifodalaydi.

Bu atama fan tarixida birinchi bor 1513 yil *R.Gokleniusning* «Falsafa lug‘ati»da, so‘ngra, *X.Volf* (1679 -1754) ning falsafaga oid darsligida qo‘llanilgan.

Xo‘sh, borliq o‘zi nima? Borliq tushunchasi nimani bildiradi? Nima uchun borliq tushunchasi falsafa paydo bo‘lgandan beri ya’ni qadimgi dunyodan bugungi kungacha faylasuflar e’tiborini o‘ziga jalb qilib keladi? Bu savollarga

javob berish uchun biz borliqning inson va insonlar hayoti bilan bog'liq real ildizlarini yoritishimiz lozim.

Borliq tushunchasi atrofida faylasuflar har doim keskin munozaralar, tortishuvlar, bahslar olib borishgan va bu bahslar haligacha davom etmoqda. Xullas, «borliq» falsafadagi eng umumiy tushunchadir. Borliqqa aksil tushuncha sifatida «yo'qlik» tushunchasini ishlatishadi. Yo'qlik hech nimani, ya'ni nazarda tutilgan joyda hech nima mavjud emasligini anglatadi.

Borliq ilgari mavjud bo'lgan, hozir mavjud va kelajakda mavjud bo'ladigan *ob'ektiv hamda sub'ektiv reallik* ni ham o'ziga qamrab oladi. Ya'ni tabiat, inson, fikrlar, g'oyalar, jamiyat hammasi turli hakllarda mavjuddir. Ularning barchasi mavjud bo'lganligi uchun ham yaxlit yagona borliqni tashkil etadi.

Yo'qlik esa nisbiy mazmundag itushuncha bo'lib, qayerdadir yoki nimadadir, nimaningdir ayni paytda mavjud emasligini ifodalaydi.

Moddiy va g'oyaviy borliq. Atrofimizni o'rab turgan dunyo ikki xil reallikdan tashkil topgandir. Ob'ektiv reallik va sub'ektiv reallik. Ongimizdan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan reallik *ob'ektiv reallik* deyiladi. Bu tushunchani materialistlar materiya tushunchasi bilan aynan bir ma'noda ishlatishadi. Reallikning inson ongi bilan bog'liq bo'lgan va ongning mahsuli hisoblangan qismi *sub'ektiv reallik* deyiladi. Ob'ektiv reallik moddiy borliq tushunchasiga mos kelsa, sub'ektiv reallik esa borliqning g'oyaviy shakliga muvofiq keladi. Materializm vakillari borliqning g'oyaviy shakli moddiy shaklining maxsuli, deb hisoblashadi. Idealizm vakillari esa moddiylik g'oyaviylikning ijodi yoki g'oyaviylikning namoyon bo'lish shaklidir deb hisoblashadi

Aktual va potensial borliq. Aktual borliq borliqning ayni paytda va shu joydagi voqelikda namoyon bo'lib turgan va shu voqelik bilan aloqadorlikdagi qismi. Bu ob'ektiv reallik tushunchasiga mos keladi, chunki ob'ektiv reallik borliqning shu joyda berilgan va shu onda amal qilayotgan qismidir. Aktual borliqning hali voqelikka aylanmagan va kelgusida voqelikka aylanadigan murtak holdagi qismi potensial borliq deyiladi.

Real va virtual borliq. Borliqning biz uchun mavjud qismi real borliq deyiladi. Real borliqni naqd borliq ham deyish mumkin. Ammo borliqning shunday qismi ham borki, uning bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Borliqning bunday qismi ehtimoliy mazmunga ega. U hali reallikdan uzoqda. Mana shunday mazmundagi borliq virtual (lot. *virtuales* - ehtimol) borliq deyiladi.

Tabiiy va ijtimoiy borliq. Tabiiy borliq deganda odatda atrofimizdagi jismoniy narsalar (jismlar), jarayonlar, tabiatning holatlari nazarda tutiladi. Tabiiy borliq ikki qismga ajraladi: birinchisi – azaliy tabiiy borliq, ya'ni tabiatning tabiiy borlig'i. U insondan ilgari insonning ishtirokisiz mavjud bo'lgan. Buni *birlamchitabiat* deb ham atashadi; ikkinchisi – inson ishtiroki bilan vujudga kelgan narsalar (jismlar), hodisa va jarayonlarni o'z ichiga oluvchi xosilaviy tabiiy borliq. Uni *ikkilamchi tabiat* deb ham atash mumkin.

Ikkilamchi tabiat doirasida borliqning quyidagi ko'rinishlarini kuzatish mumkin:

- inson borlig'i – insonning narsalar dunyosidagi borlig'i va maxsus insoniy borliqdan iborat;
- ma'naviy borliq – individuallashgan va ob'ektivlashgan (individuallikdan tashqaridagi) ma'naviy borliqdan iborat;

2. Falsafa dasubstansiya va materiya muammosi.

Borliqni shakllarga ajratishda uning asosida, mohiyatida nimalar yotishiga e'tibor qaratish lozim. Shu tariqa falsafada **substansiya** kategoriyasi shakllangan. Substansiya (lotin. *substantia* - mohiyat, asosida yotuvchi nimadir) muayyan narsalar, voqealar, hodisalar va jarayonlar xilma-xilligining ichki birligida namoyon bo'luvchi mohiyat.

Substansiya deyilganda falsafada dastlabki paytlarda borliq, tabiat, jamiyat, inson va dunyodagi barcha narsa va hodisalarning asosida yotuvchi moddiy yoki ruhiy mohiyat anglangan. O'rta asr Sharq falsafasi namoyandalari al - Kindiy, Zakariyo Roziy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd asarlarida substansiya deb hamma narsaning moddiy yoki ma'naviy asosi, mohiyati tushunilgan. Substansiyaga qarama-qarshi tushuncha «*aksidensiya*» deb atalgan. Aksidensiya (lot. *accidentia*

- o'tkinchi, tasodifiy) narsa va hodisalarning o'tkinchi sifatlarini ifodalaydi. Olamning tuzilishini tushunish yana bir tushuncha «substrat» kategoriyasi bilan ham bog'langandir. *Substrat* (lot. *substratum* - asos, to'shama, taglik) narsa va hodisalarning umumiy moddiy asosi; nisbatan oddiy va sifat jihatdan elementar bo'lgan moddiy yoki g'oyaviy tuzilmalar majmuasi. Ayrim falsafiy konsepsiyalarda substrat deb dunyoni tashkil etuvchi mutlaq elementar va bo'linmas asoslar tushunilgan. Borliqning asosida yotuvchi birlamchi mohiyatni axtarish – *substansial yondashuv* bo'lsa, har qanday sistemaning, umuman borliqning nimalardan bunyod qilinganligini, tarkib topganligini, tashkil topganligini, «qurilganligini» axtarish *substrakt yondashuvdir*.

Materiya tushunchasi. *Materiya moddiy ob'ektlarni birlashtiruvchi tushuncha.* Xususan olingan damateriyaning o'zi yo'q, balki dunyoda materiyaning ayrim predmet yoki biror konkret buyum shaklidagi ko'rinishlari uchraydi. Materiya esa materiyaning hamma konkret ko'rinishlariga xos bo'lgan barcha universal xususiyatlarini aks ettiruvchi umumiy tushunchadir. Bu dunyoda «umuman odam» bo'lmasdan, ayrim odamlar uchrashiga o'xshash fikrdir.

Materiyaning falsafiy tushunchasi barcha narsalar voqeligi, moddiy voqelikni o'ziga qamrab oluvchi, yalpi umumiylik (universallik) belgilariga egalik qiluvchi, butun ob'ektiv reallikni ifodalovchi kategoriyadir.

Materiyaning tashkiliy-struktura darajalari. Materiyaning tashkiliy-struktura darajalari moddiy sistemalarning tashkiliy jihatdan uyushganligi va faolligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Ular: *noorganik* daraja («*notirik tabiat*»), *organik* daraja («*tirik tabiat*») va *sotsial* daraja («*jamiyat*») deb ataladi.

Materiyaning miqyosiy-struktura darajalari. Bu moddiy sistemalarning bir-biridan mazkur sistemada hukmronlik qiluvchi fundamental kuchlar bilan farq qiluvchi darajalardir. Ular: *mikrodunyo*, *makrodunyo* va *megadunyo* deyiladi.

Hamma zarrachalar - modda, hamma antizarrachalar - antimoddadir. Materiyaning nomodda simon ko'rinishiga turli xil fizik maydon va nurlanishlar kiradi. Modda bilan antimodda to'qnashganda materiyaning annigilyatsiya (lot. *annihilatio* - yo'qolishi, hech nimaga aylanishi) hodisasi sodir bo'ladi.

3. Harakat, rivojlanish, fazo va vaq ttushunchalari va ularning o‘zaro aloqadorligi

Harakat. Borliqning mavjudligi undagi o‘zgarishlar bilan belgilanadi. Agar o‘zgarish bo‘lmasa, borliqning bor yoki yo‘qligi noma’lumligicha qolardi. Har qanday o‘zgarish - harakatdir. O‘zgarishlar nafaqat moddiy ob’ektlarga, balki ma’naviy, g‘oyaviy ob’ektlarga ham xosdir. Har qanday (moddiy yoki g‘oyaviy) ob’ektning mavjudligi undagi harakat va o‘zgarishlar tufayli namoyon bo‘ladi. Shu sababli *harakat borliqning asosiy mavjudlik usulidir*. Falsafiy adabiyotlarda moddiy borliqning quyidagi harakat shklarini ajratib ko‘rsatishadi: 1) moddiy harakatning eng sodda shakli – *mexanik harakat*; 2) *fizik harakat*; 3) *ximiyaviy harakat*; 4) biologik harakat; 5) *sotsial (yoki ijtimoiy) harakat*.

Fazo va vaqt – borliqning tuzilishi sifatida Borliq tuzilishga ega, ya’ni u strukturali. Borliqning asosiy tuzilishi shakli (strukturaviy shakli) uning fazo va vaqtda mavjudligi bilan izohlanadi.

Fazo va vaqt – borliqning umumiy yashash shakllari bo‘lib, fazo dunyoni tashkil etuvchi ob’ektlar va ularning tarkibiy nuqtalarining o‘zaro joylashish tartibi, ko‘lami va miqyosini ifoda etadi, vaqt esa dunyoda sodir bo‘luvchi hodisa va jarayonlarning ro‘y berish ketma-ketligi tartibi va davomiyligini ifodalaydi. *Substansi alkonsepsiya* da fazo va vaqtning absolyut jihatlari, relyatsion konsepsiyada esa ularning nisbiy jihatlari absolyutlashtiriladi.

Tayanchso‘zlar:


Ontologiya, borliq, mavjudlik, reallik, ob’ektivreallik, sub’ektiv reallik, moddiy borliq, ma’naviy borliq, inson borlig‘i, aktual borliq, potensial borliq, virtual borliq, sotsial borliq, substansiya, substrakt, materiya, atribut, harakat, makon, vaqt, substansional konsepsiya, relyatsion konsepsiya.

4-Mavzu buyicha qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar:

1-topshiriq

Klaster tuzish qoidalar:

1. Hayolingga nima kelsa shuni yoz. Fikrlarning sifatiga e'tibor berma.
2. Ajratilgan vaqt tugamaguncha yozishni to'xtatma.
3. Agar fikrlar hech kelavermasa to yangi fikrlar kelguncha qog'ozga rasmlar chiz.
4. Iloji boricha ko'proq bog'lanishlarni qurishga harakat qil. Fikrlar sonini va ular orasidagi bog'lanishlar sonini chegaralama.



2-topshiriq

«Blits-so'rov» jadvali so'rov vaqtida to'ldiradi

№	Savollar	Javoblar
1.	Harakat nima?	
2.	Harakatning qanday shakllari mavjud	
3.	Biologik harakatga misollar keltiring	
4.	Ijtimoiy harakat deganda nimani tushunasiz?	
5.	Inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nimada?	
6.	Nima uchun ekologik muammo global muammolardan biri hisoblanadi?	

3-topshiriq

Jadvalni to'ldiring

<i>Borliq atributlari</i>	<i>Falsafiy ta'rifi</i>	<i>Individa lhususiyatlari</i>	<i>Umumiy hususiyatlari</i>
Fazo			
Vaqt			

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Falsafada borliq va substansiya masalasi qanday ahamiyatga ega?
2. Materiya va uning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Falsafada harakat va materiyaning bir-biriga bog'liqligi qanday?
4. Borliqning mavjudlik shakllari haqida nimalarni bilasiz?
5. Hozirgi zamon fani borliqning bir butunligi to'g'risida qanday fikrda?

Mavzu bo'yicha testlar:

1. Borliq masalalari bilan shug'ullanuvchi falsafiy fan sohasi:

- A) Ontologiya V) Gnoseologiya
S) Aksiologiya D) Praksiologiya

2. Borliq nima?

- A) Borliq – narsalar, hodisalarning yaxlit bir butunligi
V) Borliq – materiyadir
S) Borliq – tabiatning narsalari, o'simlik olami va hayvonot dunyosidir
D) Borliq – jamiyat, undagi hodisa va jarayonlardir

3. Butun borliq inson sezgilarining yig'indisidir deb qarovchi falsafiy oqim:

- A) ob'ektiv idealizm V) sub'ektiv idealizm
S) materializm D) sensualizm

4. Materiya tushunchasini izohlang

- A) Olamning moddiy birligini anglatuvchi tushuncha
V) Ob'ektiv reallikni ifodalovchi falsafiy kategoriya
S) Barcha narsa va hodisalarga xos bo'lgan umumiy hususiyatni belgilovchi mavhum tushuncha
D) Barcha javoblar to'g'ri

5. Borliqni bilim bilan qiyoslovchi faylasuf kim?

A) Demokrit V) Pifogor

S) Suqrot D) Arastu

6. Olamning asosi modda va ruhdan iborat deb qarash qaysi oqimga mansub?

A) dualizm V) deizm

S) materializm D) idealizm

7. Olamning oxiri va qiyomat kuni haqidagi diniy ta'limot?

A) evdemonizm V) esxatologiya

S) vahdoniyat D) teizm

9. Substansiya nima?

A) butun cheksiz dunyo borlig'i

V) olamdagi barcha narsalarning negizi

S) olamdagi narsa-hodisalarga berilgan nom

D) moddiy jismlarning miqdoriy muayyanligi

10. Fazo nima?

A) Jarayonlarning davomiyligi, hodisalarning ketma-ketlik tartibini ifodalovchi falsafiy tushuncha

V) Narsa-hodisalarning moddiy asosini ifodalovchi falsafiy tushuncha

S) narsa-hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlikni anglatuvchi falsafiy tushuncha

D) narsa—hodisalarning joylashish tartibi, ko'lami, egallagan o'rnini anglatuvchi falsafiy tushuncha

**5-MAVZU: OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH.
FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI**

Reja:

- 1. O'zaro aloqadorlik va rivojlanish tushunchalari.**
- 2. Falsafaning asosiy qonunlari.**
- 3. Kategoriya tushunchasi. Falsafa tarixida kategoriyalar tasnifi**
- 4. Falsafiy kategoriyalar.**

1.O'zaro aloqadorlik va rivojlanish tushunchalari.

Aloqadorlik va bog'lanishlar borliqning turli sohalarida turli-tuman shakllarda namoyon bo'ladi. Bular quyidagilardir: a) «elementar» zarralarning bir-birini taqozo qilishi va aks ta'siri shaklida; b) planetalarning bir-birini tortib va itarib turishlari shaklida. Organik tabiatda: tirik organizmlarning modda almashinuvi shaklida; o'simlik va hayvonot dunyosining o'zaro aloqadorligida; hayvonlar va odamlar o'rtasidagi munosabatlarda va h.k. Jamiyatda bo'lsa: jamiyat bilan tabiat o'rtasida; b) jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti o'rtasida; v) jamiyat ishlab chiqarish usulining tomonlari: ishlab chiqaruvchi kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasida; Tafakkurda bo'lsa: bir butun tafakkur jarayonida, tafakkur shakllari o'rtasida: tafakkur va borliq o'rtasida.

Rivojlanish-bu progressdan iborat o'zgarish bo'lib, keng ma'noda quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab ilgarilab boruvchi harakatdir. Rivojlanish shunday o'zgarishki, u narsa va hodisalarning quyi bosqichi o'rnini yuqoriroq bosqich olishidir. Rivojlanish boshqa jihatdan narsa va hodisalarning miqdor va sifat jihatdan tubdan o'zgarib, boshqa narsa va hodisalarga aylanishidir.

2. Falsafiy qonunlar

Falsafaning asosan quyidagi qonunlari mavjud:

1. Miqdor va sifat o'zgarishlari qonuni
2. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni
3. Inkorni inkor qonuni

Miqdor va sifat o'zgarishlari qonuni. *Bu qonunga ko'ra narsa va hodisalardagi sezilarli bo'lmagan miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin to'plana borib, taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida me'yorni buzadi va sakrash yo'li bilan tub sifat o'zgarishlariga olib keladi.*

Bizni qurshab turgan narsa va hodisalarni o'rganar ekanmiz, ular bir-birlaridan o'zlarining turli xususiyatlari bilan farqlanishlarini ko'ramiz. Bunda ularni bir-biridan farq qildiruvchi narsa — ularning sifatidir.

Sifat deb, narsa va hodisalarga nisbiy barqarorlik bag'ishlaydigan, ularning ichki muayyanligini ta'minlaydigan, bir narsa vahodisani ikkinchi narsa va

hodisadan farq qildiradigan barcha muhim belgi va xususiyatlarning birligiga aytiladi.

Narsa va hodisalardagi son, hajm, daraja kabi tomonlarning muayyanligi **miqdor** deb ataladi. Miqdor ham sifat kabi ob'ektiv mavjud bo'lib, u predmet va hodisalarning eng muhim tomonini ifodalaydi.

Me'yor narsa va hodisalarning miqdor va sifat birligini qamrab oluvchi chegaradir. Boshqacha qilib aytganda, sifat bilan miqdorning birligi me'yor, deyiladi. Me'yor narsa va hodisalarning shunday muayyanligiki, uning buzilishi narsa yoki hodisaning sifatining o'zgarishiga, uning boshqa sifatga o'tishiga, ya'ni boshqa narsa va hodisaga aylanishiga olib keladi.

Rivojlanish jarayonidagi bir-biridan farq qiluvchi bu ikki xil sifat va miqdor o'zgarishlari, uzluksizlik va uzilishning birligi sifatida namoyon bo'ladi. **Uzluksizlik** — bu narsa va hodisalarning rivojlanishidagi miqdor o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Bu uzluksiz rivojlanish davrida narsa va hodisalarning rivojlanishi miqdor o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. **Uzilish** esa shu narsa va hodisalar rivojlanishida endi yangi miqdor o'zgarishlari mumkin bo'lmay qolgan bir paytda yuz beradigan sifat o'zgarishlarini ifodalaydi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishini bilish faqat ilmiy bilish uchungina emas, balki amaliy faoliyat uchun ham katta ahamiyati bor.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni. *Bu qonunga ko'ra har bir narsa bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan va biri ikkinchisin iistisno etuvchi qarama-qarshi tomonlarga, kuchlarga ega. Bu qarama-qarshi tomon va kuchlar o'rtasidagi kurash taraqqiyotning manbaini ifodalab, eskining yo'qolishi va yangining paydo bo'lishiga olib keladi.*

Borliqdagi har bir narsa yoki hodisa qarama-qarshi tomonlarning birligidan iborat bo'ladi. Har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiluvchi va bir-birini o'zaro inkor etuvchi tomonlar, xususiyatlar va tamoyillarga ega. Masalan, elektr manfiy va musbat, tabiatda esa o'zaro tortilish va itarilish, tirik organizmda assimilyatsiya va dissimilyatsiya kabilar. Ana shu bir-birini taqozo etuvchi va

o‘zaro bir-birini inkor qiluvchi tomonlar o‘rtasidagi munosabat **ziddiyat** deb ataladi. Xuddi shu ziddiyat qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi kurash va rivojlanishning sababi, manbai bo‘lib hisoblanadi.

Taraqqiyot ziddiyatlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va bartaraf etilishi jarayonidan iborat ekanligini tushunib olish uchun ayniyat, tafovut, ziddiyat, qarama-qarshilik kabi tushunchalarning o‘zaro munosabatlarini bilib olish lozim. Narsa va hodisalardagi o‘zaro o‘xshash tomonlar birligi **ayniyat** deyiladi. Ayniylik narsa va hodisalarning tomonlari va xususiyatlarining birga mavjudligini ifodalaydi. Har bir narsa yoki hodisada ayniylik bilan birga, tafovut ham mavjud bo‘ladi. **Tafovut** narsa va hodisalar tomonlarining har birining farq qiluvchi jihatlarining ifodalanishidir. Borliqda o‘z qarama-qarshi tomonlariga ega bo‘lmaydigan narsa va hodisa bo‘lmaydi. Binobarin, ularda ayniyat ham, tafovut ham bo‘ladi.

Dialektikada **qarama-qarshilik** deb, borliqdagi narsa, hodisa va jarayonlarning o‘zaro bir-birini istisno qiladigan, shu bilan birga, bir-birini taqozo etuvchi tomonlari, tamoyillari va kuchlarining o‘zaro munosabatlari tushuniladi. Umuman, qarama-qarshiliklarni, ular orasidagi ayniyat, tafovut, ziddiyatlarni o‘rganish qarama-qarshiliklar birligi va kurashi haqidagi ta’limotning mohiyatini bilishga yordam beradi.

Jamiyat hayotiga xos ziddiyatlarni tahlil qilganda, yana **antagonistik** va **noantagonistik** ziddiyatlarni ham farq qilish zarur. Antagonistik ziddiyatlar jamiyatdagi manfaatlari bir-biriga tubdan zid bo‘lgan kuchlar, ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Noantagonistik ziddiyatlar jamiyatdagi manfaatlari bir-biriga mos keladigan yoki manfaatlarini o‘zaro kelishtirish mumkin bo‘lgan ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o‘rtasidagi ziddiyatlardir.

Keyingi vaqtda jamiyatdagi ziddiyatlarni hal qilishda qo‘llanilayotgan samarali usullardan biri **konsensus** (o‘zaro kelishuv) dir. Ziddiyatlarni o‘rganayotganda konkret sharoitni hisobga olish kerak.

Inkorni inkor qonuni. *Bu qonunga ko‘ra, ob‘ektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonida eskining yangi tomonidan inkor qilinishi*

ro'y beradi. Biroq eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi. Rivojlanish burama (spiralsimon) shaklda, ma'lum nisbiy takrorlanishla rasosida, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga qarab boradi. Taraqqiyotdagi vorislik va davomlilik inkorni inkor etish yo'li bilan amalga oshib boradi. Bu muammoni o'rganishni inkor tushunchasini mani ifodalashini aniqlab olishdan boshlash lozim.

Borliqning hamma sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi va yangi narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo'lib turadi. Bunday eskining yangi bilan almashinishi **inkor**, deb ataladi. «Inkor» atamasini falsafaga Gegel kiritgan. Uning nuqtai nazaricha, inkor g'oyaning, fikrning rivojlanish bosqichidir.

Dialektik inkorning muhim ikki jihati mavjud: birinchisi, eskining o'rniga yangining kelishi tabiiy-tarixiy jarayon bo'lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yangini eski bilan vorisiy bog'liq, ekanligini ham ifodalaydi.

3. Kategoriya tushunchasi. Falsafa tarixida kategoriyalar tasnifi

Kategoriya o'z inima? Bu so'z qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib: «izohlash», «tushuntirish», «ko'rsatish», degan ma'nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardan oqilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylangan.

Falsafa tarixida ularni birinchi bo'lib, Arastu ta'riflab bergan. U o'zining «Kategoriyalar» degan asarida ularni ob'ektiv voqelikning umumlashgan in'kosi sifatida qarab, turkumlashtirishga harakat qilgan. Xususan, uningcha quyidagi kategoriyalar mavjud: «mohiyat» (substansiya), «miqdor», «sifat», «munosabat», «o'rin», «vaqt», «holat», «mavqe», «harakat», «azob-uqubat». Bu turkumlashtirish, o'z vaqtida ilmiy bilishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Keyinchalik Arastu «Metafizika» asarida «mohiyat», «holat» va «munosabat» kategoriyalarini ham izohlagan. Sharqda bu masalaga Forobiy, Beruniy va ibn Sinolar ham katta ahamiyat berganlar.

XVII-XIX asrlarga kelib, falsafiy kategoriyalar tahlilida yangi davr vujudga keldi. Xususan, I. Kant qarashlarida kategoriyalar «sifat», «miqdor», «munosabat», «modallik» tarzida izohlangan. Kantdan farqli o'laroq, Hegelesa mantiqiy kategoriyalarni: «borliq», «mohiyat», «tushuncha» tarzida izohlagan.

Falsafa fanining kategoriyalari haqidagi turli qarashlarni umumlashtirib aytganda, ularning mantiqiy tushunchalar sifatidagi quyidagi tavsiflari bor: 1) ob'ektiv voqelikning in'ikosi; 2) narsa va hodisalarning o'zaro bog'lanish va aloqadorligini mantiqiy umumlashtiruvchi bilish usuli; 3) narsa va hodisalarning rivojlanishi bilan o'zgarib turuvchi mantiqiy tushuncha; 4) borliqning mavjudligidan kelib chiqadigan tarixiy — mantiqiy bilish darajalaridan biri.

4. Falsafiy kategoriyalar

Falsafada o'z xususiyatlariga ko'ra “juft kategoriyalar” deb ataladigan tushunchalar mavjud. Ular insonning tabiat, jamiyat hodisalari mohiyati va qonuniyatlarini bilish jarayonida erishgan bilimlari bo'lib, voqelikni yana ham chuqurroq bilishda qo'llaniladigan muhim ilmiy vositalar hisoblanadi.

Alohidalik, xususiylik va umumiylik borliqdagi narsa va hodisalarning har biriga xos alohida, ma'lum guruhiga xos maxsus va hammasiga xos umumiy tomonlari, xususiyatlari hamda ular o'rtasidagi bog'anish va aloqadorlikni ifodalaydi.

Alohida narsa va hodisagagina xos bo'lib, bu narsa va hodisani boshqa narsa va hodisadan farq qiluvchi, takrorlanmaydigan, individual belgi va xususiyatlar birligi **alohidalik** deyiladi.

Ko'pchilik narsa va hodisalarga (yoki ularning turlariga hamda tomonlariga) xos bo'lgan o'zaro o'xshash, bir xil, takrorlanuvchi belgi va xususiyatlar birligini aks ettiruvchi tushuncha **umumiylik** deb ataladi. Umumiylik borliqdagi ko'pchilik narsa va hodisalarga (yoki ularning tomonlariga) xos bo'lgan umumiy belgi va xususiyatlarning fikriy in'ikosidir.

Narsa va hodisalarga xos maxsus tomonlar, xususiyatlar birligi **xususiylik** kategoriyasida ifodalanadi.

Mohiyat va hodisa. Mohiyat narsa va hodisalarning ichki, eng muhim oʻzaro bogʻlanishlari, shu bogʻlanishlarning qonuniy aloqadorliklarini ifodalaydi. Hodisa esa shu narsa va jarayonlarni tashkil etuvchi tomonlar, xususiyatlar va bogʻlanishlarning namoyon boʻlish shakli, mohiyatning ifodalanishidir.

Butun —oʻzaro dialektik aloqadorlikda boʻlgan qismlar, boʻlaklar, tomonlar, elementlar, komponentlarning uzviy birligidan iborat boʻlgan alohida narsa, hodisa, jarayondir. Masalan, bizni oʻrab turgan olam bir butundir.

Qism esa shu butunni tashkil qilgan, uning tarkibidagi maʼlum boʻlak, komponent, elementdir. Masalan, bir butun olamning bir qismi tabiatdir.

Sistema, struktura va element.Borliqdagi narsa va hodisalar sistema, struktura va element aloqadorligiga ham ega boʻladi. Chunki ular maʼlum sistemalar tarzida mavjud boʻlib, oʻz tuzilishi va tarkibiga koʻra esa muayyan strukturaga ega hamda qator elementlardan tashkil topgan boʻladi.

Sistema — bu borliqdagi oʻzaro bogʻliq, muayyan tartibdagi bir-biriga taʼsir va aks taʼsir qilib turuvchi narsalar, hodisalar va jarayonlarning qonuniyatli birligidir.

Struktura esa shu sistemani tashkil etgan narsalar, hodisalar va jarayonlarning tartibi, tuzilishi, tarkibi, joylashishi va ifodalanishidir. Struktura har bir narsa yoki hodisaning, har bir sistemaning ajralmas tub xususiyati boʻlib, u muayyan elementlardan tashkil topadi.

Element sistema strukturasini tashkil qilgan, nisbiy mustaqillikka ega boʻlgan tuzilmadir. Har bir sistema oʻz strukturasiga koʻra bir qancha oʻzaro chambarchas bogʻliq va aloqadorlikda boʻlgan elementlardan iborat boʻladi.

Mazmun — narsa yoki hodisani aynan shu narsa yoki hodisa sifatida ifodalovchi jarayonlar, muhim elementlar va oʻzgarishlarning majmuidan iborat.

Shakl — mazmunning mavjudlik usulini, uning strukturasini, yaʼni tuzilishini ifodalovchi, narsa va hodisalarning ichki va tashqi tomonlarining birligidan iborat.

Sabab va oqibat. Bir hodisadan oldin kelib, uni vujudga keltirgan hodisa yoki hodisalar guruhi **sabab** deb ataladi. Sababning bevosita yoki bivosita ta'siri bilan yuz beradigan hodisa **oqibat** deyiladi.

Zaruriyat va tasodif. Narsa vahodisalarning mohiyatidan, ularning ichki muhim bog'lanishlaridan muayyan sharoitda qat'iy ravishda kelib chiqadigan, kelib chiqishi muqarrar bo'lgan voqea yoki hodisa **zaruriyat** deb ataladi. Tashqi ta'sir va ikkinchi darajali omillar bilan bog'liq bo'lgan, ayni sharoitda yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin bo'lgan hodisa yoki voqea **tasodif** deyiladi. Zaruriyat va tasodif o'zaro bog'liq bo'lgan, biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydigan borliqdagi narsa va hodisalarning o'zgarishi va rivojlanishiga oid aloqadorlikning ikki tomonidir.

Imkoniyat va voqelik. Imkoniyat va voqelik o'zgarish va rivojlanish jarayonidagi narsa vahodisalarning ikki xil davrini, ikki xil holatini, bu davrlarning o'zaro munosabatini o'zlarida ifodalovchi kategoriyalardir.

Voqelik — bu hozir realmavjud bo'lgan, yashab turgan narsa va hodisalardir. Lekin bu hodisalar rivojlanish jarayonida birdaniga hozirgi holatda bo'lmay, balki dastlab imkoniyat holatida bo'lgan bo'lib, ular o'zlarining ma'lum kelib chiqish davriga, vaqtiga, tarixiga ega. Voqelik o'zining paydo bo'lish davridan oldin imkoniyat shaklida mavjud bo'ladi.

Imkoniyat — bu voqelikning kurtak holdagi ko'rinishidir, u yuzaga chiqmagan voqelikdir. Shu bilan birga, imkoniyat voqelikni keltirib chiqaruvchi, rivojlanishning ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlari ham bo'lishi mumkin.

Abstrakt imkoniyat rivojlanish jarayonida ma'lum ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar yetilganda, real imkoniyatga aylanadi.

Real imkoniyat — bu rivojlanishning asosiy tendensiyasini ifodalovchi, hozirgi sharoitda uning ichki mohiyatidan kelib chiquvchi imkoniyatdir. Real imkoniyat konkret, ayni vaqtda amalga oshishi mumkin bo'lgan imkoniyatdir.

Tayanch so'zlar:

O'zaro aloqadorlik, rivojlanish, progress, regress, miqdor, sifat, sakrash, me'yor, ayniyat, tafovut, ziddiyat, qarama-qarshilik, antagonistik va

noantagonistik ziddiyatlar, inkorni inkor, dialektik inkor, vorisiylik, kategoriya, mohiyat va hodisa, butun va qism, sistema, struktura va element, mazmun va shakl, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik, sabab va oqibat.

5-Mavzu bo'yicha foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar:

1-topshiriq

“T” jadvaldan foydalanib tegishli hususiyatlarni belgilang.

T/r	Miqdor o'zgarishlari	O'zgarishlarga xos hususiyatlar	Sifat o'zgarishlari
1.		Bu o'zgarishlar doimo yuz berib turadi	
2.		Bu o'zgarishlar asta-sekin boradi	
3.		Bu o'zgarishlar – tub o'zgarishlar	
4.		Bu o'zgarishlar ma'lum vaqtgacha predmetga ta'sir ko'rsatmaydi	
5.		Bu o'zgarishlar tez sodir bo'ladi	
6.		Bu o'zgarishlar narsa-hodisalarni boshqa narsa-hodisalarga aylantiradi	
7.		Bu o'zgarishlar ma'lum vaqtgacha sezilmaydi	

2-topshiriq

«Konvert» texnikasi uchun savollar. (Har bir savol konvertlarga alohida solinadi)

1. Kategoriyalar tushunchasini qanday izohlaysiz?
2. Alohidalik va umumiylik kategoriyalarining bog'liqligini misollar bilan tushuntiring.
3. Jamiyat taraqqiyotida mohiyat va hodisa, zarurat va tasodif kategoriyalarining o'rni qanday?

4. Inson hayoti bilan bog‘liq mazmun va shakl birligi haqida gapiring.
5. Sabab va oqibat dialektikasi deganda nimani tushunasiz?
6. Imkoniyat va voqelik nima. Imkoniyatning qanday shakllarini bilasiz?

Ma’ruzani mustahkamlash uchunsavollar

1. Kategoriyalar tushunchasini qanday izohlaysiz?
2. Alohidalik va umumiylik kategoriyalarining bog‘liqligini misollar bilan tushuntiring.
3. Jamiyat taraqqiyotida mohiyat va hodisa, zarurat va tasodif kategoriyalarining o‘rni qanday?
4. Inson hayoti bilan bog‘liq mazmun va shakl birligi haqida gapiring.
5. Sabab va oqibat dialektikasi deganda nimani tushunasiz?
6. Imkoniyat va voqelik nima. Imkoniyatning qanday shakllarini bilasiz?

Mavzu bo‘yicha testlar:

1.Hodisalarning qonuniy aloqadorligi va sababaiy bog‘lanishi to‘g‘risidagi falsafiy ta’limotni ko‘rsating

- A) determinizm V) dialektika
S) dogmatizm D) sinergetika

2. Rivojlanish bu...

- A) Miqdoriy ozayish va ko‘payishdan iborat jarayon
V) Jismning sifatiga ta’sir ko‘rsatmaydigan ilgarilanma harakat
S) muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, ilgarilanma harakati
D) Tashqi ta’sirlar oqibatida ro‘y beruvchi miqdoriy o‘zgarishlarni anglatuvchi jarayon

3. Predmetning xajmi, o‘lchovi, og‘irligi, harakat tezligi bilan tavsiflanuvchi tushuncha nima?

- A) xossa V) miqdor
S) sifat D) me’yor

4. Narsalarning xossa, hususiyat, belgilar birligi nima deb ataladi?

- A) miqdor V) sifat
S) sakrash D) me’yor

5. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanishida uzluksizlikning uzilishi qanday ataladi?

- A) miqdoriy o'zgarish V) sifatiy o'zgarish
- S) me'yor D) sakrash

6. Ma'lum vaqtgacha predmetga ta'sir ko'rsatmaydigan o'zgarishlar qanday ataladi?

- A) sifat o'zgarishlar V) miqdor o'zgarishlar
- S) sakrash D) me'yor

7. Sakrash nima?

- A) Ilgari rivojlanish natijasida tayyorlanadigan ob'ektiv va qonuniy jarayon
- V) miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish, uzluksizlikning uzilishi
- S) narsa va hodisalardagi ziddiyatning hal qilinishi
- D) barcha javoblar to'g'ri

8. Narsa, hodisalarni bir-birini taqozo etuvchi va shu bilan birga bir-birini inkor etuvchi tomonlari qanday ataladi?

- A) Ziddiyat V) Qarama-qarshilik
- S) Konfliktologiya D) Barcha javoblar to'g'ri

9. Narsa va hodisalardagi o'xshash tomonlarni ifodalovchi tushuncha:

- A) Ayniyat V) Mutanosiblik
- S) Qonuniyat D) O'xshashlik

10. Inkorni inkor qonuni birinchi kim tomonidan ifodalangan?

- A) Aflotun V) Geraklit
- S) Kant D) Hegel

6-MAVZU: BILISH NAZARIYASI: ASOSIY MUAMMOLARI VA YO'NALISHLARI.

Reja:

- 1. Bilish va uning turlari.**
- 2. Ilmiy bilish, uning shakllari va usullari.**
- 3. Falsafiy bilish metodlari.**
- 4. Bilishda haqiqat va amaliyotning o'rni**

1. Bilish va uning turlari.

Gnoseologiya sub'ektning bilish faoliyatining prinsiplari, qonuniyatlari, shakllari, bosqichlari va darajalarini, shuningdek, shu prinsip va qonunlardan kelib chiqadigan, haqiqiy bilimga erishilishini ta'minlaydigan talablar va mezonlarni o'rganadi. Bilish nazariyasi bilish jarayonining oddiy, kundalik darajasini ham, bilishning umumiy ilmiy shakllari va metodlarini ham tadqiq qiladi.

Skeptiklar bilishning mumkinligiga e'tiroz bildirmaganlar, lekin bizning bilimlarimizning ishonchliligini, ularning tashqi dunyo hodisalariga muvofiqligini shubha ostiga qo'yganlar.

Agnostitsizm – bu shunday ta'limotki, unga ko'ra dunyo haqida haqiqiy, ishonchli bilimlarga erishib bo'lmaydi. Agnostitsizm bilishni faqat biluvchi aqlning faoliyati deb biladi.

Bilishning turlari. Xissiy bilish. Har qanday narsani, har qanday predmet yoki hodisani bilish fikr xissiy idrokdan predmetning mohiyati tomon boradigan jarayondir. *Xissiy bilim*, jonli mushohada insonning qurshab turgan dunyo bilan *bevosita aloqasi* shaklidir. Xissiy anglash tashqi ta'sir energiyasining ong faktiga aylanishidan boshqa narsa emas. U siz biz borliqning hech qanday shakllari haqida hech nima bila olmaymiz. Biz jonli mushohada yordamida atrofdagi voqelikning turli xossalari va tomonlarini bilib olamiz, lekin birgina xissiy obrazlar bilan ularning mohiyatini anglab ololmaymiz.

Xissiy bilish shakllari. Sezgilar, bu – shunday kanallarki, ularning vositasida odam qurshab turgan olam bilan bog'langan, olam haqida bevosita axborot olib turadi. Sezgilar abstrakt tafakkur amalga oshirishining asosi bo'lgan ozuqadir.

Idrok – bu bir sezgi emas, u turli xil sezishlarning jamul-jami, kombinatsiyasidir. Biz idrok qilish orqali predmetning ayrim tomonlarini emas, balki uni yaxlit holda aks ettiramiz. Masalan, sharsimon, yashil-qizil, yaltiroq, xushbuy, chuchuk-nordon narsalarni xis qilishlar birgalikda ongimizda olma obrazida assotsiatsiyalashadi.

Xissiy bilishning idrokdan keyingi bosqichi *tasavvurdir*. U sezishdan ham, idrok qilishdan ham sifat jihatdan farq qiladi. Tasavvur – bu xissiy idrok bilan tushuncha o‘rtasidagi oraliq bosqichdir. Sezish va idrok qilishdan farqli o‘laroq, tasavvur endi sub’ekt bilan ob’ektning bevosita o‘zaro ta’siri bo‘lib chiqmaydi.

Ratsional (aqliy bilish). Ratsional, abstrakt-mantiqiy tafakkur hodisalar olamining qonuniyatli aloqalarini bilishga imkon beradi, bu esa insonga tashqi dunyoni bemalol tushunib olish va tevarak-atrofdagi voqelik hodisalari va jarayonlaridan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish uchun zarurdir.

Ratsional bilish shakllari. Ratsional bilishning asosiy shakli *tushunchadir*. Tushuncha – bu tajriba ma’lumotlarini umumlashtirish natijasidir, dunyoni o‘rganish yakunidir. Tushunchalarning paydo bo‘lishi – bu biluvchi inson ongi faoliyatining oliy maxsulidir.

Hukm tafakkurning shunday shakli, unda inson narsan iuning aloqalari va munosabatlarida ifodalaydi. Gnoseologik nuqtai nazardan, hukm – bu biron bir narsani tasdiqlash yoki inkor etish yo‘li bilan voqelikni aks ettirish shaklidir. **Intuitiv bilish.** Insonning olamni bilish jarayoni uning sezgilari va ongi zo‘r berib ishlashini talab qilibgina qolmasdan, uning uzluksiz qizg‘in g‘ayrishuuriy faoliyat ko‘rsatishini ham taqozo etadi. Insonning *g‘ayrishuuriy bilish faoliyati intuitiv bilish nomini oldi*, intuitsiyaning o‘zi esa – bu bilish ob’ektining muayyan sharoitda boshqacha yo‘l bilan asoslab berish mumkin bo‘lmagan xossalarini bevosita, g‘ayri mantiqiy tarzda haqiqat deb bilishdir. *Intuitsiya* sezgi va aql harakatiga qarshi turmaydi, balki bilishning xissiy va ratsional jihatlari bilan birgalikda chiqib ularni to‘ldiradi.

Inson bilishini turlarga bo‘lishda intuitiv bilishdan farqli ravishda qadimdan **g‘oyibona bilish** haqida ham turli fikrlar mavjud... g‘oyibona bilish inson bilishining shunday turiki, bunda kishi uzoq masofadan turib sodir bo‘lgan yoki sodir bo‘ladigan hodisa va voqeani bilishi, xis qilishi, bu hodisa va voqeaning qanday sodir bo‘lishi unga ayon bo‘ladi.

2. Ilmiy bilish, uning shakllari va usullari.

Ilmiy bilishning empirik darajasi. «Empirik» degan tushuncha zamirida empiriya», ya'ni «tajriba» tushunchasi yotadi. Lekin bu bilishning empirik darajasi tajribadagina iborat degan ma'noni bildirmaydi. Ilmiy nazariyaning zarur empirik bazasi eksperimentdir, u hozirgi zamon fani rivojining muhim omiliga aylandi.

Eksperimentlar ikki sinfga bo'linadi: *sifat*iy va *miqdoriy* eksperimentlar. Sifat*iy* va ancha oddiy eksperimentning maqsadi hodisaning faqat mavjudlik faktini aniqlashdan iborat. Masalan, yorug'lik sinishi ko'rsatkichlari turlicha bo'lgan muhitlar chegarasidan yorug'lik o'tishini tadqiq qilib, sinish fakti mavjudligini osonlik bilan aniqlash mumkin. Sifat*iy* eksperiment murakkab o'lchov sistemalari va ma'lumotlarni ishlab chiqish sistemalari bilan kamroq jihozlanadi.

Ilmiy bilishning nazariy darajasi. Har qanday *nazariya*, bu – faktlarni ishonchli tarzda bilishgina emas, o'rganilayotgan hodisalarning empirik ta'rifigina emas, u bu *faktlarni tushuntirish* funksiyasini ham bajaradi. *Gipotezalardan farqli o'laroq*, nazariya to'g'ri va asosli tushuntirish imkonini beradi. Nazariya mavjud va aniqlangan faktlarni muayyan sohadagi qonunlar va boshqa mavjud aloqalarning mantiqan zarur oqibati sifatida tushuntiradi.

Shunday qilib, *nazariya, bu – muhim munosabatlar va qonunlarni bilish asosida ob'ektiv va real jarayonlarni ifoda etuvchi tushunchalar tizimidir.*

Ilmiy tafakkur shakllari. Ilmiy tafakkurni uning mazmuni jihatdan ham, shakli jihatdan ham ta'riflash mumkin. Ilmiy tafakkurning mazmuni zarur aloqalar: qonunlar va qonuniyatlardir. Ilmiy tafakkurning shakllari: muammo, g'oya, tushuncha, gipoteza va nazariyadir.

Muammo yunon tilida to'siq, qiyinchilik, masala degan ma'nolarni bildiradi. «*Problema*» tushunchasi *masalalar yoki butun masalalar kompleksini hal qilishga qaratilgan bilishning rivojlanish jarayonini* ifodalaydi. Inson faoliyatining butun rivojlanish jarayoni bir problemani qo'yish va hal etishdan boshqasiga o'tishdir. **G'oya**– *hodislarni fikrda ifoda etishning formalaridan biri*

bo'lib, kelgusida batafsilroq shaklga keltiriladigan bilimning mohiyati va asosiy mazmunini anglashni o'z ichiga oladi.

Tushuncha. *Tushuncha predmetning muhim umumiy, zarur aloqalarini va xossalari aks ettiradi. Inson tafakkur yordamida yagona narsalardan umumiy va muhim tomonlarini ajratib olishi mumkin. Tushunchalarda aks etadigan mohiyatni (umumiyni, zaruriyni va muhimni) bilish asosida kuzatiladigan sohadagi voqealarning xususiyatini tushunish mumkin.*

Har qanday nazariya, bu – tushunchala rtizimidir.

Nazariya. *Gipoteza praktikada tasdiqlangach, u ishonchli nazariyaga aylanadi. Lekin nazariya, bu – faqat ishonchli bilimgina emas, balki ob'ektiv qonunlarni bilishdir.*

Gipoteza, *bu — haqiqiyligi aniqlanmagan ilmiy taxmin yoki farazdir. Gipoteza, bu – fanda o'rta qo'yilgan savolga javob berishga intilib, bildirilgan fikrlar tizimidir. Shu bilan birga bu fikrlar faktual emas balki nazariy xarakterga egadir.*

3. Falsafiy bilish metodlari

XX asrda falsafiy metodologiya asosan ikki yo'nalish bo'yicha iivojlanib bordi: *ratsional metodlar* (hodisalarni mantiq, aql, fikrlash asosida izohlashga intiluvchi metodlar) va *irratsional metodlar* (bilishga intuitsiya, xissiyot, «yorishish» va hakoazolarni asos qilib oluvchi metodlar). Ratsional falsafiy metodlar eng avvalo neopozitivizm kabi falsafiy yo'nalish doirasida iivojlanib bordi. *Verifikatsiya metodi* shunday. U da'volarning haqiqiyligini ularni empirik tekshirish asosida belgilashni nazarda tutadi, ya'ni bunda har qanday da'vo uni amaliyotda empirik tekshirish mumkin bo'lgandagina ilmiy deb hisoblanishi kerak.

Falsifikatsiya metodi *tanqidiy ratsionalizm* bilan bog'liq, unga ko'ra har qanday ilmiy bilim mutlaq haqiqatlikka da'vo qilolmaydi va uni mantiqiy izchillik nuqtai nazaridan sinchiklab tekshirmoq zarur.

Tushunish metodi ning asos soluvchi dalillari nemisf aylasufi, «hayot falsafasi» vakili *V.Diltey* tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodning mohiyati

shundan iboratki, unga ko'ra koinotning bosh asoslarini, taraqqiyotning asosiy mexanizmlarini bilish, insonni tadqiq etish faqat *introspeksiya* (o'z-o'zini kuzatish) asosidagina mumkin.

Intuitsiya metodi. Bu metodga ko'ra bilishga ilmiy vositalar asosida emas, balki reallikni, haqiqatni «g'ayrimantiqiy» anglash asosida erishiladi.

Pragmatik metod. Bu samarali harakatni asoslab Intuitsiya ob'ekt bilan bevosita aloqani ta'minlaydi. Bergsonning fikricha, bilish metodi sifatidagi intuitsiyaga san'at yaqinroq turadi, chunki san'at narsalarning mohiyatini psixologik jihatdan anglaydi var atsional sistemalashni inkor etadi .

Realistik metod. Bu metodni ishlab chiquvchilar (*E.Mur, R.* bilishni tushunishning uch asosiy variantini ilgari suradilar: sub'ekt bilan ob'ektni bir turli narsa deb biluvchi *bevosita tushunish*; sub'ektdan ob'ektga o'tayotganda vositachini talab qiluvchi *vositalangan tushunish*; sub'ekt bilan ob'ektni yagona borliqning teng xuquqli tomonlari deb biluvchi *ontologik tushunish*. Bilishning bu uchinchi turi falsafiy bilishdir.

4. Bilishda haqiqat va amaliyotning o'rni

Falsafada haqiqat tushunchasi. Bilishning bosh vazifasi haqiqat izlashdir. Haqiqat masalasi butun bilish nazariyasining eng muhim vazifasidir. Faylasuflar orasida haqiqat va uning bilishdagi roli to'g'risida yagona fikr yo'q.

Haqiqat, bu – bizning dunyo to'g'risidagi bilimlarimiz va tasavvurlarimizning dunyoning o'ziga, ob'ektiv reallikka muvofiq kelishidir. Hozirgi zamon falsafiy va ilmiy adabiyotida ob'ektiv haqiqat tushunchasi tez-tez uchrab turadi.

Absolyut haqiqat – bubilish ob'ekti haqidagi inkor etib bo'lmaydigan to'liq va tugal bilimdir, nisbiy haqiqat esa – bilish predmeti to'g'risidagi noto'liq va notugal bilimdir. Absolyut haqiqat to'liq hajmdagi ob'ektiv haqiqatdan boshqa narsa emas, nisbiy haqiqat esa – notugal shakldagi, notuliq hajmdagi ob'ektiv haqiqatdir. Har bir nisbiy haqiqatda absolyut haqiqat jihati bor, chunki har qanday nisbiy haqiqat ob'ektivligi sababli, unda doimiy bilim jihati bor

Dogmatizm insonning borliqni bilishida bilimlarning mutlaq tomonlarini bo'rttirib, ularning nisbiy tomonlarini inkor etishdir. U faqat mutlaq haqiqatni

e'tirof etib, bilimlarga o'zgarmas, qotib qolgan bilimlar sifatida qaraydi. Relyativizm esa, dogmatizmdan farqli o'laroq, inson bilishida hosil bo'lgan bilimlarning nisbiy tomonlarini mutlaqlashtirib, inson bilimlari faqat nisbiy haqiqatlardan iborat, deb, mutlaq haqiqatni butunlayin kor qilish tufayli kelib chiqadi.

Abstrakt haqiqat – bu to'liq bo'lmagan, rivojlanmagan, bir tomonlama haqiqat, **konkret haqiqat** esa, aksincha, - to'liq, rivojlangan, ko'p tomonlama haqiqat. Har qanday haqiqat, u bilish jarayonida rivojlanib borganligi sababli, abstraktlikni ham, konkretlikni ham o'z ichiga oladi.

Amaliyot nazariy bilimdan yuqori turadi. Ijtimoiy amaliyot inson bilishining maqsadi hamdir. Chunki inson o'z bilishi natijalaridan, hosil qilgan bilimlarida doimo o'z amaliy ijtimoiy faoliyatlarida o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalanadi.


Tayanch so'zlar:

Bilish, Gnoseologiya, bilishning ob'ekti, bilishning sub'ekti, gnostiklar, agnostiklar, skeptiklar, xissiy bilish, sezgi, ratsional bilish, intuitsiya, g'oyibona bilish, qalban bilish, kundalik bilish, nazariy bilish, muammo, gipoteza, nazariya, ilmiy bashorat, ratsional metodlar, irratsional metodalar, haqiqat, mutloq (absolyut) haqiqat, nisbiy haqiqat, dogmatizm, relyativizm


6--Mavzu bo'yicha foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar:

1-topshiriq

VENN” diagrammasidan foydalaning



2-topshiriq
KLASTER.
SO'ZLAB BERING:



Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar:

1. Bilish nima?
2. Gnoseologiya qanday fan?
3. Bilishda amaliyotning o'рни qanday?
4. Bilishga doir skeptiklar va agnostiklarning qarashlarini asossizligi nimada?
5. Bilishning ob'ekti, sub'ekti, predmeti va maqsadi nima?
6. Bilish bosqichlari nimalardan iborat?
7. Ilmiy bilish, uning shakllari va usullari nimalardan iborat?
8. Xaqiqat nima?

Mavzu bo'yicha test savollari:

1. Inson bilishining umumiy qonuniyatlarini falsafaning qaysi qismi o'rganadi?

- A) ontologiya; V) sotsiologiya;
S) gnoseologiya; D) aksiologiya.

2. Gnoseologiya so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

- A) lotincha, bilish haqidagi ta'limot; V) grekcha, olam haqidagi ta'limot
S) grekcha, bilish haqidagi ta'limot; D) lotincha, ilmiy bilish haqidagi ta'limot

3. Bilishning predmeti deb nimaga aytiladi?

- A) bilimlar hosil qilish uchun inson faoliyati qaratilgan narsa, hodisa va jarayonlarga
V) bilish jarayonida inson qo'lga qiritgan bilish natijalariga
S) bilish bilan shug'ullanuvchi inson yoki insonlar guruhiga
D) bilish ob'ektining ayrim sohalari va tomonlariga

4. Olamni bilish mumkin deb hisoblovchi faylasuflar qanday ataladi?

- A) agnostiklar V) gnostiklar
S) dualistlar D) materialistlar

5. Hissiy bilish shakllari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) sezgi, idrok, tasavvur; V) qalban bilish, g'oyibdan bilish, intuitsiya;
S) quyi, yuqori, oliy; D) tushuncha, xukm, xulosa

6. Olamni bilish mumkin emas deb hisoblovchi faylasuflar qanday ataladi?

- A) agnostiklar V) gnostiklar
S) dualistlar D) materialistlar

7. Sensualizm ta'limotining mohiyati nima?

- A) bilishda aqlning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblovchi ta'limot;
V) bilishda sezgi a'zolarining hal qiluvchi ahamiyatini e'tirof etuvchi ta'limot.
S) dunyoni bilish mumkinligini inkor etuvchi ta'limot;
D) milliy va umuminsoniy manfaatlarning mushtarakligi hamda ularning ustuvorligini tan oluvchi ta'limot

8. Agnostitsizm nima?

- A) dunyoni bilishni inkor etuvchi ta'limot;
V) insonning kelib chiqishida tabiiy omilning hal qiluvchi ahamiyatini inkor etuvchi ta'limot;
S) insonning kelib chiqishida ijtimoiy omilning hal etuvchi ahamiyatini e'tirof etuvchi ta'limot;
D) dunyoni bilish mumkinligini e'tirof etuvchi ta'limot

9. Ratsionalizm ta'limotining tub mohiyati nima?

- A) bilishda aqlning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblovchi ta'limot;
- V) bilishda sezgi a'zolarini hal qiluvchi ahamiyatini e'tirof etuvchi ta'limot;
- S) dunyoni bilish mumkin deb hisoblaydigan ta'limot;
- D) umuminsoniy manfaatlarning ustuvorligini tan oluvchi ta'limot.

10. Intuitsiya nima?

- A) Voqelikning insonmiyasida aks etishi
- V) Hech qanday bilimlarga tayanmasdan turib g'oyibdan bilish
- S) Isbotga tayanmasdan turib birdaniga bilish qobiliyati
- D) Inson miyasida ro'y beruvchi reflektiv jarayon

7-MAVZU: TARIXIY JARAYONDA JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI. JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI.

Reja:

- 1. Jamiyat tushunchasi va uning falsafiy tahlili.**
- 2. Ijtimoiy hayot sferalari**
- 3. Tarix falsafasining mazmuni va muammolari.**
- 4. Falsafada qadriyatlar masalasi.**

1. Jamiyat tushunchasi va uning falsafiy tahlili.

«Jamiyat» tushunchasi arabcha so'z bilan atalgan bo'lib, uning lug'aviy ma'nolari o'zbek tilida: «umumiylilik», «birlik», «majmua», «jamlangan» deganidir. Jamiyat haqidagi qarashlar birdaniga paydo bo'lgan emas. Kishilarda dastlab jamiyat to'g'risida hayoliy mifologik qarashlar, undan keyin asta-sekin diniy qarashlar paydo bo'ladi. Diniy qarashlarga ko'ra, jamiyat xudo tomonidan yaratilgan bo'lib, u xudoning insonlarga bergan in'omidir. Jamiyatni diniy tushunishga ko'ra, jamiyatning mohiyatini, uning mavjudligi va taraqqiyotini ilohiy kuchlar, shaxsan xudo belgilaydi, jamiyatdagi har qanday hodisa va voqea xudoning irodasi bilan sodir bo'ladi.

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan, ilm-fanning paydo bo'lishi va rivojlana boshlashi bilan jamiyat haqidagi qarashlar ham o'zgarib va rivojlanib boradi.

Ibn Sinoning fikricha, jamiyat uch sinfga bo'linishi kerak: boshqaruvchilar, lashkar (harbiy), ishlab chiqaruvchilar. Bu esa, Aflotunning qarashlarini tasdiqlaydi.

XIX asrgacha bo'lgan davrda jamiyatga oid qarashlarda diniy va idealistik qarashlar chambarchas holda hukmron bo'lishiga qaramasdan, Levkipp va Demokritdan tortib to L. Feyerbax va N.G.Chernishevskiygacha bo'lgan, yirik mutafakkirlari qarashlarida ayrim materialistik g'oyalar mavjud edi. Masalan, *Demokrit* ta'kidlashicha, insonning «qo'li, aqli va idroki» insonning ehtiyojlari ta'siri ostida ijtimoiy qadriyatlarni yaratdi. *Lukretsiy Kar* jamiyat ham tabiat ham xudolarning irodasi bilan paydo bo'lmaydi va ular orqali boshqarilmaydi degan fikrni ma'qullaydi.

Sharq mutafakkirlarining qarashlarida ham jamiyat nima terialistik talqin etishning ayrim elementlari bor. Masalan, *Forobiy* jamiyat paydo bo'lishining tabiiy sabablarini topishga intiladi. U «moddiy ehtiyojlarni birinchi darajaga olib chiqadi va bu bilan jamiyatning paydo bo'lishi muammosini ko'taradi»⁴.

Yangi davrda tabiiy fanlarning va mexanik-materialistik g'oyalarning rivojlanishi ham ijtimoiy taraqqiyot nima terialistik asosda tushuntirish to'g'risidagi bilimlarning shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu jarayonga XVIII asr *fransuz materialistlari* katta hissa qo'shdilar..

2.Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti

Jamiyatning iqtisodiy sohasi. Iqtisodiy sohaasosida insonning ishlab chiqarish va mehnat faoliyati yotadi. Uning zarurligi insonning ehtiyojlari hayvonning ehtiyojlaridan tubdan farqlanishi bilan belgilanadi. Inson rivojlanishi bilan tabiatdan ajraladi. Jamiyatning iqtisodiy sohasida *ishlab chiqarish kuchlari* va *ishlab chiqarish munosabatlari* muhim tuzilmaviy qismlari hisoblanadi. *Iqtisodiy munosabatlar kishilar o'rtasida ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va ne'matlarni iste'mol qilish jarayonlarida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlardir.*

⁴«Очерки истории общественно-философской мысли в Узбекистане». Т., 1977. 80-81-б.

Jamiyatning siyosiy sohasi. Jamiyatning siyosiy sohasi (yoki sodda qilib aytganda - siyosat) sotsium tuzilmasining asosiy qismlaridan biridir. Keng ma'noda «siyosat» va «siyosiy soha» tushunchalari bir-biriga mos keladi. Tor ma'noda *siyosat deganda odamlarning, siyosiy kuchlarning hokimiyatga egalik qilishi, uni saqlab turish, mustahkamlash va amalga oshirishga qaratilgan ongli xatti –harakati tushuniladi.*

Jamiyat siyosiy tizimining asosi, poy devori *davlatdir*. Hozirgi vaqtda ko'p zamonaviy davlatlar *hokiyamiyatni bo'lish* asosiga qurilgan. Hokimiyatning uch tarmog'i – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bir-birlariga halaqit bermay, bir-birlarining ishlariga aralashmay o'z vazifalarini bajaradilar.

Jamiyatning ijtimoiy strukturasi. Ijtimoiy struktura o'z tabiatiga ko'ra ob'ektiv xususiyatga ega bo'lib, u qonun chiqaruvchining qarorlari bo'yicha ta'sis etilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas. Jamiyatning ijtimoiy strukturasi undagi guruhlarining o'zaro aloqadorligi va o'zaro ta'sirini ham o'z ichiga oladi.

Jamiyat strukturasi quyidagi turlarini ajratish mumkin: demokratik, etnik, ijtimoiy-sinfy, joylashishiga ko'ra hududiy, kasbiy-ma'rifiy, konfessional tuzilish va boshqalar.

Jamiyatning ma'naviy sohasi ko'pincha madaniyat bilan tenglashtiriladi. Bunday tenglashtirish unchalik to'g'ri emas, chunki madaniyat faqatgina ma'naviy bo'lmasdan moddiy xususiyatga ham egadir.

Ma'naviyat ijtimoiy hodisa va ilmiy tushuncha sifatida o'zga xos ko'plab xususiyatga ega bo'lib, mustaqil ob'ekt sifatida falsafiy tahlil qilishni talab etadi.

3. Tarix falsafasining mazmuni va muammolari

Insoniyat bir necha ming yillik tarixga ega. Uning rivojlanish jarayonini tarix fani o'rganadi. Tarix yunoncha *Historians* o'zidan olingan bo'lib, o'tmish voqealar haqida hikoyalar, bo'lib o'tgan hodisalar degan ma'noni anglatadi. U insoniyat o'tmishining o'ziga xosligini va umuman ko'p xilligini manbaashunoslik va boshqa yordamchi fanlar tarixiy manbalari asosida o'rganuvchi ijtimoiy bilimlar majmuini tashkil etadi.

Tarixiy jarayonlarning falsafiy tahlili bilan *tarix falsafasi* yoki *istorio sofiya* shug'ullanadi. U mustaqil falsafiy fan sifatida o'zining predmeti, kategoriyalar apparati va metodologik yondashuvlariga ega. Ilk bor «tarix falsafasi» tushunchasini *Volter* qo'llagan. Nemis ma'rifatparvari *Iogann Gotfrid Gerder* (1744-1803) o'zining «Insoniyat tarixi falsafasiga doir g'oyalar» (1784) asarida ilk bor barcha xalqlarni o'z ichiga qamrab olgan yagona umumiy insoniy kelajakka olib keluvchi tarixiy jarayonning birligi g'oyasini ilgari surdi.

Tarixni falsafiy anglash jiddiy tadrijiy rivojlanishni kechirdi. Qadimgi Sharq datarix tabiatdagi narsalarning va yil fasllarining almashinuvi kabi abadiy o'z holiga qaytish jarayoni sifatida talqin etilgan. Tarix falsafasining rivojlanishi jarayonida tarixiy bilishga bir qator metodologik yondoshuvlar vujudga keldi. Ularning ichida *monistik* va *plyuralistik*; *chiziqli* va *davriy*; *formatsion* va *tsivilizatsion* konsepsiyalar kabi dioxotomik qarashlarni keltirish mumkin. *Monistik* yondoshuv doirasiga marksistik ta'limot va post industrial jamiyat nazariyalarini kiritish mumkin. *Marksistik* ta'limot ijtimoiy rivojlanishning ustivor omili, deb ishlab chiqarish usulini tan oladi va shu tamoyil asosida insoniyat tarixi rivojini muqarrar, birining o'rnini boshqasi egallaydigan besh asosiy formatsiyalar (ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va kommunizm)ga ajratadi. Ikkinchi ta'limot – *post industrial jamiyat konsepsiyasi* texnikani insoniyat tarixining asosiy omili, deb hisoblaydi va jamiyat tarixini birining o'rnini keyingisi egallaydigan 3 ta bosqichga bo'ladi. Bular: an'anaviy (sanoatlashgungacha), sanoatlashgan va post sanoatlashgan (informatsion) jamiyatlar.

Jahon tizimida bir qutblilikning salmog'i faqat uning yaqqol namoyon bo'lgan, iqtisodiy va texnologik salohiyati bilangina emas, balki qolgan jamiyatlarning modernizatsiyasi *g'arblashtirish* tomon borayotganligi bilan ham belgilanadi, deydi Straus. Boshqacha qilib aytganda, bir qutblilikning, ya'ni g'arbning ustivorligi eng avvalo mafkuraviy omilga, aynan esa liberalizm mafkurasiga bog'liq.

4. Falsafada qadriyatlar masalasi

Aksiologiya (yunoncha *axia* – qadriyat va *logos* ta’limot)

Qadriyatlar – voqelikdagi muayyan hodisalarning qimmatini belgilash uchun xizmat qiluvchi falsafiy kategoriya bo‘lib, u mazkur hodisaning sub’ekt tomonidan aks ettirilishi natijasida paydo bo‘ladi.

Falsafiya adabiyotlarda qadriyatlarning turli tiplari ajratib ko‘rsatiladi.

1. Qadriyatlar quyidagi belgi bo‘yicha farqlanishi mumkin: Nima baholanyapti va nimaga asosan baholanyapti? Shu bilan bog‘liq ravishda ular quyidagicha turlarga ajratiladi:

a) *predmetli qadriyatlar* - qadr-qimmat munosabatlarining ob’ektlari, ya’ni voqelikdagi sub’ekt uchun muayyan qimmatga ega bo‘lgan hodisalar. Ularga quyidagilar kiritiladi:

- Tabiiy ob’ektlar, jarayonlar va hodisalar;
- Ijtimoiy ob’ektlar, jarayonlar va hodisalar.

b) *sub’ektli qadriyatlar* – u yoki bu hodisalarni baholash tadbirini o‘tkazishda asos bo‘lib xizmat qiluvchi usullar va mezonlar.

2. Qadriyatlar sotsiumining qanday sohasi bilan bog‘liq ekanligiga qarab ham bir-biridan farq qiladi. Shundan kelib chiqib *axloqiy, badiiy, utilitar, ilmiy, diniy* va boshqa qadriyatlar farqlanadi.

3. Qadriyatlar umumiylik darajasiga qarab, ya’ni, u yoki bu hodisa qancha miqdordagi sub’ektlar uchun qimmatga ega ekanligiga qarab ham farqlanadi. Shu bilan bog‘liq ravishda quyidagi turlar ajratib ko‘rsatiladi;

- *individual qadriyatlar*;
- *guruhiy qadriyatlar* (milliy, diniy, jinsiy, yosh); ushbu guruhlar doirasida
- *g‘arb va sharq qadriyat* tizimlari haqida so‘z yuritish mumkin.
- *umum insoniy*;

Qadriyaviy mezon va qadriyaviy qarash amalda hayotimizning barcha sohalariga kirib bormoqda.

Tayanch soʻzlar:

Jamiyat tushunchasi, jamiyatning moddiy va maʼnaviy hayoti, Tarix falsafasi, formatsion yondoshuv, tsivilizion yondoshuv, qadriyat, qadriyatlarning turlari.

7-mavzu boʻyicha qoʻllaniladigan pedagogik texnologiyalar:

1-topshiriq

«Blits-soʻrov» jadvali soʻrov vaqtida toʻldiradi

No	Savollar	Javoblar
1.	Jamiyat tushunchasi nima?	
2.	Jamiyat toʻgʻrisidagi nazariyalar	
3.	Jamiyatning moddiy va maʼnaviy hayoti uygʻunligi nimada?	
4.	Davlatning jamiyat hayotidagi oʻrni qanday?	

2-topshiriq

Axborotlashgan jamiyat. SWOT – tahlil

S	Kuchli tomoni	
W	Ojiz tomoni	
O	Imkoniyatlari	
T	Havflar	

Maʼruzani mustaxkamlash uchun savollar.

1. Jamiyat deganda nimani tushunasiz?
2. Jamiyatning kelib chiqishi toʻgʻrisidagi qanday nazariyalarni bilasiz?
3. Jamiyatning rivojlanishida maʼnaviyat qanday oʻrin tutadi?
4. Tarix falsafasi deganda nimani tushunasiz?
5. Formatsion yondoshuv nima?
6. Sivilizion yondoshuv nima?
7. Qadriyat deganda nimani tushunasiz?

Mavzu bo'yicha testlar:

1. Jamiyat nima?

- A) Ijtimoiy borliq, odamlar uyushmasining maxsus shakli
- V) Moddiy omillar birligidan iborat sistema
- S) Muassasa va tashkilotlar yig'indisi
- D) Muayyan iqtisodiy va siyosiy tuzum

2. Jamiyatning moddiy hayotiga nimalar kiradi?

- A) Oziq-ovqat, kiyim-kechak, moddiy boyliklar, ta'lim-tarbiya
- V) Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, mafkura, turar-joy
- S) Olamni anglash, bilimlar, tabiiy zahiralar, kommunikatsiya vositalari
- D) Moddiy boyliklar, tabiiy zahiralar, mehnat qurollari, mehnat predmetlari

3. Jamiyat taraqqiyotini din taraqqiyoti bilan bog'lagan nemis faylasufi?

- A) I.Kant V) L.Feyerbax
- S) V.Gegel D) O.Kont

4. Jamiyatning ma'naviy hayotiga nimalar kiradi?

- A) Jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar, moddiy boyliklar, ta'lim-tarbiya
- V) Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, mafkura, bilimlar
- S) Olamni anglash, bilimlar, madaniyat
- D) G'oyalar, mafkuralar, mehnat predmetlari

5. Jamiyat taraqqiyotini "mutloq ruh" taraqqiyoti bilan bog'lovchi faylasuf?

- A) O. Toffler V) Beruniy
- S) V.Gegel D) Ibn Sino

6. Jamiyatni fozillar jamiyati va johillar jamiyatiga ajratgan Markaziy Osiyo faylasufi:

- A) Beruniy V) Xorazmiy
- S) Ibn Sino D) Farobiy

7. Axborotlashgan jamiyat nima?

- A) Insonparvarlik tamoyiliga asoslangan jamiyat

V) Informatsiya, ijodiyot va intellektual texnologiyaning ahamiyati ortib borgan jamiyat

S) Kishilarning yuksak axloqiy, siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslangan demokratik jamiyat

D) Har tomonlama mukammal, ideal jamiyat

8. Ochiq va yopiq jamiyat tushunchasini ijtimoiy falsafaga kiritgan ingliz olimi

A) O.Toffler V) K.Popper

S) G.Spenser D) M.Veber

9.Fuqarolik jamiyati nima?

A) kishilarning yuksak axloqiy-siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan demokratik jamiyat

V) jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan alohida bir muassasa

S) odamlar uyushmasining maxsus shakli

D) barcha javoblar to'g'ri

10. Qadimgi Markaziy Osiyoda vujudga kelgan ijtimoiy tengsizlikni qoralovchi ta'limot:

A) monizm V) mazdakizm

S) vedizm D) zardushtiylik

8–MAVZU: FALSAFIY ANTROPOLOGIYA (INSON FALSAFASI)

REJA:

1. Insonning kelib chiqishi haqida diniy va ilmiy yondashuvlar

2. Inson falsafiy tahlil ob'ekti sifatida.

3. Ongning kelib chiqishi va mohiyati.

4. Ongning tuzilishi, shakllari va funksiyalari.

1.Insonning kelib chiqishi haqida diniy va ilmiy yondashuvlar

Insonning kelib chiqishi eng murakkab va jumboqli fenomenlardan biri hisoblanadi. Qadim zamonlardan boshlab ushbu fenomenni tushuntirishda bir-

biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki paradigma mavjud: insonning xudo tomonidan yaratilganligi g'oyasi va tabiiy tarixiy evolyutsiya g'oyasi.

Ibtidoiy *miflarda* odamlarning kelib chiqishi ko'pincha mifik qahramonlarning transformatsiyasi, totem ajdodlar, butun mavjudot yaratilgan mifik davrdagi personajlarning transformatsiyasi natjasi yoki ularning ijod mahsuli sifatida tasavvur etiladi. Ayrim miflarda odamlarning paydo bo'lishi tasodifiy xususiyatga ega bo'lsa, boshqalarida demiurglar – totem ajdodlarning ongli ishi sifatida aks ettiriladi.

Jahon dinlarida mavjud bo'lgan yaratilish aktining barcha tasvirlari o'z ildizlariga ko'ra aynan mifologiyaga borib taqaladi. Masalan, jahon dinlarida keng tarqalgan insonning xudo tomonidan loydan yaratilganligi haqidagi tasavvurning mifologik ildizlarga ega ekanligi yaqqol ko'rinib turadi. Fanantropogenez jarayonini yoritib bera boshlashi va dindan bu sohani tortib olishi munosabati bilan *kreatsianizm* o'z mavqeini mustahkamlay boshladi. Bu hol tegishli institutlarning yaratilishi, ilmiy anjumanlar o'tkazilishi, kreatsinistik adabiyotlar va filmlarning paydo bo'lishida o'z aksini topdi.

Keyingi paytda «*kosmik tajriba*» nazariyalari paydo bo'ldiki, ularning markazida ham odamning yaratilganligi haqidagi g'oya turadi. Diniy talqinlardan farqli o'laroq, ushbu nazariyalarda inson qandaydir o'zga planetaga mansub sivilizatsiya tomonida yaratilgan deb tasdiqlanadi.

Fan o'zga sayyoralarda sivilizatsiyaning mavjudligini va ular Yerga kelgan bo'lishlari mumkinligini prinsip jihatidan inkor etmaydi. Biroq, insonning o'zga sayyoraliklar tomonidan *yaratilganligini* tasdiqlovchi hech qanday dalillar mavjud emas. Bu mavzuga oid barcha mulohazalar hozirga qadar mushohadagipoteza bo'lib qolmoqda.

Eng qadimgi miflarda yoq, odamning xudo tomonidan yaratilganligi haqidagi g'oya bilan bir qatorda antropogenezni tabiiy-tarixiy idrok etish unsurlari ham mavjud edi.

2. Inson falsafiy tahlil ob'ekti sifatida

Antik falsafa insonga mikrokosm, kosmosning bir qismi, ya'ni makrokosm – umuman dunyo bilan doimiy aloqada bo'lib turuvchi qism sifatida qaragan.

Inson haqidagi ta'limotni rivojlantirishga antik materialistlar *Demokrit*, *Epikur*, *Lukretsiy Kar* va boshqalar salmoqli hissa qo'shdilar. Ularning qarashlariga ko'ra, inson hayotining maqsadi – ongli lazzatlanish, azob-uqubutlarga chap berish, ruhning sokin va tinch holatiga erishishdir. Shu sababli ular falsafaning asosiy vazifasi insonga baxtli bo'lish yo'lini ko'rsatishdan iborat deb hisoblaganlar. Ularning fikricha, jon ayrim atomlardan tashkil topgan va o'linga mahkum, tana halokatga uchragandan so'ng atomlar yemiriladi. Inson o'limdan qo'rqmasligi kerak, zero toki u hayot ekan - o'lim yo'q, o'lim kelganda esa inson yo'q bo'ladi.

Umuman olganda antic falsafa «Inson nima?» degan savolga javob bermadi, balki ana shu savolni kun tartibiga qo'ydi.

O'rta asr falsafasi asosan diniy falsafa o'laroq, insonni unda ikki negiz: oliy (ruh) va past (tan) bir-biri bilan uzluksiz kurash olib boruvchi mavjudot sifatida qaradi.

Sharq-musulmon falsafasi doirasida inson muammosiga ikki xil yondashuvni ko'rish mumkin. Ulardan biri ko'proq taqdir haqidagi islom aqidasi suyanadi. Inson taqdiri oldindan belgilab qo'yilgan, shu sababli insonning qo'lidan keladigan birdan-bir ish – bu o'zini ana shu taqdirda belgilab qo'yilganidek tutish. Biroq, *Forobiy*, *Beruniy*, *Ibn Sino*, *Alisher Navoi*, *Mirza Bedil*, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlar – *Axmad Donish*, *Muqimiy*, *Furqat*, *Zavqiy*, *Sattorxon Abdulg'afforrov* va boshqalar inson haqidagi gumanistik, ma'rifatparvar va demokratik konsepsiyaning shakllanishiga katta hissa qo'ydilar. Ularning ijodlari uchun insonga, uning kuchiga, aqliga, irodasiga ishonch xosdir, ular ommani ma'rifatli va bilimli bo'lishiga da'vat etdilar.

XIX asr falsafiy fikrning inson haqidagi ta'limotni rivojlantirishdagi eng muhim yutuqlaridan biri – bu *Lyudvig Feyerbaxning* (1804-1872) falsafiy antropologizmidir. U inson mohiyati muammosini falsafasining «birdan-bir,

universal va eng oliy» muammosi sifatida qaradi va birinchi planga olib chiqdi. Biroq Feyerbax, aslida, insonga biologic nuqtai nazardan qaraydi, uning ijtimoiy mohiyatini izohlamaydi.

Freydizmga avstriyalik psixolog *Zigmund Freyd* (1856-1939) asos solgan. U shaxs tuzilmasida uchta asosiy qatlamni ajratib ko'rsatdi «U»ong osti, «Men» yoki «EGO» (ong), Yuksak «Men» (yuksak ong).

Inson muammosining falsafaga oid masalalari deb quyidagilarni hisoblash mumkin: a) inson mohiyati; b) insonda ijtimoiylik va biologik (tabiiylik)ning nisbati; v) shaxsning erkinligi; g) insonning mavjud bo'lishi (borlig'i) va mohiyatining dialektikasi; d) inson hayotining maqsad va ma'nosi.

Bu albatta inson muammosining falsafiy spetsifikasi faqat yuqoridagilar bilan cheklanadi, degan emas. Biz faqat asosiylarini sanab o'tdik xolos.

Individ – eng avvalo qandaydir ko'plikni bir vakili, ko'plarning biri. Shu ma'noda deyarli har bir odam - individ (ba'zan individium ham deyiladi va yoziladi).

Shax tushunchasi falsafada va umuman insonni o'rganuvchi fanlar majmuasida eng murakkab tushunchadir. Inson shaxsi rivojlanishining eng muhim biologik omili inson miyasidir. Ammo shaxs mohiyati – bu ijtimoiy xususiyatga molik hodisa. Miya esa moddiy organ bo'lib, u orqali shaxs o'z-o'zini namoyon etadi.

Inson mazkur sotsiumga xos bo'lgan me'yorlar, bilimlar, qadriyatlarning muayyan tizimini o'zlashtiradi. Muayyan jamiyatning real shart-sharoitlari shaxsning ijtimoiy mohiyatini belgilaydi. Shaxsning shakllanishi jarayoni *sotsializatsiya* deb ataladi.

3. Ongning kelib chiqishi va mohiyati.

Ong – falsafaning sub'ektiv reallikni ifodalovchi g'oyat keng kategoriyasidir; odamning, uning miyasi va psixikasining tashqi dunyoni ideal aks ettirishidir; insonning ma'naviy dunyosidir, o'zining dunyoda borligini anglab yetishidir; uning tashqi dunyoga munosabatidir.

Odam – fikr yurituvchi, ongga ega mavjudotdir. Ong yordamida odam tashqi dunyoda faol harakat qiladi, uni biladi, u bilan sub'ekt-ob'ekt munosabatda bo'ladi. Ong tufayli shaxsning ma'naviy dunyosi, uning emotsiyalari, kechinmalari, tashvish va istaklari, orzu-umidlari, fantaziyalari mavjud. Xuddi shu ongi tufayli inson hayvonot dunyosidan farq qiladigan aqlli mavjudot sifatida mavjuddir.

Fan va falsafada ong muammosi – bu, pirovardida, psixologik, fiziologik va sotsial holatlarning o'zaro nisbati, munosabati masalasidir: agar inson aqli materiya evolyutsiyasining natijasi bo'lsa, fikr fikrlovchi materiyaning, inson bosh miyasining, miya katta yarim sharining oliy xossasidir.

Inson ongi til bilan uzviy bog'liqdir. Til fikrning moddiy ko'rinishidir, shaklidir. Odam fikrning mazmunini turli lisoniy tizimlar: og'zaki nutqlar va yozma matnlar, hozirgi zamon informatikasining sun'iy tillari yoki turli simvollar, kodlar, shifrlar, formulalar va hokazolar orqali bilib oladi.

Ong fenomenini falsafiy tahlil qilishga *materializm*, *idealizm*, *dualizm*, *gilozoizm*, *panteizm* kabi falsafiy oqimlarda turlicha yondashuvlar mavjud.

Materializm namoyandalarining ko'pchiligi ongni *in'ikosning alohida shakli* deb biladi. Materialistik nuqtai nazardan in'ikos harakatlanuvchi, rivojlanuvchi, o'zgaruvchi materiyaning atributlaridan biridir, ong – tashqi dunyoning inson miyasidagi in'ikosining oily shaklidir, jonli tabiat evolyutsiyasining yakunidir, bu – bugungacha ma'lum bo'lgan moddiy tuzilmalardan eng murakkabining – inson miyasining – qurshab turgan dunyoni *ideal obrazlar* shaklida aks ettirish layoqatidir.

Idealistik falsafa ongni, ruhiy, *ideal hodisani*, moddiylikka bog'liq bo'lmagan, undan oldingi va hatto uni tug'diradigan omil deb biladi. Idealizm ideal, ruhiy hodisalarni moddiylik sababli kelib chiqqan va ular o'zaro bog'liqdir deb bilmaydi, balki hatto buni to'g'ridan-to'g'ri inkor etadi, uni sub'ektiv kechinmalar, assotsiatsiyalar, fikrlar va g'oyalarga to'liq bo'lgan biqiq, o'ziga mustaqil dunyodir deb biladi, uningcha bu g'oyalar yo moddiy dunyo bilan birga yashaydi, yoki tashqi dunyoning demiurgi, yaratuvchisidir.

Panteizm falsafasining vakillari gilozoizmga yaqin pozitsiyada turadilar. Ular «Xudo», «tabiat», «ruh» tushunchalarini maksimal darajada bir-biriga yaqinlashtiradilar.

Ong – insonning ruhiy faolligining oliy darajasi va reallikni hissiy va fikriy obrazlar shaklida aks ettirishning oliy shaklidir, bu esa odamning barcha hatti-harakatlariga, amaliyoti va qilgan ishlariga ma'noli, muayyan maqsadga qaratilgan xarakter beradi.

Ong, tafakkur, psixika – bu materiyaning eng asosida, negizida yotgan aks ettirish layoqatining muqarrar oqibatidir. Insonning ijtimoiy-tarixiy faoliyati sifatida amaliyotning paydo bo'lishi bilan in'ikosning faqat odamzotga xos bo'lga noliy, psixikshakli – ong hampaydo bo'ladi. U ijtimoiy-tarixiy sub'ektning predmetli qurolli hatti-harakatini tushunchalar vositasida ideal, tafakkuriy shaklda takrorlaydi.

Ongning kelib chiqishi muammosi bo'yicha quyidagi falsafiy-nazariy yondashuvlar tarixan tarkib topdi.

Diniy yondashuv. Diniy nuqtai nazardan ong (jon) Xudo tomonidan yaratilgandir, ya'ni u ilohiy xilqatdir, iudaizmga ham, nasroniylikda ham, islomda ham birday e'tirof etilgan Tavrotga jonning ilohiy xilqatligi quyidagicha tasvirlangan: «Xudoyi taolo odamni yer gardidan yaratdi va uning yuziga hayot nafasini purkadi va odam tirik jonga aylandi»¹.

Idealistik yondashuv. Idealizm ideal narsaning, ruhiy mohiyatning moddiy voqelikdan tashqarida va ungacha mavjud bo'lganligini e'tirof etadi. Turli idealistik tizimlarda ongning kelib chiqishi turlicha talqin qilinadi. Bir xil tizimlarda u – xuddi dindagi kabi – ilohiy xilqatdir. Boshqa tizimlarda – dualizmga, gilozoistik ta'limotlarda – ong abadiy yashaydi, buning boisi bu ta'limotlarga binoan ruhiy substansiyaning mustaqil yashashi yoki tabiatning umumiy jonlanishidir.

Materialistik yondashuv. Materializm doirasida ham ongning kelib chiqishiga turlicha yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ba'zan *vulgarmaterializm* deb

¹ Бытие, 2,7.

ataladigan *fizikalizm* va radikal *reduksionizm* idealni tamomila moddiydan, fizik reallikdan iborat qilib qo'yib, ongni materiyaning muayyan turi deb talqin qiladi. Ongning kelib chiqishi muammosi eng murakkab muammolardan biridir. Uni hal qilishning qiyinligi ikki omil bilan bog'liq. Birinchidan, so'z bizning zamonamizdan ancha ilgari, bundan yuz ming yillab avval bo'lib o'tgan jarayonlar va voqealar to'g'risida boradi. Ikkinchidan, so'z *ideal hodisa* kabi fenomen to'g'risida, ya'ni o'zida moddiylikdan asar ham bo'lmagan hodisa to'g'risida borayotganligi sababli, tadqiqot ob'ekti – ongning arxaik shakl va faktlari – bizga bevosita berilgan emas. Ongning kelib chiqishini tarixan qayta tiklash fanlar aro ilmiy muammo bo'lib, uni faqat kompleks yondashuv asosidagina hal qilish mumkin.

Ong jumbog'ini hal etish ongning moddiy manbai bo'lgan *bosh miya* faoliyatining ilmiy tahlili bilan bog'liqdir. Bosh miya bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan 14 milliarddan ortiq neyronlardan – asab hujayralaridan – iborat murakkab funksional tizimdir. Hozirgi zamon fanida odammiy asineyronlarining bu majmuasi qanday qilib ong va tafakkurning paydo bo'lishiga, tushunchalarning shakllanishi va yechimlar qabul qilinishi jarayonlariga, murakkab, ongli harakat qilishga, o'rganish, xotirlash, prognozlashga olib kelganligi hanuzgacha ochiq muammoligicha qolmoqda.

Miyasiz ong bo'lishi mumkin emas. *Bir butun, sog'lom, normalishlovchi miyaning bo'lishi ongning zarur shartidir.*

Ong paydo bo'lishining yana bir eng muhim omili *tildir*. Til odamlarning ijtimoiy tajribalarini ifodalab beradi, insoniyatning tarixiy taraqqiyotida tafakkurning uzluksizligini ta'minlaydi. Inson fikri, g'oyalari, tasavvurlari so'zlarda ifodalanadi, shakllanadi, shuning uchun til, bu – fikrni, ongni ifodalashning universal vositasidir, kishilarning aloqa qilish, axborot almashish vositasidir.

4. Ongning tuzilishi, shakllari va funksiyalari

Ongga, *bir butun bog'langan tizim sifatida*, uning sezgi, fikr, emotsiya, iroda va xotira kabi ajralmas elementlari kiradi. Bir butunlik ongning tizimiy sifati

bo‘lib, ong fenomeni mohiyatining o‘ziga xosligi uning tarkibiy qismlarining har qandayiga nisbatan mutlaqo zarurligini bildiradi.

Sezgi. Inson sezgilari tashqi dunyo haqidagi axborotlarni asosiy yetkazib beruvchilardir. Ko‘rib, ushlab, hidlab, eshitib va ta‘mga qarab sezishlar sub‘ektga dunyoni bilishga, o‘zini qiziqtirgan ob‘ektни topishga, u turgan joyni aniqlashga, uning rangi, hidi, ta‘mi, qattiq yo yumshoqligi, xarorati va boshqa sifatlari haqida axborot olishga imkon beradi.

Idrok. Idrok – sub‘ektning axborotni qayta ishlashida sezgidan keyingi bosqichdir. Bu bosqich davomida ob‘ekt, uning zamon va makoniy tavsifi yaxlit holda anglab olinadi va ideal obraz unga taalluqli moddiy ob‘ektning o‘zi bilan, ya‘ni idrok ob‘ektining o‘zi bilan taqqoslanadi. Tafakkur tufayli sezgi va idrok natijalariga ma‘no va mazmun beriladi, munosib va tushunish qulay shakl izlab topiladi.

Emotsiya. Ong tuzilishining emotsional komponenti hodisalar va voqealarga ijobiy yoki salbiy munosabat (umid, quvonch, qo‘rquv, umidsizlik va sh.k.) yoki loqaydlikni keltirib chiqaradi. Shaxsni baxslashish, tashvishlanish, emotsional shok, affekt holatida bo‘lishga (rashq qilish, nafratlanish, yomon ko‘rishga) undaydi, uning stress yoki frustratsiya (gangirab qolish, ruhiy ezilish) holatida bo‘lishga, quvonishi yoki g‘azablanishiga sabab bo‘ladi.

Iroda. Emotsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish sub‘ektning irodasi bilan uzviy bog‘liqdir. Sub‘ekt faoliyat ko‘rsatayotgan ob‘ektiv sharoit bilan uni amalga oshirishning sub‘ektiv imkoniyatlari tafovut qilib qolganda sub‘ekt faoliyatini iroda yordamida tiklash, tartibga solish zarur bo‘ladi.

Xotira. Ong tizimida xotira tajribaning integral yig‘uvchisi va ifoda chisi bo‘lib xizmat qiladi. Xotira – kishining yoki kishilik jamiyatining go‘zining yoki o‘zganing o‘tgan zamondagi faoliyatini hozirgi zamonda saqlab qolish va tiklash layoqatidir. Xotira shunday bir yo‘naltiruvchiki, u tufayli sub‘ekt vaqtda ham, makonda ham muvaffaqiyatli yo‘nalish oladi, bu esa uning faoliyat rejalari, sxemalari va dasturlarini tuzishida ifodalanadi.

Ong osti. Ong ostida shaxsning hayotidagi juda ko'p hajmdagi axborotlar, uning individual turmush tajribasi o'rnashib, yig'ilib qoladi. Ong ostini falsafiy va psixik analiz qilishga *Zigmund Freyd, Karl Yung, Erix Fromm* katta e'tibor berdilar.

Ongning boshqa bir epistemik shakli **shubha** dir. U shunday ma'lumotlarni, axborotlarni o'z ichiga oladiki, ularning haqiqiyliigi, ishonchliligi va foydaliligiga sub'ekt oxirigacha ishonmaydi, unda shu ma'lumotlar to'g'risida qat'iy fikr va bilim bo'lmaydi. Shubha eski bilimdan yangisiga o'tishda muhim ahamiyatga ega.

Shubhaga qarama-qarshi o'laroq, **e'tiqod** ongning shunday shakli, uni sub'ekt to'g'ri, haqiqiy, ishonchli va mantiqan ziddiyatli emas deb biladi. Shaxsning sub'ektiv e'tiqodi negizida quyidagi sabablar yotadi: muayyan ma'lumotlar, axborotlar va faktlarni isbotsiz, aksiomatik tarzda ishonchli deb qabul qilish hamda hamma tomonidan e'tirof etilgan fikrlarni va obro'li, hurmatli shaxslarning fikrlarini tanqid va tahlilsiz qabul qilish.

Ongning fikr, e'tiqod va shubhani o'zida birlashtiruvchi, sintez qiluvchi shakli **bilim**dir. Bilim dunyoning sub'ektga ma'lum bo'lgan, uning tomonidan o'rganilgan va bilib olingan ob'ektiv xossalari va aloqalarining ideal ifodasidir. Yangi zamon fani va falsafasidan oldindan darak bergan o'rta asr ingliz mutafakkiri Rodjer Bekon «Bilim - kuchdir» degan ajoyib hikmatni ta'riflab berdi. Darhaqiqat, haqiqiy, aniq bilim – bu inson amaliyotining kvintessensiyasi, mag'izidir, insoniyatning ko'p asrlik taraqqiyot tarixi davomida to'plagan kollektiv tajribasidir.

Refleksiv funksiya. Ongning asosiy, muhim funksiyalaridan biri *odamning o'z-o'zini anglashidir*, ya'ni o'z borlig'ini refleksiv tarzda anglashidir. «O'zingni o'zing bil» - antik faylasuflarning bu shiorini odamning tafakkuri o'z-o'zini anglash yordamida amalga oshirmoqda.

Germenevtik funksiya. Odam ongining boshqa bir muhim funksiyasi *tushunish* funksiyasidir. Asosiy tushunish funksiyasi individning tabiiy va

ijtimoiy muhitda ongli ravishda harakat qilishi va yo‘l tutishini ta’minlash bilan bog‘liqdir.

Ijodiy funksiya. Ongning yana bir funksiyasi ijodiy funksiya bo‘lib, u maqsad qo‘yishda, prognozlashda, kishi harakatlarining kutilayotgan natijalarini oldindan ko‘rishda *ongning faolligi* ni nazarda tutadi. Ongning ijodiy faolligi konstruktiv-o‘zgartiruvchi faoliyat bilan, yangini yaratish bilan uzviy bog‘liqdir.

Ijod yordamida odam o‘z ongida saqlanayotgan rejalarini, niyatlarini, loyihalarini amalga oshiradi, ularni voqelikning real predmetlari va hodisalarida moddiylashtiradi.

Tayanch so‘zlar:

Antropologiya, inson borlig‘i, antropogenez, biologizm, sotsiologizm, psixologizm, individ, individuallik, sub’ekt, shaxs, inson, odam, hayotning mazmuni, ong, ongsizlik, ong osti, psixika, miya, in’ikos, sezgi, idrok, tasavvur, emotsiya, iroda, xotira, intuitsiya, ong va til, ong va mehnat.

8–mavzusida dars o‘tish texnologiyalar

1-topshiriq

Insonga xos hususiyatlarni yozib bering

Insonga xos hususiyatlar		
BIOLOGIK	IJTIMOIIY	PSIXOLOGIK
1.	1.	1.
2.	2.	2.
3.	3.	3.
4.	4.	4.

2-topshiriq

«FSMU» texnologiyasi

«Insonmiyasida ong hosil bo‘lishi ijtimoiy muhit bilan bog‘liqmi?»

F	Fikringizni bayon eting	Bog‘liq
----------	--------------------------------	---------

S	Qarorning sababi	
M	Misol	
U	Xulosa	

Ma'ruzani mustaxkamlash uchun savollar

1. Inson nima uchun falsafaning bosh mavzui deb qaraladi?
2. Shaxs deganda nimani tushunasiz?
3. Ong nima?
4. O'z-o'zini anglash, uning shakllari?
5. Ijtimoiy ong shakllari nimalardan iborat?
6. Ong va ongsizlik munosabati qanday?
7. Individual ong nima?

Mavzu bo'yicha testlar:

1. Inson haqidagi ta'limotni ko'rsating

- A) Psixologiya V) Antropologiya
S) Sotsiologiya D) Arxeologiya

2. Inson irodasi, ruhiyati, xis-tuyg'ulariga asosiy e'tibor qaratuvchi falsafiy ta'limot:

- A) irratsionalizm V) volyuntarizm
S) nigilizm D) antissiyentizm

3. Insonning sotsial hususiyatlarini belgilang:

- A) oziqlanish, til, muomala, himoyalaniish
V) til, ong, axloq, madaniyat
S) ong, zavqlanish, kayfiyat, o'z-o'zini boshqarish
D) sharoitga moslashish, iztirob chekish, tafakkur

4. Insonning biologik hususiyatlarini belgilang:

- A) oziqlanish, til, muomala, himoyalaniish
V) til, axloq, madaniyat, bilim
S) ong, zavqlanish, kayfiyat, o'z-o'zini boshqarish

D) sharoitga moslashish, ko‘payish, oziqlanish

5. Shaxsga ta’rif bering

A) o‘zida sotsial xususiyatlarni mujassamlashtirgan, mustahkam imon-e’tiqodli, bilim va madaniyatli inson

V) o‘zida biologik xususiyatlarni ifodalovchi alohida odam shakli.

S) o‘z-o‘zini boshqara oladigan, sharoitga moslashadigan, zurriyot qoldiruvchi mavjudot

D) psixologik xususiyatlarni mujassamlashtirgan oliy mavjudot

6. Insonning psixologik hususiyatlarini belgilang:

A) iztiroblanish, zavqlanish, hayratlanish, kayfiyat

V) til, yig‘lash, azoblanish, xursand bo‘lish

S) zavqlanish, kayfiyat, qayg‘u, o‘z-o‘zini boshqarish

D) sharoitga moslashish, iztirob chekish, tafakkur, zurriyot qoldirish

7. Ong nima?

A) sezgi, intilish, iroda va xotiraning majmui

V) instinkt, intuitsiya va emotsiyalar yig‘indisi

S) miyaning xossasi, voqelikning in’ikosi

D) miya bilan bog‘liq moddiy hodisa

8. Quyidagilardan qaysi birida vulgar materializmi qarashlari ifodalangan?

A) ong miyaning xossasidir

V) ong materiyaning in’ikosidir

S) ong sub’ektiv reallikdir

D) ong moddiydir

9. Ong hosil bo‘lishining uchta shartini ko‘rsating:

A) inson miyasi, uning sog‘lomligi va ijtimoiy muhit

V) xotira, sezgilar va tabiiy muhit

S) miya, tajriba va sog‘lom muhit

D) ruhiy holat, bilim va instinkt

10. In’ikos nima?

A) O’ektlarning o‘zaro ta’sirlashuv natijasida aks ettirish bilan bog‘liq hossasi

- V) Inson miyasining umumiy xossasi;
- S) voqelikning qanday bo'lsa shunday aks ettirilishi;
- D) inson ongining tashqi dunyoni aks ettirish qobiliyati.

9–MAVZU: GLOBALLASHUV VA GLOBAL MUAMMOLARNING FALSAFIY JIHATLARI.

REJA:

- 1 Global muammolarning paydo bo'lishi.**
- 2 Hozirgi zamonning global muammolari**
- 3 Global jarayonlarni bashorat qilishning ahamiyati**
- 4 Texnika va texnologiyalarning ijtimoiy jarayonlarga ta'siri**

1 Global muammolarning paydo bo'lishi.

Global muammolar – bu shunday muammolarki, ular butun insoniyatning manfaatlariga daxl qiladi, uning kelajagiga xavf soladi hamda ular butun xalqaro hamjamiyatning ishtiroki bilangina hal etilishi mumkin.

XX asrgacha mavjud bo'lgan muammolar hech qachon butun planeta hamjamiyatining mavjudligiga xavf solmagan. Global muammolar Xx asr mahsulidir va ularning paydo bo'lishi inson faoliyati bilan bog'liq. Global muammolarning paydo bo'lishining sababi inson faoliyati bilan bugungi tabiatdagi va jamiyatdagi ahvol o'rtasidagi qarama-qarshilikning o'sib borishidir.

Ushbu sabab, o'z navbatida bir qator ichki sabablarga bo'linadi:

1. «Jamiyat-tabiat» tizimidagi qarama-qarshiliklar bilan bog'liq sabablar.
2. Jamiyatning o'zining ichidagi ijtimoiy tuzilmalar (individer, ijtimoiy guruhlar, davlatlar va xalqaro tuzilmalar) o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan bog'liq sabablar.

Global muammolar paydo bo'lgan paytdan boshlab olimlar, siyosatdonlar, ijtimoiy va xalqaro tashkilotlar e'tiborini jalb etdilar. Shu munosabat bilan global rivojlanishning turli-tuman matematik va kompyuter modellari va prognozlarini yuzaga kela boshladi.

XX asrning 70-yillarida olimlar, biznesmenlar va siyosatchilarni o'z safida birlashtirgan nohukumat tashkilot – Rim klubi tomonidan bir qator *prognoz modellari* yaratildi. Dastlabki ana shunday matematik modellarning birinchisi faylasuf va kibernetik olim X.O'zbek xon tomonidan yaratilgan edi. Keyingi imitatsion model («Mir-1») Dj.Forrester tomonidan yaratilgan.

2. Hozirgi dunyodagi global muammolar.

Urush va tinchlik muammolari. Inson sivilizatsiyasining butun tarixi, taassuf bilan qayd etish lozimki, urushlar tarixidan iborat. Urush uzoq vaqt davomida zarur, muqarrar va hatto insoniyatning rivojlanishi uchun foydali hodisa sifatida qarab kelindi

Ommaviy qirg'in qurollarining turlarining rivojlantirilishi (yadroviy, vodorod, neytron, kimyoviy, bakteriologik va hokazo) shunga olib keldiki, bugungi kunda to'plangan qurol-yarog'lar zahirasi insoniyatni hamda sayyoramizdagi jami mavjudotlarni bir necha marta yo'q qilish uchun yetarlidir. Aytish mumkinki, urush va tinchlik muammosi - bu «zamonaning tarixiy jihatdan birinchi global muammosidir va hozirga qadar global muammolar ro'yhatida birinchi o'rinda turuvchi eng xavfli va orqaga surib bo'lmaydigan muammo bo'lib qolmoqda»⁵.

Ekologik muammo. Ekologiya sohasida eng jiddiy masalalarisifatidaquyidagilare'tirofetilgan:

- Chuchuk suvning yetishmasligi;
- Dunyo okeanining ifloslanishi;
- Orolning qurishi;
- Havoning halokatli tarzda ifloslanishi;
- Tuproq eroziyasi;
- O'rmonlarning yo'q bo'lib ketishi;
- Tabiiy ofatlar oqibatlari (toshqinlar, zilzila, bo'ronlar, vulqonlar otilishi va hokazo).

⁵Qarang: Смирнов С.Н. Глобальные проблемы в их взаимосвязи и взаимозависимости. // В кн. Экономическая проблема в современной глобалистике. М., 1985. 48-б.

Umuman olganda ekologik muammo yadro urushini oldini olishdan keyingi ikkinchi muammo bo'lib qoldi va vaqt o'tishi bilan birinchi o'ringa chiqishi ham mumkin.

Energetik muammo. Amerikalik global-muammolar tadqiqotchisi *A. Smil*ning fikriga ko'ra hozirgi sivilizatsiyaning tayanchi bo'lgan «uch takit» - bu energiya oziq-ovqat va atrof-muhit bo'lib, qolganlari ikkinchi darajali ahamiyatga ega.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar faqat iste'mol qilinayotgan energiya miqdoriga ko'ra emas, balki sifatiga ko'ra ham farq qiladilar. Agar rivojlangan mamlakatlarda asosiy energiya manbalari – bu neft, gaz, kamroq miqdorda ko'mir bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda asosan har xil texnika ekinlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining chiqindilaridir.

Xom-ashyo muammosi. Energiya ishlab chiqarish va uni iste'mol qilish bilan chambarchas bog'liq muammo *xom-ashyo* (mineral resurslar, o'rmonlar va hokazo) muammosidir.

Xom-ashyo muammosining hal etilishi xom-ashyoning qimmat va olish qiyin bo'lgan turlarini arzon va oson olinadigan turlariga almashtirish, resurslarni tejaydigan texnologiyani joriy etish, ishlab chiqarishni miqdor ko'rsatkichlaridan sifat ko'rsatkichlariga qayta yo'naltirish bilan bog'liq.

Oziq-ovqat muammosi. Oziq-ovqat muammosi hozirgi paytda o'ta dolzarb bo'lib turibdi: och qolayotganlar soni 1970 yilda 460 million bo'lgan bo'lsa, 1990 yilda 550 millionga yetdi. 2000 yilga bu ko'rsatkich 650 million kishiga yetishgan (sayyora aholisining 10%).

Demografik muammo. Demografik muammo misolida butun global muammolarning o'zaro aloqasini yaqqol ko'rish mumkin. Ortiqcha aholi atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirning kuchayishni anglatadi: suv va havo sifati yomonlashadi (xususan tez o'sayotgan shaharlarda), yer unumdorligi pasayadi, sanoat va maishiy chiqindilar ko'payadi, ya'ni ekologik vaziyat keskin yomonlashadi. Aholi soni qancha ortib borsa, uning hayoti va faoliyati uchun

energiya, xom-ashyo, oziq-ovqat shunchalik ko‘p talab etiladi. Buning mantiqiy nihoyasi esa energetik, xom-ashyo, oziq-ovqat muammolarining keskinlashuvidir.

«**Terrorizm**» tushunchasining o‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, «terror» - qo‘rquv, dahshat demakdir. Dastlab terror siyosiy ta’sir metodi sifatida Ulug‘ fransuz inqilobi davrida radikallar tomonidan siyosiy raqiblarni qo‘rqitish maqsadida qo‘llanilgan. Boshqacha qilib aytganda, *terrorizm* – bu to‘g‘ridan to‘g‘ri kuch ishlatish metodi orqali siyosiy muammolarni yechishning o‘ziga xos usulidir.

Fundamentalizm, radikalizm, ekstremizm, terrorizm qat’iy belgili aloqa bilan bog‘langan emaslar. Mohiyat jihatdan ushbu hodisalarning har birini to‘laligicha, bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda mustaqil ravishda o‘rganib chiqish mumkin.


Tayanch so‘zlar:

Globallashuv, globalistika, global muammolar, urush va tinchlik, demografiya, ekologik muammolar, energetika, xom-ashyo muammosi, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, agressiv millatchilik, irqchilik, buyuk davlatchilik shovinizmi, korrupsiya, texnika, texnologiya, nanotexnologiya, internet, virtual muloqot, sun’iy intellekt.

9-mavzu bo‘yicha qo‘laniladigan pedagogik texnologiyalar.

1-topshiriq


«**Nima uchun?**» texnikasidan foydalanib muammoning sabablarini ko‘rsating: “Global muammolar nima uchun butun insoniyatga katta havf solmoqda?”



2-topshiriq

“Baliq skeleti” texnikasi

Ushbu texnologiya katta muammolarning yechimini topishga qaratilgan. Yuqori qismida muammolar turi yozilsa, pastki qismida esa muammolarni tasdiqlovchi dalillar yoziladi



Ma’ruzani mustaxkamlash uchun savollar

1. Global muammolarni hal qilishda falsafaning roli qanday?
2. Harakatlar strategiyasida global muammolarning tavsifi haqida gapiring?
3. Demografiya muammosini hal qilish uchun dunyo mamlakatlarida qanday chora- tadbirlar olib borilmoqda?
4. Terrorizmning ko‘rinishlari va salbiy oqibatlari haqida gapiring.
5. “Buyuk davlatchilik shovinizmi” deganda nimani tushunasiz?

Mavzu bo‘yicha testlar:

1. Globallashuv nima?

- A) Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy inqirozi bilan bog‘liq salbiy hodisa
- V) Turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma’naviyati, odamlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va bog‘liqlikning kuchayishi
- S) Jamiyatni jipslashtiruvchi, uni chetdan bo‘layotgan g‘oyaviy, ma’naviy tahdidlardan himoyalovchi kuch.
- D) Turli mamlakatlar madaniyatining milliy urf-odatimizga ta’siri

2. “Men uyimning eshiklarini mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki uyimga toza havo zarur. Shu bilan birga bemalol ochib qo‘ya ham olmayman, chunki chang-to‘zonlar ham kirishi mumkin”. Globalluv haqida bu so‘zlar kimga tegishli?

- A) Maxatma Gandi
- V) Javoharlal Neru
- S) Islom Karimov
- D) Mahmudxo‘ja Behbudiy

3. Global muammolar deganda nimani tushunasiz?

- A) Butun insoniyat manfaatlariga dahl qiluvchi muammolarni
- V) Butun xalqaro xamjamiyatning ishtiroki bilan gina hal etilishi mumkin bo‘lgan muammolarni
- S) Insoniyat kelajagiga xavf soluvchi muammolarni
- D) Barcha javoblar to‘g‘ri

4. Global muammolar qachon paydo bo‘la boshladi?

- A) XIX asrlarda
- V) XVIII asrlarda
- S) XX asrlarda
- D) XXI asrlarda

5. Global muammolarni ko‘rsating

- A) Tinchlikni saqlash, orol muammosi, oziq-ovqat muammosi, milliy valyutaning qadrsizlanishi
- V) Energetika muammosi, korrupsiya, ta’lim tizimining izdan chiqishi, buyuk davlatchilik shovinizmi
- S) Diniy ekstremizm, demografiya, yer yuzida qashshoqlikka barham berish, ekologik muammolar
- D) Barcha javoblar to‘g‘ri

6. Ozon qatlami yer yuzasidan qancha balandda joylashgan?

- A) 30 kilometr
- V) 25 kilometr
- S) 20 kilometr
- D) 35 kilometr

7. Orol dengizining qurishi qachondan boshlangan?

- A) 1965 yildan

V) 1961 yildan

S) 1962 yildan

D) 1960 yildan

8.Terrorizm nima?

A) Qoʻrqitish, toʻgʻridan toʻgʻri kuch ishlatish, muxoliflarni yoʻqotish orqali siyosiy xokimiyatni egallash usuli

V) Oʻz millati va davlati manfaatlarini boshqalardan ustun qoʻyish

S) Milliy va umuminsoniy manfaatlarining mushtarakligi hamda ularning ustuvorligini tan olmaslik

D) Barcha javoblar toʻgʻri

9. Global muammolar bilan bogʻliq “Rim klubi” xalqaro jamoatchilik tashkiloti qachon tashkil topgan?

A) 1966 yilda

V) 1968 yilda

S) 1971 yilda

D) 1986 yilda

10. Demografiya soʻzining maʼnosi nima?

A) grek. “demos-xalq”, “grafos-boshqaruv”

V) lot. “demos-xalq”, “grafiya-xokimiyat”

S) grek. . “demos-xalq”, “grafos-yozaman”

D) lot. “demos-aholi”, “grafiya-oʻsish”

GLOSSARIY

Avesto – (parfiyoncha apastak-matn) zardushtiylik dinining muqaddas kitoblari to‘plami.

Agnostitsizm – dunyoni bilish mumkinligini inkor etuvchi falsafiy ta’limot.

Aksiologiya – (grek.axio-qadriyat, logos-ta’limot) qadriyatlar haqidagi fan.

Aksidensiya – (lot.accidentia-tasodif) Biror narsaning muhim bo‘lmagan, tasodifiy, o‘zgaruvchan, ahamiyatsiz xossasini bildiruvchi falsafiy atama.

Antropologiya – (grek.anthropos-odam, logos-ta’limot)inson haqidagi ta’limot. Falsafaning birinchi va asosiy maqsadi sifatida insonni e’tirof etadi.

Antissiyentizm – fan taraqqiyoti jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini asoslovchi falsafiy dunyoqarash.

Apologetika–(грек.apologetikos) – himoya qilish ma’nosini anglatadi.

Borliq–bir butun dunyo va undagi narsa va hodisalardan tortib, inson hayoti, ongi, kishilar faoliyatining barcha ob’ektiv va sub’ektiv sharoitlari, hatto jamiyatda sodir bo‘ladigan butunj arayonlar.

Vahdati vujud – (arab.-jismoniy birlik) abadiy yagona Ollohgina bor deb hisoblovchi panteistik ta’limot.

Vaxdati mavjud – (arabcha mavjudot birligi) Olloh bilan birga yagona moddiy olam bor deb hisoblovchi ta’limot.

Vedalar – (sanskrit chaveda-bilim) qadimgi hind adabiy yodgorligi. Vedalarda qadimgi hindlarning tarix, falsafa, iqtisod, din, axloq kabi turli sohalarga oid dastlabki fikrlari o‘z ifodasini topgan.

Gnoseologiya– (grek. gnosis - bilish, logos - ta’limot) falsafada dunyoni anglash, uning umumiy qonuniyatlarini bilish to‘g‘risidagi ta’limot.

Germenevtika–tushunish, tushuntirish, tahlil etish g‘oyalariga asosiy diqqatini qaratuvchi falsafiy oqim..

Daosizm- (dao-yo‘l, qonun) qadimgi Xitoydagi falsafiy ta’limot.

Dualizm– (lotin tilida dua, ya’ni ikki degan ma’noni ifodalaydi) –olamning asosida ikkita asos, ya’ni modda va materiya bilan birga ruh va g‘oya, ya’ni g‘oya yotadi deyuvchi qarash.

Dialektika—grekcha soʻz boʻlib, baxs va suhbatlashish sanʼati, degan maʼnoni anglatadi. Borliqning vujudga kelishi, uning taraqqiyoti haqidagi falsafiy taʼlimot hamda voqelikni bilish va unga asoslangan tafakkur uslubi.

Determinizm – (lot. aniqlayman) barcha hodisalarning oʻzaro obʼektiv qonuniy aloqadorligi va sababiy bogʻlanishi toʻgʻrisidagi falsafiy taʼlimot.

Deizm – diniy falsafiy taʼlimot. Bu taʼlimotga koʻra olam xudo tomonidan yaratilgan. Lekin tabiatning keyingi taraqqiyotida xudoning alashuvini inkor etadi.

Jaynizm – hind falsafiy maktablaridan biri. Mil.av. 6 asrda paydo boʻlgan. Asoschisi Jinna laqabli Vard xamana.

Idealizm – olamning asosida ruh yoki gʻoyalar (ideyalar) yotadi, dunyo voqeligi va rivojida ideyalarni ustuvor deb taʼlim beradigan falsafiy taʼlimot.

Inkor – eskining oʻrniga yangining vujudga kelishini anglatuvchi falsafiy tushuncha.

Intuitsiya – (lot. sinchiklab qarayman) haqiqatni dalil bilan isbotlamasdan bevosita fahm-farosat bilan anglab olish qobiliyati. Intuitsiyaning hissiy, aqliy, emotsional, mistikturlari bor.

Inʼikos – obʼektlarning oʻzaro taʼsiri natijasida modda, energiya va axborot almashishi jarayoni; voqelikning aks etishi.

Kalom – (arab. Ravon nutq, soʻz) islom ilohiyot ilmi. 8-asrda arab halifaligida paydo boʻlgan. Kalom Islom diniy taʼlimotini asoslashga harakat qiladi. Kalom tarafdorlari mutakallimlar deyiladi.

Kategoriya – qadimgi yunon tilidan olingan boʻlib: «izohlash», «tushuntirish», «koʻrsatish», degan maʼnolarni anglatadi.

Materiya—moddiy obʼektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qullaniladigan falsafiy tushuncha.

Materializm—olamning asosida materiya, yaʼni moddiy narsalar yotishini eʼtirof etadigan, moddiylikni ustuvor deb biladigan taʼlimot.

Monizm (grek. - monos, yaʼni yakka maʼnosini anglatadi) —olamning asosi yakayu-yagona sababga, bitta asosga ega deb taʼlim beradigan falsafiy taʼlimot.

Metafizika—grekcha soʻz boʻlib, lugʻaviy maʼnoda «fizikadan keyin» degan mazmunni ifodalaydi.

Neopozitivizm – neo — yangi; pozitiv — ijobiy degan maʼnoni anglatadi. 20-asrning falsafiy oqimlaridan biri. N. gʻoyalari ilmiy bilim va falsafiy-metodologik muammolar tahlili va yechimini topishga qaratilgan.

Neotomizm – katolitsizmdagi eng nufuzli falsafiy maktab. Oʻrta asr faylasufi Foma Akvinskiyning eʼtiqod va aql uygʻunligi mavjudligi gʻoyasiga asoslanadi.

Nominalizm—lotincha nomi na - ism, nom maʼnosini anglatadi.

Ongsizlik—inson ongida ifodalanmagan, uning aql doirasidan tashqarida boʻlgan va inson ongi tomonidan nazoratga boʻysunmagan psixik jarayon. Ongsizlik jarayoniga instinkt, qiziqish, tush koʻrish, intuitsiya kabilar kiradi.

Ontologiya—borliq haqidagi taʼlimot.

Panteizm— (grek. pan-hamma, teos-xudo) Xudo bilan tabiatni aynanlashtiruvchi diniy-falsafiy taʼlimot.

Plyuralizm— (lotin tilida plyural, yaʼni koʻplik degan maʼnoni anglatadi) olamning asosida koʻp narsa va ideyalar yotadi deb eʼtirof etadigan taʼlimot.

Pragmatizm—grekcha pragmatos soʻzidan olingan boʻlib «ish, hatti-harakat» degan maʼnoni anglatadi.

Progress—lotincha ilgarilanma harakat, muvaffakiyat demakdir.

Ratsionalizm – lotincha rationalis, ratio – aql degan maʼnoni anglatib, aqlga odamlarning bilish va xulqi asosi, deb qaraydigan falsafiy yoʻnalish.

Regress—lotincha orqaga kaytish degan maʼnoni anglatib, rivojlanishda orqaga ketish, eski shakllarga qaytish, taraqqiyotning quyi darajasiga tushib qolishni anglatuvchi tushuncha.

Sensualizm – (lot.sezgi, his) sezgilarni bilishning asosiy manbai deb eʼtirof etuvchi taʼlimot

Sinergetika – (grek.hamkorlik, kelishuv) sistemalarning oʻz-oʻzidan tashkil boʻlish nazariyasi, oʻz-oʻzini boshqarish, nochiziqli hodisalarni oʻrganish, dunyoni yangicha izohlash, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy murakkab tizimli jarayonlar tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yoʻnalish.

Skeptizm – bilishga shubha bilan qarovchi falsafiy ta’limot.

Substansiya – (lotincha substantia – mohiyat) olam va dunyodagi narsalarning mohiyatini, asosini ifodalovchi tushuncha.

Sofistika–grek tilidagi «sopism» soʻzidan olingan boʻlib, ataylab xilma-xil maʼnoga ega boʻlgan tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatga toʻgʻri kelmaydigan, koʻchma maʼno-mazmunga erishish usuli.

Sxolastika–diniy falsafaning asosiy yunalishlaridan biri.

Ssiyentizm – (lotsciyentia — fan) yaʼni fan mavjud barcha ijtimoiy muammolarni hal etishi mumkinligini ilm-fan taraqqiyotining doimiy ijobiyligini asoslovchi falsafiy dunyoqarash.

Strukturalizm–narsa va hodisaning strukturasini bilish uning obʼektiv mohiyatini bilish, deb hisoblovchi oqim.

Tasavvuf – (arab. poʻstin kiyganlar)islom taʼlimoti asosida insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yoʻllovchi talimot

Upanishadalar–vedalarning falsafiy qismidir. Upanishada soʻzi toʻgʻridan-toʻgʻri «davra», «davra olmoq» (ustoz atrofida) demakdir. Lekin uning ikkinchi botiniy maʼnosi - «sirli bilim», «yashirin bilim».

Falsafa– grekcha phileo - sevaman, Sophia –donolik degan maʼnoni anglatib, insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan biri.

Fazo va vaqt – borliqning umumiy yashash shakllari. Fazo- dunyoni tashkil etuvchi obʼektlarning oʻzaro joylashish tartibi, koʻlami va miqyosini ifoda etuvchi tushuncha.Vaqt- dunyoda sodir boʻluvchi hodisa va jarayonlarning ketma-ketligi va davomiyligini ifodalovchi tushuncha.

Ekzistensializm–lotincha «ekzistensiya» yoki ingizcha «ekzistense» soʻzidan olingan boʻlib, «mavjudlik», «mavjud bulmoq», degan maʼnoni anglatadi. Bu tushuncha inson borligʻini, mohiyati va mavjudligini bildiradi.

Eklektika–grekcha tanlayman, degan maʼnoni anglatib, turli qarama-qarshi nazariyalarni, qarashlarni aralash-quralash qilib yuboruvchi tafakkur usuli.

Empirizm – (grek.tajriba) hissiy tajribani bilishning birdan-bir manbai deb hisoblovchi falsafiy oqim. Ratsionalizmga qarshi turadi, sensualizmga yaqin.

Mustaqil ish uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Falsafa fanining predmeti, muammolar doirasi va vazifasi.
2. Falsafiy dunyoqarashning o‘z-o‘zini anglashdagi roli.
3. Falsafani yangi yo‘nalishda rivojlantirish - davr talabi.
4. Dunyoqarash tushunchasi va uning hususiyatlari.
5. Insonning ma’naviy kamolotida falsafiy dunyoqarashning roli.
6. Sharq xalqlarining ilk falsafiy fikrlari.
7. Markaziy Osiyodagi dastlabki falsafiy fikrlar.
8. O‘rta asr falsafasi.
9. XVI-XX asrlarda Markaziy Osiyoda ijtimoiy-falsafiy fikrlari.
10. Qadimgi Yunoniston va Rimdagi falsafiy fikrlar.
11. G‘arbiy Yevropa xalqlarining o‘rta asrlar falsafasi.
12. Nemis klassik falsafasi.
13. Borliq tushunchasi.
14. Substansiya va materiya.
15. Harakat va rivojlanish tushunchasi.
16. Forobiyning falsafiy qarashlari.
17. Ibn Sinoning falsafiy ta’limoti.
18. Navoiyning falsafiy qarashlari.
19. Beruniyning falsafiy ta’limoti.
20. Inson va tabiatning o‘zaro aloqadorligi.
21. Ekologik muammo va uni bartaraf etish yo‘llari.
22. Ijtimoiy va individual ong.
23. Falsafada uslub muammosi.
24. Falsafaning asosiy qonunlari.
25. Dialektika kategoriyalari.
26. Falsafa qonun va kategoriyalarining ijtimoiy jarayonlar dialektikasidagi roli.
27. Falsafiy dunyoqarashning o‘z-o‘zini anglashdagi roli.
28. Falsafa va fan mutanosibliigi.
29. Ssiyentizm va antitsiyentizm.

30. O'zbekistonda korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi, korrupsiyaga qarshi kurashning ahamiyati.
31. Bilim inson ma'naviy kamoloti omili.
32. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy tizimi.
33. Tarix falsafasi va falsafa tarixi.
34. Sharq va G'arb falsafasida inson masalasi
35. Globallashuv sharoitida antropologik inqirozni oldini olishning zaruriyati.
36. Ilmiy va ijtimoiy prognozlashtirishning o'zaro aloqadorligi.

BAHOLASH MEZONLARI

“Falsafa” fanidan talabalar bilimini baholashning tizimi

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **5 (a'lo) baho**;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **4 (yaxshi) baho**;

Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **3 (qoniqarli) baho**;

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

Назарий-методологик

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016. -53 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан курашимиз. Т.: Ўзбекистон, 2017. - 484 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: Ўзбекистон, 2017. - 28 б.
4. Каримов. И.А. Асарлар тўплами. 1-24 жилдлар.- Т.: Ўзбекистон, 1996-2016.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. 2-нашр -Т.: Маънавият, 2016. -176 б.
6. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Т.: Ўзбекистон, 2017. 104 б.
7. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.: Ўзбекистон. 2017. 592 б.
8. Президент Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2018, 28 декабрь.

Асосий адабиётлар:

1. Основы философии. Учебник. Издание 2-е, переработанное, дополн./Под ред. М.А.Ахмедовой,В.С.Хана. – Т.: Мехнат. 2004.
2. Пўлатова Д., Иззетова Э. Философия. – Т.: Шарқшунослик, 2012. 340 б.
3. Фалсафа. Ахмедова М. Таҳрири остида. – Т.: ЎФМЖ, 2006
4. Фалсафа. Ўқув қўлланма. –Т., Шарқ 1999.
5. Фалсафа. Маърузалар матни. –Т., 2000.
6. Фалсафа асослари. Назаров К таҳрири остида. - Т.: Шарқ, 2005.
7. Шермухамедова Н.А. Фалсафа. – Т.: Ношир, 2012. – 1207 б.

Қўшимча адабиётлар:

1. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. –Т.: Янги аср авлоди, 2016. -318 б.
2. Ал-Бухорий. Хадис. 1-4 томлар. -Т.: Мерос, 1990-1992.
3. Ахмад Яссавий. Хикматлар. -Т., 1993.
4. Бозаров Д. Синергетик парадигма. – Т.: Тафаккур, 2010. -160 б.
5. Мадаева Ш. Миллий менталитет ва демократик тафаккур. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007.
6. Назаров К. Аксиология - қадриятлар фалсафаси. -Т.: ОФМЖ, 2004.
7. Назаров К.Н. Билиш фалсафаси. - Т.: Университет, 2005.
8. Назаров К. Ғоялар фалсафаси . - Т.: Академия, 2011.
9. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат. – Т.: Янги аср авлоди. 2008.
10. Пўлатова Д, Қодиров М., Ахмедова М. Ва бошқ. Фалсафа тарихи: Шарқ фалсафаси. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДШИ. 2013
11. Туленов Ж., Туленова Г., Туленова К. Фалсафа. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2016.
12. Тўраев Б. Борлик: моҳияти, шакллари, хусусияти. – Т.: ЎзРФА Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2011.
13. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. – Т.: Sharq, 2005.
14. Choriev A. Inson falsafasi. – Toshkent. O'FMJ, 2006.
15. Шермухамедова.Н.А. Инсон фалсафаси. – Т.: Ношир, 2017. 460 б.
16. Шермухамедова Н. Фалсафага кириш. – Т.: Ношир, 2012. 320 б.
17. Шермухамедова Н.А. Борлик ва ривожланиш фалсафаси. –Т.: Ношир, 2013 720 б.
18. Шермухамедова Н.А. Гносеология - билиш фалсафаси. -Т.: “Ношир”, 2009.
19. Қаҳҳорова Ш. Глобал маънавият – глабаллашувнинг ғоявий асоси. –Т.: Тафаккур, 2009.-670 б.

MUNDARIJA

Kirish.....	2
1-Mavzu. Falsafa fanining predmeti, mazmuni va va jamiyatdagi roli.....	4-12
2-Mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq falsafasi.....	12-30
3-Mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari G'arb falsafasi.....	30-44
4-Mavzu. Borliq – falsafaning fundamental kategoriyasi.....	44-52
5-Mavzu. Olamning universal aloqalari va rivojlanish. Falsafaning qonun va kategoriyalari.....	52-63
6- Mavzu. Bilish nazariyasi: asosiy muammolari va yo'nalishlari.....	63-71
7- Mavzu. Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma'naviy qadriyatlari. Jamiyat va tarix falsafasi.....	72-79
8-Mavzu. Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi).....	79-90
9-Mavzu. Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari.....	90-97
Glossariy.....	97-100
Mustaqil ish mavzulari.....	100-101
Baholash mezonlari.....	101
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	102-103